O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

X.M.MAMATQULOV

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

(Ma’ruzalar kursi)

CAMARQAND - 2006

Mamatqulov X.M. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar.
Ma'ruzalar kursi. Sam ISI. Samarqand. 2006.

Taqrizchilar: Samarqand Davlat Universetiti tabiiy fanlar fakulteti. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti M.Usmonov
SamISI «Iqtisod» kafedrasi dotsenti
E.S. Fayziyev

© Sam ISI, X.M.Mamatqulov 2006.

K I R I SH

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari o‘quv fanlari orasida bakalavriyat yo‘nalishidagi Umumiqtisodiy kasblar - «Bank ishi», «Moliya», «Buxgalteriya hisobi va audit» da «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» (XIM) fani alohida o‘rin tutadi.

Mazkur fan xorijiy mamlakatlarda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim qonuniyatlarini ochib berishga qaratilgan. Kursning umumiy hajmi 36-soat auditoriya mashg‘ulotlariga mo‘ljallangan. Kursning maqsadi turli iqtisodiyot sohalarini o‘rganayotgan talabalarda umumiqtisodiyot bazasini rivojlantirish va malakali iqtisodchilar tayyorlashdan iborat.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti bo‘lib, aslida milliy, hududiy va global miqyosdagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi ya’ni xilma xil xo‘jalik tizimi (ishlab chiqarish, savdo, ilmiy-texnik, valyuta-moliya, pul-kredit va boshqalar) aloqalari va ularni amalga oshirilish mexanizmlarini o‘rganishdan iboratdir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon xo‘jaligi tizimida davlatlararo ziddiyatlarga ega bo‘lgan iqtisodiy aloqalar yig‘indisini, ularning mintaqaviy birlashmalari, hamda alohida korxonalari (TMK - transmilliy korporatsiyalar) o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni qamrab oladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti o‘rganilib qolmasdan balki, ular o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va fazilatlari o‘rganiladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (XIM) madomiki, boshqa fanlar singari oddiy iqtisodiy munosabatlarni emas, balki juda tez-tez takrorlanuvchi o‘ziga xos bo‘lgan, harakterli aloqalarni o‘rganadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmi o‘z ichiga xalqaro huquq normalari va ularni amalga oshirish yo‘llari (xalqaro iqtisodiy shartnomalar, bitimlar, «kodekslar» («qonunlar majmuasi»), hartiyalar (ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi bir hujjatlar) va boshqalarni oladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar kursi o‘z tarkibiga xalqaro iqtisodiy aloqalarning quyidagi shakllarini kiritadi.

- Jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: mohiyati, tarkibi va taraqqiyotning asosiy qarralari;
- Xalqaro savdo aloqalari va savdo siyosati;
- Xalqaro kapital migratsiyasi va xorijiy investitsiyalar;
- Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari;

- Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi;
- Xalqaro korporatsiyalar (monopoliyalar).

Qo‘llanma yozilish chog‘ida jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish dinamikasini harakterlovchi axborotlar va statistik materiallardan foydalanildi. Har bir mavzu o‘rganilganidan keyin nazorat savollari tavsiya etildi. Talabalar ushbu savollar va keltirilgan adabiyotlardan o‘z bilimlarini sinab ko‘rishda u yoki shaklda samarali foydalanishlar mumkin.

1-mavzu. JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR: MOHIYATI, TARKIBI VA TARAQQIYOTNING ASOSIY QIRRALARI,

1.1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti, uslublari va vazifalari.

1.2. Jahon xo‘jaligi tarkibi va mohiyati.
1.3. Jahon xo‘jaligining globallashuvi bosqichlari.
1.4. Jahon xo‘jaligi qarama-qarshiliklari va rivojlanish tendensiyalari.

1.1. Jahon iqtisodiyoti va halqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti, uslublari va vazifalari

Jahon iqtisodiyoti fani turli xil davlat sub’ektlariga ta’luqli qonuniyatlar xalqaro tovar almashish, ishlab chiqarish omillari harakati va moliyalashtirish, Xalqaro iqtisodiy siyosati shakllantirish sohalarini o‘rganadi.

XIM faniga muhim mavzu XIM ning o‘rni va uni amalga oshirish mexanizmini o‘rganish kiradi.

XIM o‘z ichiga alohida mamlakatlar o‘rtasidagi qarama-qarshi iqtisodiy munosabatlar majmui, jahon xo‘jaligi tizimini oladi. XIM xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotini emas, ularning iqtisodiy munosabatlari xususiyatlarini tadqiq qiladi. XIM ham boshqa fanlar singari har qanday iqtisodiy munosabatlarni emas, balki uning harakterli tez-tez tipik qaytariluvchi munosabatlarini aniqlashni o‘rganadi.

XIM mexanizmi huquqiy me’yorlar va ularni amalga oshirish usullari (halqaro bitimlar, kelishuvlar, hartiyalar «kodeks» lari va h.k.) ga mos keluvchi Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar maqsadlari, XIM taraqqiyotiga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘z ichiga oladi.

XIM tarkibiga halkaro mehnat taqsimoti, xalqaro savdo, xorijiy sarmoyalar va mablag‘larning xalqaro harakati, ishchi kuchlarining Xalqaro migratsiyasi, halqaro valyuta-moliya va kredit munosabatlari, halqaro iqtisodiy integratsiyalar kiradi.

1.2. Jahon xo‘jaligi tarkibi va mohiyati

Jahon xo‘jaligining shakllanishi o‘zoq tarixga ega. U ayniqsa buyuk geografik kashfiyotlar (XV-XVI asrlar) davrida jadal rivojlana bordi. Mamlakatlararo tovar almashinuvi halqaro huquqiy me’yorlar asosida rivojlanmoqda. XIX asrdan kapital va moliyaviy vositalarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga chiqarish oqimi jadallashadi. Bu

munosabatlarni tartibga soluvchi birinchi valyuta tizimi yaratildi. Birinchi transmilliy korporatsiyalari (TMK) paydo bo‘ldi. Ular o‘zlarini operatsiyalari asosiy qismini mamlakatdan tashqarida amalga oshira bordilar. Jumladan, o‘zlariga qaram korxonalar, filiallar, bo‘lim tarmoqlari ruyxatga olingan bir necha mamlakatlarda faoliyat olib bordilar. TMK halkaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish va baynalminallashtirish jarayonlari negizida mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirdi.

XIX asr oxirlarida davlatlar o‘rtasida munosabatlar tizimi rivojlana bordi va bu jarayon yaxlit jahon xo‘jaligining shakllanishiga olib keldi.

Jahon xo‘jaligi – bu halqaro iqtisodiy aloqalar (tashqi savdo, kapital chiqarish, valyuta-kredit munosabatlari, ishchi kuchlari migratsiyasi, iqtisodiy integratsiya va h.k.) orqali bir-birlari bilan o‘zviy bog‘langan turli milliy xo‘jaliklarni o‘z ichiga olgan global xo‘jalik mexanizmidir.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi bir xil bo‘lmasdan unga o‘zining ijtimoiy tarkibi, siyosiy tuzumi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish munosabatlari, shuningdek halqaro iqtisodiy munosabatlari ko‘lami, harakteri va shakllari bilan milliy xo‘jaliklar kiradi. Jahon xo‘jaligi sub’ektiga jahon hamjamiyati kiradi. U o‘z ichiga o‘zaro yaxlit bog‘langan butun bir turli darajadagi tizimlarni, tuzulmalarni (milliy-davlat, hududiy hamjamiyat, xalqaro tashkilotlar, assotsiatsiyalar, korxona jamoalari, alohida shaxslar) qamrab oladi.

Jahon milliy xo‘jalik iqtisodiyoti ob’ektlari esa hududiy ishlab chiqarish komplekslari, TMK, firmalar va h.k. dir. XX asrga kelib jahon hamjamiyati manfaatlari har qanday xususiy manfaatlar (milliy, sinfiy, ijtimoiy) dan ustun tura boshladi. Tinchlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy-siyosiy faoliyat, ekologik xavfsizlik, shaxs fidoyiligi kabi qadriyatlarning yangi tizimi paydo bo‘ldi.

Jahon xo‘jaligini global boshqaruv tizimini yaratish imkoniyatlari tug‘ildi.

Global boshqaruv deyilganda ozodlik va demokratiya sharoitida atrof-muhit taraqqiyotini birgalikda saqlash, butunjahon xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, o‘zgarishlarni to‘g‘ri yo‘lga solish usullari va imtiyozlari tushuniladi.

Jahon global boshqaruv institutlari yaratildi. Bu:

- Halqaro huquq;
- Hukumatlararo tashkilotlar: BMT, Halqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, (JB), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST);
- Ixtisoslashgan nodavlat halqaro tashkilotlari («Grinpis», «Qizil Xoch» va h.k.).

Murakkab jahon xo‘jaligi aloqalari va alohida milliy xo‘jaliklar iqtisodiyoti taraqqiyotini tahlil etish, taqqoslashda jahon tajribasida Milliy hisoblash tizimidan foydalaniladi.

Milliy hisoblash tizimi (MHT) bu iqtisodiy taraqqiyotning makro darajasi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlari tizimidir. Milliy hisoblash tizimi yordamida bozor mexanizmlari va institutlari tizimi harakatga keltiriladi.

Milliy hisoblash tizimi markaziy ko‘rsatkichi bu **yalpi ichki mahsulotdir (YAIM).** YAIM tovarlar, xizmatlarni iste’mol holatiga keltirilguncha bo‘lgan barcha jarayonlar jamg‘arish, eksport, ishlab chiqarishga ushbu mamlakatda ketgan vaqt, harajat va haridning so‘nggi bahosidir.

Jahon va yirik mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami quyidagi 1 jadvalda aks ettirilgan.

Jadval - 1

Jahonning eng yirik mamlakatlari yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha reytingi (2002 yil).

Mamlakatlar	Aholisi, mln. kishi	Yalpi ichki mahsulot mlrd. dollar	Jahon yalpi ichki mahsulotda mamlakat ulushi, %	Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot ming. dollar	1990 -2002 yillarda yalpi ichki mahsulot o‘sishi marta
AQSH	277,0	10,000	20,56	36,1	15,9
Xitoy	1260,0	4900	10,09	3,9	23,3
Yaponiya	127,0	3 500	7,21	27,6	46,7
Germaniya	82,0	2 160	4,45	26,3	10,0
Hindiston	1020,0	2 020	4,16	2,0	13,3
Fransiya	59,0	1 610	3,31	27,3	9,2
Italiya	58,0	1 460	3,01	25,2	17,2
Buyuk Britaniya	59,0	1 435	2,95	24,3	5,5

Rossiya	145,0	1 265	2,60	8,7	8,4
Braziliya	174,0	1 100	2,26	6,3	73,3
Meksika	100,0	875	1,80	8,8	39,8
Indoneziya	206,0	850	1,75	4,1	28,3
Kanada	31,0	850	175	27,4	25,0
Janubiy Koreya	47,5	710	1,46	14,9	64,5
Tailand	62,5	525	1,08	8,4	87,5
Avstraliya	19,5	515	1,06	27,4	24,5
Butun Jahon	6000,0	48 575	100	8,1	18,8

Ikkinchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkich-**yalpi milliy mahsulot (YAMM) dir.** YAMM da milliy korxonaning qayerda joylashganidan qat’iy nazar (mamlakatning o‘zidami, xorijdami) milliy iqtisodiyotdagi xizmatlar va mahsulotlar hajmi qiymati hisobga olinadi.

Shunday qilib yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy mahsulot o‘rtasidagi farq quyidagicha:

YAIM hududiy prinsip asosida hisoblanadi, ya’ni milliy mansubligidan qat’iy nazar, ushbu mamlakat hududida joylashgan korxonalarda ishlab chiqarishda foydalanilgan xom ashyo va mahsulot, xizmat sohalari jami qiymati hisobga olinadi.

YAMM esa milliy belgisiga qarab ya’ni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan jami qiymati bo‘yicha hisoblanadi.

Milliy hisoblash tizimi muhim ko‘rsatkichlaridan biri-bu, **milliy daromad** (MD) dir. MD –bu daromad, mehant haqini o‘z ichiga olgan pirovard mahsulotning bo‘lagidir. Yalpi ichki mahsulotdan farqli ravishda milliy daromadga chetdan olingan yoki chetga berilgan daromadlar qo‘shilmaydi.

Xalqaro taqqoslash uchun aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar ham qo‘llaniladi.

Milliy hisoblash tizimida turli mamlakatlar ko‘rsatkichlari taqqoslanganda yagona valyuta sifatida an’anaviy AQSH dollari qo‘llaniladi.

Jahon xo‘jaligida mamlakatlarni tabaqalarga ajratishda ularning iqtisodiy taraqqiyoti darajasi bo‘yicha kuzatiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyotining beshta mezoni mavjud bo‘lib ularga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish taraqqiyoti darajasi;

- iqtisodiyotning ijtimoiy mo‘ljallari (aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash);
- ilmiy va texnologik potensiali darajasi;
- iqtisodiyotni gumaniylashtirish (madaniyat, meditsina, ta’limga harajatlar);
- iqtisodiyotni ekologizatsiyalash (atrof muhitga zararsiz ishlab chiqarishni yo‘lga ko‘yish).

Jahon banki hozirgi kunda dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha quyidagi guruhlarga ajratadi:

- sanoati rivojlangan mamlakatlar;
- rivojlanayotgan mamlakatlar;
- o‘tkinchi iqtisodiyotli davlatlar.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar. Ularda 1,0 mlrd. dan ortiq kishi yashaydi. Ular ulushiga jahon YAIM - yalpi ichki mahsulotning 50% to‘g‘ri keladi. Yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 10-25 ming dollarni tashkil qiladi. Jahon xo‘jaligidagi roli bo‘yicha ularni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin.

- «Sakkizlik» (AQSH, Yaponiya, Rossiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Kanada, Buyuk Britaniya) davlatlari;
- Yevropa rivojlangan mamlakatlari;
- Kuchma kapital mamlakatlari (Avstraliya, JAR, Isroil).

Rivojlanayotgan mamlakatlar. Ularga yer yuzi aholisining 70 %, jahon mineral xom ashyo zaxiralarining 50 % to‘g‘ri keladi. Jahon sanoat eksportida ularning ulushi 30 % ni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining past darajadaligi, ko‘p ukladlilik (natural, mayda tovarlik, xususiy kapitalistik, davlat xo‘jaligi), jahon bozorida qishloq xo‘jaligi xom ashyosi va mineral yarim fabrikatlar bilan tovar almashish, moliyaviy vositalarning yetishmasligi harakterdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- Lotin Amerikasi, Tinch okeani va Osiyo hududidagi yangi industrial mamlakatlar o‘z o‘rnida (Argentina, Braziliya, Venesuela, Meksika, Urugvay, Singapur, Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong va boshqalar).
- neft eksport qiluvchi OPEK mamlakatlari (Qator, Quvayt, Bahreyn, Jazoir, Venesuela, Indoneziya, Eron, Iroq, Liviya, Nigeriya, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va boshqalar).

- o‘rtacha taraqqiyot darajasidagi mamlakatlar (Kolumbiya, Gvatemala, Paragvay, Tunis va boshqalar).
- Demografik jihatidan gigant davlatlar Xitoy, Hindiston, Pokiston, Indoneziya;
- sust rivojlangan mamlakatlar (Ekvatorial Afrika va Okeaniya).

o‘tkinchi iqtisodiyotli davlatlar (Sharqiy Yevropa mamlakatlari va MDH).

Bulardan tashqari formal ravishda yana bir guruh markazlashgan rejali iqtisodiyotga amal qilayotgan **«Sof sotsialistik»** davlatlar – Ve’tnam, Xitoy, KXDR, Kubani ko‘rsatish mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, keltirilgan jahon tipologik mamlakatlar shartli bo‘lsada, ular insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti istiqbollarini belgilashda juda zarurdir.

1.3. Jahon xo‘jaligi globallashuvi bosqichlari.

Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi o‘z taraqqiyoti davrida bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich: XIX asr oxirlari–1939 yil. Jahon xo‘jaligi mustamlakachilik tuzimiga ega bo‘lgan. Investitsiya-sarmoyalar rivojlangan mamlakatlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri rivojlanayotgan mamlakatlarga yo‘naltirilgan. Kapital eksport qilgan mamlakatlar nazorat ostida bo‘lgan hududlarda tabiiy resurslardan foydalanish jahon iqtisodiy tartibining qonuniy ko‘rinishda bo‘lgan. Shu tariqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ma’lum ixtisoslashgan tarmoqlar vujudga kelgan. Ularning ishlab chiqarish quvvatlari yangilangan. Ammo ularning iqtisodiyoti monotarmoq harakterida bo‘lgan.

2-bosqich: 1945-1975 yillar. Mustamlaka mamlakatlarning milliy ozodlik kurashi mustamlakachilik sistemasini qulashiga olib keldi. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar siyosiy mustaqillikka erishgach, xorijiy mulklarni natsionalizatsiya qildilar. Iqtisodiyotning davlat sektorini yaratdilar. Natijada xorijiy kapital oqimi va uning yo‘nalishi o‘zgara bordi.

Xususiy kapitalning 90 % eksporti rivojlangan mamlakatlarga yo‘naltirila boshladi. Ushbu bosqichda global boshqaruv institutlari (BMT, XVF, Jahon banki. Butunjahon savdo tashkiloti – BST va boshqalar) vujudga keldi. Ular iqtisodiyotning turli sohalarida va siyosiy munosabatlarda mamlakatlarning huquqiy me’yorlarini ishlab chiqdilar.

3-bosqich: 1975 yildan hozirgacha. Jahon iqtisodiyotida katta hukmronlikni transmilliy korporatsiyalar TMK qo‘lga oladi. Ushbu

bosqichda rivojlangan mamlakatlar va transmilliy korporatsiyalar kapital qo‘yilmalar tuzilishini ratsionalizatsiyalash, hududiy iqtisodiy integratsiya-baynalminal ustunligidan foydalanishga intiladilar. Tashkiliy yoki bozoriy imkoniyatlarni, qo‘shimcha texnologiyalarni olishga harakat qiladilar. Globallashuvda tadbirkorlik faoliyatining asosiy roli TMK tegishlidir.

TMK-Xalqaro kapital bozorida o‘z boshqaruvi ostida kuchli internatsional tizim yaratuvchi faol ishtirokchidir. Ilm-fan faoliyatiga tayangan holda TMK texnologiyalar yaratish va ularni global tarqatilishida asosiy kuch hisoblanadi. Yetakchi TMK tom ma’noda ko‘p millatli, sanoatlashtirish va servis xizmatlarini keng yoyib berish unga xos usuldir. 1998 yilda YUNKTAD tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra yetakchi ko‘p millatli kompaniyalar haqidagi har yilgi investitsion axborotlar TMKlar jahondagi deyarli barcha mamlakatlarda 449 mingdan ortiq filiallar faoliyatini muvofiqlashtirib turganligi qayd etilgan.

Jahondagi o‘nta yirik TMK lar xorijiy tovar aylanishining 30 % ni va TMK lar xorijiy aktivligining 34 % ni nazorat qilib turibdi. 100 ta yirik TMK lar birlashgan hissadorlik kapitali ulkan bo‘lib, u 5,5 trln dollarni tashkil qiladi. Yirik TMKlar ixtisosi asosan bosh tarmoqni qamrab oladi: elektronika va elektr uskunalar (17 firma), kimyo va farmatsevtika (16 firma), neft va boshqa energoresurslar (14 firma), avtomobillar va ularga uzellar, agregatlar ishlab chiqarish (14 firma), shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar (12 firma) ishlab chiqarish. Elektronika va elekter uskunalari ishlab chiqarish bilan band TMKlar ko‘proq xorijiy aktivlarga ega. Chet el filiallari birlashgan tovar-oboroti jahonda savdoda bo‘lgan 80 % elektronika, (maishiy va sanoat elektronika, telekommunikatsiya vositalari, elektr uskunalar)ni tashkil etadi.

Keyingi paytlarda kapital bozorida uncha katta bo‘lmagan Belgiya Niderlandiya, Shvesiya, Finlyandiya kabi mamlakatlar TMK lari roli sezilarli oshayapti. Milliy bozor imkoniyatlari cheklangani ularni yangilarini izlashga majbur qilayapti.

TMK lar talab ehtiyojni o‘zgarishiga qarab butun jahon bo‘yicha ishlab chiqarishni fabrikadan-fabrikaga ko‘chirish orqali quvvatlaridan unumli foydalanish, buyumlari umrini o‘zaytirishga harakat qilmoqda. avvaliga ularni modaga ishqiboz bo‘lgan jahondagi boy mamlakatlarda ishlab chiqarilishini yo‘lga qo‘yadi. So‘ngra unchalik boy bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etadi. TMK lar shunday qilib, jahon iqtisodiyotini internatsionallashtiradi. Xalqaro mehnat taqsimotiga, asoslangan integratsiya ishlab chiqarish faoliyati hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining harakterli qirralarini belgilaydi.

Globallashuv jarayoni bilan yonma-yon hududlashtirish jarayonlari bormokda. YEI (Yevropa ittifoqi), SHAESA (Shimoliy Amerika erkin savdo assossiatsiyasi), OTIH (Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati), MDH (Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi) kabi integratsiyalashgan tuzilmalar vujudga kelayapti. Shunday qilib jahon iqtisodiyotida ikki yonma-yon jarayon – globallashuv va hududiylashtirish jarayonlari borayapti. Ular bir-birlarini to‘ldirib, sayyoramizni yagona iqtisodiy kenglikka aylantirmokda.

Jahon siyosiy va iqtisodiy haritasi keyingi yillarda jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Ruy berayotgan o‘zgarishlar va ularning dinamikasi mamlakatlar xalqlarini o‘tish-ko‘chish, joy almashish jarayonlari mohiyatini belgilaydi. Bu mohiyat ilmiy-texnik resurslar rivojlanishi natijasida insoniyat taraqqiyotining postindustrializm bosqichini belgilab beradi.

Postindustrializm – markazida «insoniy kapital» turgan yangi tip ishlab chiqarishdir. U kayerda zarur shart-sharoitlar vujudga kelsa o‘sha yerda bilimlar, kasb-malaka ko‘nikmalari, talant, shaxsning ijodiy imkoniyatlarini birlashtiruvchi imkoniyat sifatida yuzaga chikadi.

Jahon modernizatsiyalashayotgan kenglikni bir butunligicha o‘sha rivojlanayotgan vektorga birlashtiradi. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligi markazida **AQSH, G‘arbiy Yevropa, Yaponiya** turishibdi va ular modernizatsiya markazi hisoblanishadi.

1.4. Jahon xo‘jaligi rivojlanish tendensiyasi va ziddiyatlari

Hozirgi zamon global iqtisodiyotining bosh muammosi rivojlangan mamlakatlar doirasida berk xo‘jalik sistemasining shakllanishi bilan bog‘langan.

Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Asosiy savdo oborotlarini ancha rivojlangan mamlakatlar miqyosiga qaratilgani 1990-yillarning ikkinchi-yarmida «ettilik» ulushiga jahon kompyuter texnikasining 80 %, yuqori texnologik ishlab chiqarishning 90 % to‘g‘ri kelgan;
- Rivojlangan mamlakatlarda xususiy kapital investitsion oqimining tutashi. Hozirgi paytda amerikaning 50 % investitsiyasi G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yo‘naltirilmoqda. Yangi industrial mamlakatlarga esa uning atiga 8 % to‘g‘ri keladi. AQSH

investitsiyasining deyarli 85 % Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Germaniyaga to‘g‘ri keladi;

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda migratsion oqimning keskin cheklanishi;
- Mustaqil bo‘lmagan yosh industrial mamlakatlarning g‘arbdagi texnologik yangiliklar bilan almashinishi ekstensiv harakterdagi taraqqiyotda tashqi investitsiyaga bog‘liqlik, tayyor mahsulotni rivojlangan mamlakatlarga eksport qilishni kuchayishi.

Jahon xo‘jaligi uchun quyidagi tendensiyalar (intilishlar) harakterlidir:

Bugungi kunda global muammolar tahdidli ravishda kuchaydi: sayyoramizning inson hayotini ta’minlovchi quvvati atiga bir necha avlod hayotini ta’minlash bilan barham topadi.

1. Global muammolarni global hamkorlik va majburiyatlar natijasidagina hal etish mumkin. Yangi tahdidlar – SPID epidemiyasi, raketa-yadro texnologiyasini tarqalishi, yadro terrorizmi ehtimoli xavfi paydo bo‘ldi. AQSH ning «World-watsh» instituti ma’lumotlariga qaraganda, jahon har yili 10 mln. gektarga yaqin o‘rmonni, 9 mlrd. tonna haydaladigan yer qatlamini yo‘qotmoqda. 2030 yilga borib jahon aholisi nufuzi 10 mlrd. kishiga yetishi mumkin. Bu hayot standartlarini saklash uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini 4 marta ko‘paytirishni, energiya ishlab chiqarishni 6 marta oshirishni talab qiladi. Turgan gap, tez taraqqiy etgan texnologiyada ham bunga erishish ancha qiyin bo‘ladi. Aholi sonini barqarorlashtirish uchun tug‘ilish o‘rtacha koeffitsentini 2,1 darajagacha kamaytirish lozim bo‘ladi.

2. Jahonning bir butunligi va o‘zaro bog‘liqligi milliy davlatlar xalqaro siyosiy bo‘linishi ziddiyatiga duch keladi. XX asr boshlarida xalqaro tartibni 6-7 ta buyuk davlatlar o‘z mustamlaka imperiyalari bilan siyosiy ittifoqchilariga tazyiq o‘tkazish orqali namoyon etgandi. Oqibatda mustamlakachilik sistemasining yemirilishi natijasida 100 dan ziyod davlatlar vujudga keldi. «Sovuq urush» xavfi tugaganidan keyin bu tendensiya yangi kuch oldi. Sovet ittifoqi, Yugoslaviya, Chexoslavakiya parchalanib ketdi, yana o‘nlab davlatlar tashkil topdi. Natijada dunyo siyosiy haritasida 2005 yilda 1945 yilga karaganda mamlakatlar umumiy soni uch baravar ko‘paydi. Agar bu jarayon davom etadigan bo‘lsa, ekspretlarning fikricha, jahon xo‘jaligida mamlakatlar soni 300 taga yetishi mumkin.

Odatda davlatlarning tashqi siyosati «milliy manfaatlari» dan kelib chiqqan shartlar asosida shakllanadi. Ko‘pincha «milliy manfaatlar»

mafkuraviy maqsadlarga diniy va millatchilik tusini beradi. Bu esa milliy manfaatlar haqida noto‘g‘ri tasavvurlar uyg‘otadi, Xalqaro munosabatlarda yangi global vokeliklarda tobora ko‘proq ziddiyalar keltirib chiqaradi.

Diniy va etnik belgiga qarab bo‘linish tendensiyasi Xalqaro sistemani alg‘ov-dalg‘ov qilib, boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yishga qodir.

3. Modernizatsiya jarayonlarida ziddiyatlarning chuqurlashuvi. Rivojlangan g‘arb mamlakatlari modernizatsiya jarayonlarida oldinda borishdi, mustaqil ravishda yangi texnologiyalar, uskunalar yaratadilar. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar g‘arbning tashqi ta’siri ostida modernizatsiya jarayonlariga tortilmokda. Bu ularning texnologik qaramligini kuchaytirib, jahon xo‘jaligi sohalaridan o‘rin egallashini ta’minlaydi.

4. Jahon xo‘jaligining uch markazi o‘rtasidagi ziddiyatlar. G‘arbiy Yevropa barcha mamlakatlarning birlashgan potensiali sifat ko‘rsatkichlari AQSH va Yaponiyani birga qo‘shib olgan darajada turibdi. Shu bilan birga G‘arbiy Yevropa, AQSH va Yaponiya o‘rtasida texnologik uzilishlar qisqargan bo‘lsada, hozirgacha AQShning yetakchi o‘rnini pasaytira olishgani yo‘q.

Valyuta urushi davom etayapti. AQSH ayniqsa alohida faollik ko‘rsatayapti. Amerika dollari hozircha valyuta zahirasi sifatida yetakchi bo‘lib turibdi. Jahondagi ko‘pchilik mamlakatlar valyuta zahirasining 60 % ni Amerika dollari tashkil qiladi. G‘arbiy Yevropa **Yevro** hisob birligi qulay sharoit yuzaga kelishi bilan haqiqiy valyuta zahirasiga aylanishi mumkin. Tahminlarga ko‘ra uning ulushiga 25 % valyuta zahiralari to‘g‘ri keladi.

5. Rivojlangan mamlakatlar hamkorligi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar litsenziyalar, patentlar olish sohasida ustunligini saklab turadi. Jahon patent va litsenziya oborotining 90 % ularning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlar xo‘jaligi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, inqiroz qiyinchiliklarini yengishda bir-biri bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritayapti. Yevropa integratsiyasini muoffakiyatli rivojlantirayati, kollektiv xavfsizlik mustahkamlanayapti. Rivojlangan mamlakatlar Yevropa mamlakatlarida iqtisodiy islohatlarni qo‘llab-quvvatlatlamoqda.

Shunday qilib, hozirgi zamon jahon xo‘jaligining uch markazi raqiblikni yo‘qotmasada hamkorlikka urg‘u bermoqda.

Nazorat savollari

1. «Jahon xo‘jaligi» tushunchasi mohiyati nimalardan iborat.
2. Jahon xo‘jaligi ob’ekt va sub’ektlarini ayting.
3. Jahon xo‘jaligi bir butun yaxlit holda qachon vujudga kelgan?
4. Jahon xo‘jaligi asosiy taraqqiy etgan davrlari qachon bo‘lgan?
5. Jahon xo‘jaligi asosiy mamlakatlari gurhlarini ayting?
6. Jahon xo‘jaligi globallashuvi bosqichlarini ayting?
7. Jahon xo‘jaligi taraqqiyoti va ziddiyatlarining harakterli xususiyatlarini tushuntirib bering.

II mavzu. HALQARO SAVDO ALOQALARI VA SAVDO SIYOSATI

2.1. Halqaro savdo aloqalari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida.
2.2. Xalqaro savdo nazariyasi.
2.3. Xalqaro savdoning o‘sishi, tuzilishi va geografiyasi.
2.4. Xalqaro savdo siyosati.

2.1. Halqaro savdo aloqalari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida

Jahon xo‘jaligi va halqaro iqtisodiy munosabatlarda rivojlangan va an’anaviy shakl bu-tashqi (halqaro) savdo aloqalaridir. Hozirgi kunda savdo ulushiga halqaro iqtisodiy munosabatlar hajmining beshdan bir qismi to‘g‘ri keladi.

Har qanday davlat uchun tashqi savdo rolini baholash qiyin. J. Saksning ta’rificha, «Har kanday mamlakat iqtisodiyoti tashqi savdoga asoslangan holda gurkiraydi. Jahon iqtisodiyoti sistemasidan uzilib qolgan birorta mamlakat hali sog‘lom iqtisodiyot yaratishga muvaffaq bo‘lolgani yo‘q».

Halkaro savdo turli mamlakatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida xalqaro mehnat taqsimoti asosida vujudga kelgan aloqalar shaklidir va ularning o‘zaro iqtisodiy bog‘liqligini aks–milliy savdo siyosati ta’siri ostida tarkibiy tuzilishlar – ixtisoslashish va sanoat ishlab chiqarishining kooperatsiyalashuvi milliy xo‘jalik hamkorlik harakatini kuchaytiradi. Xalqaro savdo, butun davlatlararo okimni o‘rtalikdagi harakati natijasida ishlab chiqarish tez sur’atlar bilan o‘sadi. Tashqi savdo oboroti tadqiqotlariga ko‘ra, dunyo ishlab chiqarishining har 10 % o‘sishga jahon savdosi hajmining 16 % ko‘payishi to‘g‘ri keladi. Buning bilan uning taraqqiyotiga kulay imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Ma’lumki, savdoda uzilish bo‘lsa, ishlab chiqarish rivojlanishi ham susayadi.

«Tashqi savdo» deyilganda u yoki bu mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan to‘lov orqali olib kelinadigan (import) va to‘lov orqali jo‘natiladigan (eksport) tovarlar savdosi tushuniladi.

Ko‘p turli tashqi savdo faoliyati tayyor mahsulotlar savdosiga tovar bo‘yicha ixtisoslashuviga mashinalar va uskunalar, xizmatlar va xom ashyo savdosiga bo‘linadi.

Xalqaro savdo deb dunyo mamlakatlari o‘rtasida tovar aylanmasi to‘lovlari yig‘indisiga aytiladi. Biroq «Xalqaro savdo» tushunchasi tor ma’noda ham ishlatiladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlar sanoat tovar oboroti, yoki bu qit’a, mintaqa, tovar oboroti bo‘lishi mumkin. Misol uchun Sharqiy Yevropa va shu kabilar.

Eksport va import mutanosibligi savdo balansini hosil qiladi. BMT statistika nashri butun jahon mamlakatlari birgalikdagi eksport qiymatini Xalqaro savdo hajmi dinamikasi bo‘yicha ma’lumotlar sifatida e’lon qiladi.

Tabiiy hol, jahon savdosi taraqqiyotida unga ishtirok etuvchi mamlakat manfaatiga tayanadi. Xalqaro savdo nazariyasi tashqi savdodan, yoki tashqi savdo oqimi yo‘nalishidan manfaatdor savdo mamlakatga o‘z ixtisoslashuvini rivojlantirib mavjud resurslar ishlab chiqarishini oshirish, shu orqali aholi faravonligini yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2.2. Xalqaro savdo nazariyasi

Ma’lumki, xalqaro savdo nazariyasi asoslari XVIII asr oxirlari – XIX asr boshlarida mashhur iqtisodchilar Adam Smit va David Rikkardo tomonidan shakllantirilgan.

Adam Smit o‘zining «Xalqlar boyligi sabablari va ularning tabiati to‘g‘risida tadqiqotlari (1776 y) kitobida mutloq ustunlik nazariyasini shakllantirdi va xalqaro erkin savdoni rivojlanishidan manfaatdor mamlakatlar undan mustaqil ravishda eksporter yoki importyorligidan qat’iy nazar albatta yutishini ko‘rsatdi. A.Smit «almashinish har bir mamlakat uchun foydali ekanligini, har bir mamlakat unda mutloq ustunlikni topishini» isbotladi. Xalqaro savdoda mutloq ustunlik bu-mamlakatda ishlab chiqarishda boshqa mamlakatda mumkin bo‘lmagan kam mehnat sarflab tovar ishlab chiqarishdir.

A.Smit tahlili klassik nazariyaning tayanch nuqtasi sifatida erkin savdo siyosatining barcha turlariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo biroq, bu mulohazalarni oxirigacha davom ettirib shunday xulosaga kelish mumkin: agar mamlakat chetdan cheklanayotgan miqdorda, arzon bahoda istagan barcha narsasini topsa, uning manfaatlari chetda «hammasi» tusini oladi. Uning o‘zini sotish uchun biror bir narsa ishlab chiqarayaptimi? hech narsa buni kafolatlay olmaydi. Ana shunda uni o‘zi sotib oladigan narsalariga umid bog‘lashdan boshqa iloji

qolmaydi. Turgan gap, bunda mutloq-usutunlik nazariyasi boshi berk ko‘chaga kirib qoladi.

D.Rikardo «Siyosiy iqtisodning boshlanishi va soliqqa tortish» (1819 y) kitobida bu boshi berk ko‘chadan chiqishning klassik nazariyasini olg‘a suradi. U Xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajrata turib, ikki davlat o‘rtasida qaysi doirada almashinish maqbulligini ko‘rsatadi. Har bir mamlakat o‘z manfaatidan kelib chikib ishlab chiqarishda ustunlik beradigan yoki nisbatan kam foyda beradigan sohaga ixtisoslashishi mumkin. Uning mulohozalari taqqoslama ustunlik nazariyasida o‘z aksini topdi.

D.Rikardo Xalqaro almashinuv barcha mamlakatlar uchun zarur va manfaatli ekanligini ko‘rsatib berdi. U shunday baho zonasini aniqladiki, uning ichida almashinish hamma uchun foydalidir.

Jon Styuart Mil o‘zining «Siyosiy iqtisod asoslari» (1848 y) ishida almashish qanday bahoda amalga oshishini ko‘rsatdi. Millning xulosasiga ko‘ra almashish bahosi talab va ehtiyoj qonuni asosida belgilanadi va har bir mamlakatni eksportdan oladigan foydasi import to‘lovlarini qoplash imkoniyati darajasida bo‘ladi. Bu xalqaro qiymat qonuni yoki «Xalqaro qiymat nazariyasi» Millning katta xizmatidir. Xalqaro qiymat nazariyasi ko‘rsatadiki, mamlakatlar o‘rtasida tovar almashishini mo‘tadillashtiruvchi baho mavjud. Bu bozor narxi talab va ehtiyojga bog‘liq.

Burjuaziya siyosiy iqtisodi klassik nazariyasi taraqqiyoti haqida yangi so‘zni Gotfrid Xaberler aytdi va u nafaqat mehnatni, balki ishlab chiqarishning barcha omillarini aniqlashtirib berdi.

Hozirgi zamon halqaro savdo oqimi tuzilishi va yo‘nalishlari haqidagi tasavvurlarga shved iqtisodchi olimlari Eli Xeksher va Bertil Olin asos soldilar. Ularning takkoslama ustunlik haqida tushuntirishlaricha u yoki bu mamlakatda ma’lum mahsulotlarga egalik munosabati ishlab chiqarishni ta’minlanish omillari darajasiga bog‘liq. E.Xeksher va B.Olin ishlab chiqarish omillari – mehnat, yer, kapital, shuningdek u yoki bu tovarlarga ichki turli talablar bahoni tenglashtirishi teoremasini olg‘a surdilar. 1948 yilda amerikalik iqtisodchilar P.Samuelson va V.Stolper Xeksher – Olin teoremasi isbotini takomillashtirdilar. Ya’ni ishlab chiqarish omillari bir turligi, texnikalar bir xilligi, xalqaro tovar almshishda tovarlarni to‘liq safarbarligi va raqobat mamlakatlar o‘rtasida narx omillarini tenglashtiradi.

Bundan keyingi tashqi savdo nazariyasi taraqqiyoti Amerikalik iqtisodchi V.Leontevning «Leontevning o‘ziga xos fikrlari» nomli ishida o‘z ifodasini topdi. o‘ziga xos fikrlar shundan iboratki, Leontev Xeksher-

Olin teorimasidan foydalanib, urushdan keyingi davrda Amerika iqtisodiyoti kapitaldan chiqarish turlariga ixtisoslashganini ko‘rsatib berdi. Boshqacha aytganda Amerika eksporti importga qaraganda bir muncha mehnat talab va kam harjroq.

Bu xulosa AQSH iqtisodiyoti haqida avvalgi tavsavvurlarni chippakka chiqardi. Umumiy xulosaga ko‘ra, u hamisha kapitalni keragidan ortiqligi bilan harakterlanadi va Xeksher-Olin teoremasiga binoan AQSH kapital talab tovarlarni import emas, eksport qilishi kutilardi.

V.Leontev kashfiyoti keyingi yillarda keng aks-sado berdi. Turli mamlakatlar iqtisodchilari «Leontevning o‘ziga xos firklari» mavzusida bahs-munozaralarga kirishdilar. Natijada tenglashtiruvchi ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. U texnika progressi va uni taqsimotda notekisligi, iqtisodiy vositalarni fermenli emasligi, ish haki masalasida va boshqalarda mamlakatlar o‘rtasidagi farqlarni o‘z ichiga oladi.

G‘arb tadqiqotlarida xalqaro savdo muammolarida shuningdek multiplikator (ko‘paytiruvchi) tashqi savdo nazariyasi ham keng yoyildi. Bu nazariyaga muvofiq tashqi savdo (ayniqsa eksportda) milliy daromad o‘sish dinamikasi, bandlik hajmi, iste’mol va investitsion faollikka samarali ta’sir qiladi.

Har bir mamlakatda multiplikator ma’lum son bog‘liqligiga qarab, ma’lum koeffitsiyent turida aks etishi va hisoblab chiqilishi mumkin. Boshlang‘ich eksport buyurtmasi mahsulot ishlab chiqarishni bevosita ko‘paytiradi, turgan gap, buyurtmani bajaruvchi sohalarda ish haqi ham ko‘payadi. So‘ngra ikkilamchi iste’mol sarflari harakatga keladi.

2.3. Xalqaro savdoning o‘sishi, tuzilishi va geografiyasi

XX asr ikkinchi yarimidan boshlab, xalqaro almashishi «portlovchi harakter» kasb etayotgan sharoitda xalqaro savdo aloqalari yuqori sura’tlarda rivojlanabordi. 1960-2000 yillarda jahon ichki yalpi mahsuloti hajmi 28 marta, jahon eksporti hajmi esa 42 martaga o‘sdi. G‘arb mutaxassislarining baholashlaricha, 1960 va 1970 yillar orasidagi davrni jahon savdo taraqqiyotida **«oltin asr»** deyish mumkin. Xuddi shu davrda jahon eksportida har yili 7 % o‘sishga erishildi. Ammo 70 – yillar o‘rtasida kelib bu ko‘rsatkich 5 % gacha pasaydi. XXI asr boshlarida ro‘y bergan yaqqol pasayishdan keyin Xalqaro savdo yana yuqori turg‘un o‘sish sura’tini namoyish kilayapti.

Xalqaro savdo barqarorligi va turg‘un o‘sishiga quyidagi bir qator omillar ta’sir o‘tkazdi:

- Xalqaro mehnat taqsimoti taraqqiyoti va ishlab chiqarishni internatsionallashuvi;
- Asosiy kapitalni yangilanishi, iqtisodiyotning yangi sohalarini yaratish, eskilarini rekonstruksiya qilishni tezlatuvchi milliy savdoni o‘sishi;
- Jahon bozorida transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatini aktivlashishi;
- Jahon savdosini tariflar va savdo haqida gi Bosh kelishuv tadbirlari asosida muvofiqlash (liberalizatsiyalash)tirish;
- Jahon savdosini liberizatsiya qilish ko‘pchilik mamlakatlarni importni cheklashni bekor qilish va erkin iqtisodiy hududlar uchun mavjud bojxona poshlininalarini qaytarishga o‘tishi;
- Iqtisodiy integratsiya-savdo jarayonlarini rivojlantirish: hududiy to‘siqlarni bartaraf etish;
- Umumiy bozor va erkin savdo hududlarining vujudga kelishi;
- Sobiq mustamlaka mamlakatlarning siyosiy mustaqillik olishi. Ular orasidan tashqi bozor uchun mo‘ljallangan yangi modelli **«yangi industrial mamlakatlar»**ni ajralib chikishi.

XX asr ikkinchi yarimidan boshlab tashqi savdo dinamikasida sezilarli notekislik vujudga keladi. Bu jahon bozorida mamlakatlar o‘rtasidagi kuchlar munosabatlariga ta’sir qildi. AQShning mustahkam o‘rni bo‘shashdi. Agar 1950 yilda bu mamlakatning jahon eksportidagi ulushi 1/3 ga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2000 yilga kelib 1/8 ga to‘g‘ri kelayapti. o‘z navbatida Germaniyaniki Amerikaniqiga yaqinlashdi, ba’zi yillarda hatto undan o‘zdi ham. Germaniyadan tashqari eksport boshqa g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ham o‘sdi. G‘arbiy Yevropa xalqaro savdoning bosh markaziga aylandi. Uning eksporti Amerika eksportidan 4 marta ziyoddir.

Keyingi yillarda Xalqaro savdo sohasida Yaponiya sezilarli sakrash qildi. U mashina va uskunalar eksport qilishda birinchi marta birinchi o‘ringa chiqdi. Yaponiya yengil va yuk avtomashinalari, maishiy ishlab elektronika chiqarish bo‘yicha barcha mamlakatlarni ortda qoldiradi. Yaponiya eksportining uchdan biri AQSH ga to‘g‘ri keladi. AQSH ning Yaponiya bilan savdosida defitsiti yiliga 50-60 mlrd. dollar darajasida turibdi.

AQShning Xalqaro savdoda yetakchilik o‘rni pasayishi ma’lum darajada operativ ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini pasayishi

bilan bog‘liq. Yaponiya raqobatbardoshlikda liderlikni egalladi. Shu davrda unga Osiyoning «yangi industrial mamlakatlar»i – Singapur, Tayvan ko‘shildi.

Raqobatbardoshlik konkret davlatning jahon bozoridagi raqiblariga nisbatan proporsional ravishda ko‘proq mutaxassislarning taxminlaricha, XXI yuz yillik birinchi yillarida AQSH va Osiyo davlatlari raqobatbardoshlikda bo‘lishadi. 2030 yilga borib, uchta davlat - AQSH, Yaponiya va Xitoy eng rakobatbardoshlikda ajralib turadi. Navbatda Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Hindiston, Tayvan, Malayziya va Shvesariya turibdi.

Hozirgi rivojlanayotgan mamlakatlar jahon bozoriga asosan xom ashyo, oziq-ovqat va nisbatan oddiy tayyor mahsulotlar yetkazib beruvchilar bo‘lib qolayapti. Jahon bozorida xom ashyo va oziq-ovqatlarga talabni kamayishi rivojlangan mamlakatlar eksportini kengaytirish imkoniyatlarini pasayishiga olib keldi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar esa jahon eksportida oziq-ovqat va xom ashyo (neftdan tashqari) ulushlarini ko‘paytirdi.

Jahon eksportida rivojlanayotgan mamlakatlarning bu tovarlar (neftsiz) eksporti 1960 yildagi 40 % dan XXI asr boshiga kelib 28 % ga qisqardi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoat guruhi tovarlari evaziga o‘z eksportini ko‘paytirishga urinishi rivojlangan mamlakatlarning u yoki bu shakldagi qarshiliklariga duch kelayapti. Shuning bilan birga, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar, eng avvalo «yangi industrial mamlakatlar», o‘z eksportlarini jahon bozoriga qayta muvofiqlashtirishda, unda tayyor mahsulotlar, mashina va uskunalar, boshqa sanoat mahsulotlari ulushini ko‘paytirishda sezilarli aloqa qila boshladilar. XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlar sanoat eksporti ulushi umumiy jahon hajmining 16 % ni tashkil etdi. Umuman rivojalanayotgan mamlakatlar («yangi industrial mamlakatlar») eksporti birgalikda olinganda mamlakatlar guruhlari bo‘yicha ham, tarmoqlar bo‘yicha ham notekis o‘sayapti. Ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli ravishda «Yangi industrial mamlakatlar», ayniqsa Osiyoning uch «kichik ajdaho» (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur) eksportning tez o‘sishini namoyish etmoqda. Ularning jahon eksportidagi ulushi 10 % ni tashkil qiladi. Keyingi o‘n yilda tezkor sar’at olayotgan XXR iqtisodiyotiniki 3 % (1 % dan kam edi) ga ko‘tarildi. Jahon eksportida AQSH 12 % ni, G‘arbiy Yevropa – 43 %, Yaponiya – 9 %, egallaydi.

Keyingi yillarda Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sistemasi va Xalqaro tovar almashishda Osiyo - Tinch okeani havzasi hissasiga to‘g‘ri kelgan. Xalqaro savdo geografik yo‘nalishi asosiy tendensiyalarini harakterlashda shu faktni yoddan chiqarmaslik kerakki, Xalqaro mehnat taqsimoti va taraqqiyotining chuqurlashuvi rivojlangan mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar ulushini kamayishiga olib keladi. Asosiy tovar oqimi **«katta uchlik»** AQSH - G‘arbiy Yevropa – Yaponiya o‘rtasida kechadi. AQSH va YEI o‘rtasidagi yillik tovaroboroti 1,7 mlrd. dollarni tashkil etadi. 2003 yilda YEI eksportining 1/5 AQSH ga yo‘naltirildi, 1/6 import esa AQShdan keldi.

Sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarni murakkab texnikalarga egaligi bois, rivojalanayotgan mamlakatlardan ular shunday ortiqcha mahsulotlarga kam qiziqish o‘yg‘otdi. Ko‘pincha murakkab texnika mavjud ishlab chiqarish sikllariga mos kelmasligi tufayli rivojlanayotgan mamlakatlarga kerak bo‘lmaydi. Ba’zan cho‘ntakka ham to‘g‘ri kelmaydi.

Jahon savdosi tuzilishi. Jahon savdosining ko‘proq dinamik va intensiv rivojlangan sektori bo‘lib qayta ishlash sanoati mahsulotlari savdosi, ayniksa ilm-fantalab tovarlar hisoblanadi. Masalan, fantalab mahsulotlar eksporti yiliga 500 mlrd. dollardan ko‘proqni, yuqori texnologiya mahsulotlari ulushi esa sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar eksportida 40 % ga yaqinlashadi.

Mashina va uskunalar bilan savdo qilish roli sezilarli oshdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar o‘rtasida bu guruh tovarlari bilan savdoning kengayishi – muhim tendensiyadir. Bu xildagi savdo-sotiqni o‘sishi bilan xizmatlar almashish keskin ko‘paydi: ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, tijorat, moliya-kredit harakteridagi xizmatlar. Mashina va uskunalar bilan faol savdo injeniring, lizing, konsalting, axborot-hisoblash kabi yangi xizmat turlarini vujudga keltirdi.

1980 yildan 2003 yilgacha sanoati rivojlangan mamlakatlarda mashina va uskunalar eksporti qariyib 4 marta o‘sdi. Elektronika va elektron uskunalar eksporti ayniqsa tez sur’atlar bilan o‘sayapti. Butun mashina, texnika mahsulotlari eksportining 25 % uning ulushiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro savdoda tez rivojalanayotgan sohalardan biri kimyoviy mahsulotlar savdosidir. Energiya resurslari va xom ashyo iste’moli talablarining oshishi tendensiyasi kuzatilayotganini ham qayd etish lozim. Ammo xom ashyo bilan savdo qilish sur’atlari jahon savdosi umumiy o‘sish sur’atlaridan ancha orqada qolayapti. Bu qoloqlik xom ashyo o‘rnini bosadigan, foydalanish ancha tejamli, qayta ishlashga qulay materiallarni ishlab chiqarishga majbur qilmokda.

Jahon savdosida oziq-ovqatga nisbatan talab kamaygani qayd etilmoqda. Bu ma'lum darajada oziq-ovqat ishlab chiqarish kengayganligi bilan bog'liq.

XX asr birinchi yarmida (2-jahon urushigacha) va undan keyingi yillarda jahon savdosi tuzilishini ko'zdan kechirar ekanmiz, biz jiddiy o'zgarishlarni ko'ramiz. Agar yuz yillikning birinchi yarimida jahon tovaroborotining 2/3 oziq-ovqatga, xom ashyo va yonilg'iga to'g'ri kelgan bo'lsa, asr oxiriga borib tovaroborotning 1/4 qismi to'g'ri keladi. Savdoda qayta ishlash sanoati mahsulotlari 1/3 dan 1/4 ga o'sdi. Va nihoyat, XX asr oxirida mahsulotlari 1/3 dan ziyod o'sdi. Bu – mashinalar va uskunalar savdosidir.

Xalqaro tashkilotlar (BMT, XVF) ma'lumotlariga qaraganda, 1980 yildan 2003 yilgacha xalqaro savdo har yili o'rtacha 5 % dan o'sib borgan.

Jahon savdosining tez sur'atlarda o'sishi asosan AQSH, Italiya, Kanada, Ispaniya, shuningdek sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar (Yaponiyadan tashqari) Uzoq Sharq va Lotin Amerikasida xo'jalik kon'yukturasini yaxshilanishi bilan bog'liqdir.

Jahon savdosi taraqqiyotida alohida mamlakatlar rolini qarab chiqar ekanmiz, eng yirik eksportchi va importchi AQSH bo'lganini ko'ramiz. AQShdan keyin Germaniya va Yaponiya borayapti. Birinchi yirik savdo mamlakatlari o'nligida Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Belgiya (Lyuksemburg bilan) joy olgan. Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya eksportda 20-chi va importda 25 – o'rinni egallaydi. Rossiya umumiy tashqi savdo hajmi bo'yicha 16–o'ringa chiqdi. Eksportning dinamik taraqqiyoti bo'yicha Xitoy, Singapur, Chili va Finlyandiyada sezilarli o'sish ko'zga tashlanayapti. Markaziy va Sharqiy Yevropa yaxlit mintaqa sifatida eksport sur'atlari bo'yicha Osiyodan keyin 2–o'rinni egallaydi. Jahon savdosida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilar ekanmiz liberilizatsiya uning asosiy tendansiyasidir. Bojxona poshlinalari darajasi sezilarli pasayishi ro'y berdi, ko'plab cheklovlar, kvotalar va boshqalar bekor qilindi. Ammo biroq, bir kator muammolar mavjud. Asosiylaridan biri-iqtisodiy guruhlar darajasida proteksion tendensiyaning avj olishi, ko'p sohada bir-biriga qarshi turuvchi mamlakat savdo-iqtisodiy bloklari.

Savdo – iqtisodiy bloklar tashkil qilishda birinchi bahosiga ko'ra, bugungi kunda ushbu hududlar doirasida jahon savdosining 42 % amalga oshirilgan. Ko'proq taniqli hududlar orasida Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEESA), Yevropa Ittifoqi (YEI), Shimoliy Amerika erkin

savdo hududi (SHAESH), Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik (OTIH) tashkiloti va boshqalar bor.

2.4. Xalqaro savdo siyosati.

Tashqi savdo aloqallari taraqqiyoti davlatlarning milliy iqtisodiyotni muvaffaqiyatli o‘sishi uchun eksport va importni muvofiqlashtirish bo‘yicha ko‘rayotgan chora-tadbirlari bilan bog‘liq. Erkin savdoni oqilona tashkil etish, allaqanday proteksion to‘siklar bilan cheklanmagan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Buning uchun ham erkin savdo tarafdorlari odatda davlat tomonidan boshqarilmaydigan bozorni ta’minlashda Xalqaro mehnat taqsimotining eng samarali variantlarini tanlash orqali ishtirokchi mamlakatlar aholisi turmush darajasini yaxshilashni ko‘zlashadi. Proteksion choralar tarafdorlari esa o‘z navbatida yosh milliy sanoat, aholi bandligi, uning yuqori turmush darajasi va boshqa manfaatlarini himoya qilishni ularga vaj qilib ko‘rsatdi.

Davlatlarning tashqi savdo tajribasi amalda o‘ziga proteksionizm va liberalizatsiya elementlarini singdirgani bilan ajralib turadi.

Masalan, uch yuz yilliklar davomida (XV-XVIII asrlar) burjua mamlakatlarining ko‘proq ommalashgan iqtisodiy doktrinasi va asosiy xo‘jalik siyosati merkantilizm bo‘lib keldi. Ya’ni, jamiyat boyligi pulda (qimmatbaho metall) deb hisoblandi. Merkantilistchilar tashqi savdoni uning muhim manbai, mamlakatga qazib olinmaydigan qimmatbaho metallarning kelishida deb qaradilar.

Chetdan keladigan oltinni ko‘paytirish uchun eksportni rag‘batlantirish va uning mamlakatda oqimi ustidan qat’iy proteksion choralardan foydalanishga yo‘l qo‘yildi. Ya’ni, import (olib kelish) poshlinalarini oshirish, ma’lum tovarlar turini sotishda davlat monopoliyasini o‘rnatish orqali ushlab turiladi. Tashqi savdodan kelayotgan foyda proteksion siyosat o‘tkazish yo‘li bilan boshqa davlatlar ustunligi evaziga davlat ko‘radigan naf bilan bog‘lanadi.

Shunga qaramasdan ayrim mamlakatlar proteksion siyosati xorijiy kontragentlarda xuddi shunday norozilik o‘tkazdi va oxir oqibat bu tashqi savdoni kasodga uchratdi. Shuning uchun ham sanoat inqilobi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat intensiv taraqqiyoti XVIII asr oxirida yirik mashinalar ishlab chiqarishiga o‘tilishi zamin bo‘ldi. Uni XIX asrda Angliya rasmiy iqtisodiy siyosati avvalo ilmiy nazariy sifatida, keyinchalik «Erkin savdo» (fritrederstva) prinsipi sifatida qizg‘in rag‘batlantirildi.

Fritredstva A.Smit va D.Rikardo tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish harajatlarining solishtirma nazariyasi bilan asoslanadi.

XVIII asr oxirida- XIX asr o‘rtalarida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy yetakchiligi proteksion choralar bilan milliy iqtisodiyotni himoya qilishni keraksizga chiqardi. Ayni vaqtda Angliyaning tashqi savdoda faolligi oshishi Angliya sanoati uchun yangi bozorlarni egallash vositasi bo‘lib xizmat qildi. Aksincha, iqtisodiyoti sust rivojlangan mamlakatlar (Germaniya, AQSH)da proteksionizm mafkurasi ommaviy tus oldi.

Hozirgi zamon proteksion choralar sistemasi turli yo‘nalishlarni qamrab olgan bo‘lib, ichki va tashqi bozorda milliy ishlab chiqaruvchilarga qulay sharoitlar yaratib berishga qaratilgan.

Ancha salmoqli choralar qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

- Boj solig‘i (tarif to‘siqlari), mamlakatga olib kelinadigan, yoki olib chiqib ketiladigan ma’lum turdagi mahsulotlarni qiyinlashtirish uchun foydalaniladigan poshlinalar. Chet el firmalari bilan milliy ishlab chiqaruvchilar raqobatini yengillashtirish uchun odatda tayyor mahsulotlar va yarim fabrikatlar, ayniqsa hasham buyumlar, importda nisbatan xom ashyo va materiallarga yuqori boj poshlinasi belgilanadi.
- Ma’muriy va siyosiy usullarda, iqtisodiy tarmoq otgan sistema yordamida tashqi iqtisodiy faoliyat bevosita yoki bilvosita to‘g‘ridan - to‘g‘ri tarifsiz to‘siqlarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi zamon xalqaro almashish tajribasida ayrim usullar tashqi iqtisodiy operatsiyalarda kontingerli va litsenziyalangan ko‘rinish olgan. Shuningdek ko‘rsatilgan ayrim operatsiya turlariga davlat monopoliyasi joriy etilgan. **Kontingerlash** ayrim tovarlar yoki tovarlar guruhiga tashqi savdo operatsiyalarida erkin eksport (import) turlari uchun ma’lum kvotalar belgilanganligi bilan bog‘liq.

Litsenziyalash esa o‘z navbatida tashqi iqtisodiy savdo operatsiyalarini amalga oshirish uchun xukumat organlarining ruxsati (litsenziya)ni olish zaruratini ko‘zda tutadi. Bu tizim davlatni tashqi iqtisodiy munosabatlar, turli iqtisodiy, siyosiy maqsadlarni muvofiqlashtirish, amalga oshirish ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

Ma’lumki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash usullariga davlat monopoliyasidan foydalanishda davlat organlari huquqlari yoki ulardan foydalanishga vakolat olgan xususiy firmalarning tashqi iqtisodiy savdo faoliyati, ma’lum turdagi ishlab chiqarish huquqlarini ham kiritishi mumkin.

Bilvosita cheklashlar esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklashlardan farqli ravishda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish yoki uning hajmini kamaytirishni takiklash bilan bog‘liq emas. Buning ustiga ular ko‘p hollarda milliy ishlab chiqaruvchilarni himoyalashda unchalik samarali bo‘lmagan proteksion vosita hisoblanadi. Bilvosita cheklash tuzilishida milliy soliq sistemasi va milliy standartlar muhim o‘rin egallaydi. Mamlakat standartlariga rioya qilmaslik import mahsulotlarni kiritish va ularni ichki bozorda sotishni taqiqlashga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, davlat organlariga o‘zida bor narsani chetdan sotib olish, ishlab chiqarishda milliy xom ashyoni ma’lum qismidan foydalanish tartibi, temir yo‘llar, portlarni ajnabiylar uchun taqiqlab qo‘yishda xom ashyo cheklashlarining boshqa shakllaridan foydalanish mumkin.

Proteksion choralar sistemasida eksportni rag‘batlantirishning davlat vositalari ham muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi zamon sharoitida turli shakldagi moliyaviy imtiyozlar sistemasi shakllangan. Ular tashqi va ichki bozorda milliy eksportchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, eksport mukofati sifatida eksportchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri dotatsiya, yuklarni ortish tushirishda foydalanilgan milliy va ajnabiy tarjimonlar xizmat haqi farqlarini to‘lash;

Ikkinchidan, imtiyozli shartlar bilan eksport kreditlari berish, soliq imtiyozlari, siyosiy rejim beqaror mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishda davlat sug‘urtasi va kafolatlari berish.

Xalqaro savdoni ko‘p tomonlama muvofiqlashtirish va tartibga solish, eng avvalo bojxona to‘siqlarini kamaytirish, navbatda savdo va ta’riflar bo‘yicha Boj kelishuv asosida va uning merosxo‘ri butunjahon savdo tashkiloti (BJST) kelishuvlari asosida amalga oshirilmoqda.

Savdo va ta’rif bo‘yicha Boj kelishuv (GAAT) yirik xalqaro tashkilot sifatida jahon savdosida ta’rif va boj masalalarini tartibga soladi. U 1947 yilda Jenevada tashkil topgan. Bu AQSH ikkinchi jahon urushidan keyin o‘z iqtisodiyotini mustahkamlab olgan, jahon tovaroborati taraqqiyotini ta’minlovchi xalqaro savdoning barqaror qoidalarini yaratish taklifi bilan chiqqan vaqt edi.

Savdo va ta’rif bo‘yicha Boj kelishuvning faoliyatidagi asosiy vazifa 1945-1947 yillarda boj to‘lovlarini qisqartirish bo‘ldi. Rivojlangan mamlakatlarda boj to‘lovlari o‘rtacha kattaligi 40-60 % ni tashkil etar, ayrim tovarlar (masalan, kimyoviy) uchun 70-90 % ga yetgandi.

Boj to‘siqlarining kamaytirilishi bo‘yicha doimiy ravishda faol ish olib borildi. Va bu 90-yillar oxiriga kelib kattalikni 3-5 % ga qisqartirish imkonini berdi.

Savdo va tarif bo‘yicha Boj kelishuv faoliyatida ko‘p tomonlama uchrashuvlar-raundlar o‘tkazish alohida o‘rin tutadi. Bunday uchrashuvlarda ishtirokchi mamlakatlar tashqi savdosini tartibga solish bilan bog‘liq masalalar kun tartibiga olib chiqiladi va keng muhokama etiladi. Tashkilotning tashkil etilgan momentidan hozirgacha sakkizta ana shunday raundlari o‘tkazilgan.

Butunjahon savdo tashkiloti (BJST) savdo va tarif bo‘yicha boj kelishuv tashkilotining davomchisi bo‘lib, o‘z faoliyatini 1995 yil yanvarida boshladi. 1996 yilda Singapurda uning Oliy organi, bo‘lgan Ministrlik konferensiyasi birinchi yig‘inini o‘tkazdi.

Konferensiyada butunjahon savdo tashkilotining (BJST) hozircha uning burchiga kirimaydigan yangi faoliyati qirrallari muhokama etildi. Shuningdek jahon savdo sistemasida evolyutsion yo‘nalishning strategiyasi belgilab olindi.

Hozirgi bosqichda Butunjahon savdo tashkiloti faoliyati ko‘p tomonlama savdo muzokaralarining Urugvayda o‘tkazilgan (1986-1994 yy.) raundi kelishuvi paketi asosida ishtirokchi mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan. BJST keng savdo–siyosiy bitimlar spektrini nazorat qilmokda. Qabul qilinayotgan ko‘pgina qarorlarni mukammallashtirilishi natijasida katta vakolatlarga ega bo‘lmoqda.

BJSTning markaziy vazifalaridan biri jahon savdosini liberallashtirish yo‘li bilan doimiy ravishda import poshlinasi darajasini qisqartirib borish, shuningdek turli noto‘g‘ri to‘siqlarni bartaraf etish. o‘z faoliyatida u xalqaro almashinishni kengaytirish, jahon resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni saqlagan holda barcha mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini barqorlashtirishga intilayapti.

Ayni paytda 134 mamlakat BJST teng huquqli ishtirokchisi hisoblanadi. Ularning ko‘pchiligi ta’sischi mamlakat maqomiga ega. Hozirgi davrda 40 ga yaqin tashkilot va mamlakat BJST da kuzatuvchi maqomiga ega. Ulardan yigirmadan ziyodi (Rossiya, Xitoy, Tayvan, Saudiya Arabistoni, ko‘pchilik MDH mamlakatlari, Boltik bo‘yi davlatlari BJST ga qo‘shilish turli bosqichlarida turibdi. Bunda yangi mamlakatlarning BJST ga kirish shartlaridan biri ularning milliy qonunchiliklarini Urugvay raundi bitimi paketlariga muvofiqlashtirishdir.

Shuningdek ular qo‘shilayotgan mamlakatlar qonunchilik organlari tomonidan keyinchalik ratifikatsiya kilinishi zurur.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro (tashqi) savdo aloqalarining xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ulushida hajmi qanday?
2. Jahon xo‘jaligida xalqaro savdo o‘rni va rolini aniqlang?
3. Xalqaro savdo nazariyasi qaysi olimlar tomonidan shakllantirilgan?
4. Xalqaro savdo taraqqiyotida qaysi davrni **«oltin asr»** deb harakterlash mumkin?
5. Xalqaro savdoda barqaror turgan o‘sishiga qaysi omillar ta’sir qiladi?
6. Jahonning qaysi mintaqasi Xalqaro savdo bosh markazi bo‘lgan?
7. Osiyoning qaysi davlati xalqaro savdo sohasida sezilarli sakrash qilgan?
8. Xalqaro savdoda AQSH ning roli pasayish nima bilan bog‘liq.
9. Jahon savdosida asosiy eksportchi va importchi mamlakatlarni ayting.
10. Xalqaro savdoning asosiy geografik yo‘nalishi va tendensiyalarini harakterlang.
11. Xalqaro savdo sektorining intensiv rivojlanishi va dinamikasida qaysi tovarlar va mahsulotlar muhim ahamiyat kasb etadi.
12. Xalqaro savdoda qaysi tovarlar va mahsulotlarga nisbatan talab kamayishi ko‘zga tashlanadi?
13. Xalqaro savdoda «Liberalizm» va «proteksionizm» atamasi nimani anglatadi?
14. Xalqaro savdoda hozirgi zamon proteksion choralar sistemasini ayting?
15. Savdo va tarif bo‘yicha Bosh kelishuv xalqaro tashkiloti va uning davomchisi Butunjahon savdo tashkiloti–BJST qachon tashkil qilingan.

III mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN TASHQI SAVDO ALOQALARI

3.1. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishida tashqi savdoning roli.
3.2. O‘zbekiston Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish.
3.3. Tashqi savdo tuzilishi va dinamikasi.
3.4. O‘zbekiston Respublikasning tashqi savdo geografiyasi.

3.1. O‘zbekiston iqisodiyotini rivojlanishida tashqi savdoning roli

Tashqi savdo xalqaro hamkorlikning muhim sohalaridan biridir. Turli mamlakatlar bilan ilmiy-texnik, madaniy aloqalarni yo‘lga qo‘yish ular o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatishning muhim iqtisodiyotni faol va har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda yordam beruvchi vositadir.

Jahon miqyosida har qanday davlat, xoh kichik, xoh yirik bo‘lsin, qanday taraqqiyot darajasida bo‘lmasin, tashqi iqtisodiy aloqalarsiz ko‘zlangan maqsadga erisha olmaydi. Negaki jahonda ishlab chiqarilayotgan buyumlar assortimenti bir necha million turni tashkil qiladiki, birorta davlat ularni o‘zida ishlab chiqarish qudratiga ega emas. Ayrim hollarda esa ba’zi tur mahsulotlarni o‘zida ishlab chiqargandan ko‘ra, boshqa mamlakatlardan olib kelish (sotib olish) arzonga tushadi. Shuning uchun tashqi savdo davlatning turli talablarini kondirishda, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni sog‘lomlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. El va ellatlarni yaqinlashtiruvchi va oxir oqibat davlat qudratini oshiradi, aholi turmush darajasini yaxshilaydi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni oqilona amalga oshirish xo‘jalikning turli tarmoqlarini keng rivojlantirishga imkon beradi. Sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni takomillashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish, mehnat resurslari, tabiiy mineral-xom ashyodan yanada samaraliroq foydalanishga zamin yaratadi. Oqilona va yanada samaraliroq amalga oshirilgan tashqi iqtisodiy aloqalar resublika

oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradi.

Turli mamlakatlarning ilmiy-texnik yutuqlaridan mohirona foydalanish ishlab chiqarishga jahon ilg‘or tajribalarini keng joriy etish va yoyishga ko‘maklashadi. Shuning bilan birga fan-texnika dolzarb muammolarini hal etishni to‘lashtiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar mazmunini hamkor mamlakatlar va butun jahonda ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlari harakteri, tuzilishi dinamikasi taraqqiyoti darajasi belgilaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar mamlakatlarning o‘zaro manfaatli va teng huquqlik prinsiplariga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro savdoda ishtiroki jahon mamlakatlari bilan savdo aylanmasini kengaytirishga asoslangan, bu bugungi kunda oson bo‘lmagan muammolarni oqilona va samarali hal etish imkonini beradi.

3.2. O‘zbekiston Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish.

Tashqi iqtisodiy majmua boshqaruvini takomillashtirish va xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnikaviy, moliya-valyuta, savdo-iqtisodiyotni amalga oshiruvchi turli vazirliklar, mahkamalar, birlashmalar, tashkilotlar boshqaruvi ishini muvofiqlashtirish maqsadida 1992 yil 12 fevralda O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (TIAV) tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidentining 2002 yil 21 oktyabrdagi «Tashqi iqtisodiy aloqalari sohasida boshqaruv sistemasini yanada takomillashtirish va liberallashtirish to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq TIAV qoshida O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentligi tashkil qilindi.

Agentlik o‘z faoliyatini bevosita O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Tashqi iqtisodiy aloqalar Majmui rahbarligi ostida amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlikning asosiy vazifalari:

- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini ta’minlash va uning taraqqiyoti strategiyasini shakllantirishda ishtirok etish;
- milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini oshirish va uni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va jahon iqtisodiyoti sistemasida integratsiyalashuviga sharoit yaratish;

- respublika eksport quvvatini rivojlantirish dasturini amalga oshirishda hamkorlik qilish;
- vatanimiz ishlab chiqaruvchilari tovarlarini tashqi bozorga olib chiqilishini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- moliyaviy va savdo iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda xorijiy davlatlar, Xalqaro moliya va iqtisodiy institutlari, boshqa halkaro huquq sub’ektlari bilan O‘zbekiston Respublikasi hamkorligini ta’minlash;
- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlari va O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy sub’ektlari manfaatlari himoyasini ta’minlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida kadrlar malakasini oshirish va tayyorlash tadbirlarini tashkil etish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni huquqiy asoslari poydevori mustaqillikning birinchi yillaridayoq qo‘yilgan edi. 1992 yilda «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat haqida» qonun qabul qilindi va unda bu sohada xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar huquqiy munosabatlari belgilab quyildi.

Jahon iqtisodiyotida O‘zbekiston iqtisodiyoti integratsiyasini yanada kengaytirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish maqsadida va tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2000 y) tomonidan «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida» yangi qonun qabul qilindi.

Agentlik iqtisodiyot sohasida huquqiy – me’yoriy bazani shakllantirishda faol ishtirok etadi. Misol uchun shu bugungacha Agentlik O‘zbekiston Respublikasining 80 ga yaqin qonunini, Vazirlar Mahkamasining 116 ta qarorini tayyorlashda ishtirok etdi. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligini kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun;

O‘zbekiston Respublikasining «Boj tarifi to‘g‘risida»gi, Qonun;

O‘zbekiston Respublikasining «Antidemping va kompensatsion poshlinalarni himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qonun;

O‘zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida» gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Mahsulotlarni taqsimlash haqidagi bitimlar to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Qimmatbaho qog‘ozlar bozorida sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi almashinish to‘g‘risida»gi Qonuni;
O‘zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to‘g‘risida»gi Qonuni.

Tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlik asosiy faoliyati yo‘nalishlaridan biri Respublikaning savdo-iqtisodiy aloqalari geografiyasini kengaytirish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda.

Hozirgi vaqtda tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlik milliy ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarini eksport qilishni ko‘paytirishda har tomonlama yordam ko‘rsatmoqda. Qator kompleks xizmatlarni amalga oshirmoqda. Tashqi bozor talabi bo‘yicha marketing tadqiqotlari o‘tkazilmoqda. Eksport tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli narx konyukturasi parametrlari va uzoq muddatli prognozlashtirish ishlarini olib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi O‘zbekistonni xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda YEI, Rossiya, Yaponiya, XXR, Koreya Respublikasi, AQSH bilan investitsion va moliyaviy-texnik hamkorligini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

3.3. Tashqi savdo tuzilishi va dinamikasi

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil tashqi iqtisodiy aloqalar olib borish imkoniyatidan mahrum etilgandi.

U to‘g‘ridan-to‘g‘ri jahon savdosida ishtirok etilmasdi. Bu masalalarda o‘zining intellektual salohiyatdan, iqtisodiy va tabiiy potensialidan to‘lig‘icha foydalana olmaydi. Respublikani tashqi iqtisodiy aloqalarda ishtirok etishi barcha masalalari markaz ko‘rsatmasi ostida hal qilinadi. Endi O‘zbekiston mustaqillikka erishgach jahon hamjamiyatining huquqli a’zosiga aylandi. Respublika nufuzi katta sanoat potensiali, malakali mehnat resurslari mavjudligi bilan mustahkamlanmoqda. Bular yuqori texnologiyali mahsulotlar: samolyotlar, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari va taraqqiy etgan mamlakatlarga xos boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Respublikani xorijiy mamlakatlar bilan tashqi-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, Xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi uchun katta imkoniyatlari mavjud.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida tashqi savdo sur’atlari sezilarli o‘sdi. 1992-2004 yillar orasida tashqi savdo hajmi qariyib 3,5 marta ko‘paydi. Birgina 2005 yilda tashqi savdo oboroti 17,3 % ga ko‘paydi. Savdo operatsiyalari tobora xilma-xil bo‘lib, tovar va xizmatlarning keng turlarini qamrab olayapti, respublika korxonalarini yangi mahsulotlari bilan to‘ldirilayapti.

Tovar oborotini ko‘payishi mamlakat korxonalarining eksport faoliyati faollashuvi evaziga, ham chetdan va xizmatlar harid qilish hajmi kengayishi hisobiga amalga oshdi. Eksport sur’atlari o‘sishi import o‘sishidan o‘rtacha **2-3** marta o‘zib ketdi. Mamlakatning to‘lov balansi mustahkamlandi. 1998 yildan buyon respublikada tashqi savdo oborotida ijobiy saldo ta’minlanayapti. Bu milliy valyutani mustahkamlanishi va uni ichki va tashqi konvertatsiyasida yutuqlarga erishish uchun ob’ektiv asos bo‘lib xizmat qiladi.

Eksport. O‘zbekistonda islohatlar yillarida eksport va import tuzilishi takomillashdi. 1990-2003 yillar davomida respublika eksportida xom-ashyo resurslari realizatsiyasi 98 % dan 60 % ga kamaydi. Shu bilan birga mustaqillikning birinchi yillaridagidek paxta tolasi eksport ulushi respublika eksportining 20 % ni tashkil qildi.

Bir vaqtning o‘zida eksportda paxta gazlamalar, iplar, trikotaj buyumlar, boshqa paxtadan tayyorlangan to‘qimachilik materiallari salmog‘i oshdi. Eksportni o‘sishda to‘qimachilik mahsulotlari 2003 yilda 14,3% darajada baholandi. Eksport nomenkulaturasini polietilen, paxta sellyulozasi, shisha tolasiga asoslangan quvurlar, yangi turdagi kabel-o‘tkazgichlar va elektrotexnika mahsulotlari, juda ko‘p boshqa tovarlar to‘ldirmoqda. Eksportda mineral va kimyo mahsulotlari, rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mashina va uskunalar, boshqa tovarlar

ulushi ham ko‘paymoqda. Turli pudrat ishlari hajmi, respublika norezidentlari tomonidan ko‘rsatilayotgan moddiy harakterdagi xizmatlar ko‘lami ortdi.

Import. Bu davrda importda oziq-ovqat tovarlari va mahsulotlari harid qilish ulushi 80 % dan 13 % ga qisqardi. Yangi uskunalar, texnikalar, yangi texnologiyalar sotib olish esa 0,2 % dan 35-45 % ga oshdi. 2003 yilda mashina va uskunalar importi 192,1 mln. dollarga ko‘paydi, uning ulushida ishlab chiqarish vositalari 3 % ga o‘sdi. Import tuzilishi sifat jihatidan o‘zgardi. Importda doimiy ravishda texnik-ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mahsulotlar, mashina va uskunalar salmog‘i oshayapti. Bu tovarlarni olib kelish lokalizatsiya dasturi doirasida shuningdek xorijiy investorlar qo‘yilmalari, qo‘shma korxonalar ustav fondi hisobiga investitsion loyihalar yo‘li orqali amalga oshirilayapti.

Keyingi yillarda sistemali ravishda ishtirokchilar soni va tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi kengaymoqda. Bugungi kunda respublikaning tashqi savdo oboroti 60 % Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. 33 % ni Osiyo mamlakatlari bilan tovaroboroti tashkil qildi. Umumiy hajmda Amerika bilan tovaroboroti ulushi bir muncha (6,5 %) past jumladan, uning 80,9% Shimoliy Amerika mamlakatlari bilan savdo operatsiyalariga to‘g‘ri keladi. Tovaroborotida Afrika, Avstraliya, Okeaniya salmog‘i sezilarli emas.

Yevropa Itifoqi (YOI), MDH Shanxay hamkorligi O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy taraqqiyotiga yangi sur’at baxsh etdi. Buyuk Britaniya, Germaniya, Polsha, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston va boshqa bir qator mamlakatlar bilan tovaroborotida sezilarli o‘sish ko‘zga tashlanmoqda. Respublika korxonalarining Afg‘oniston va Eronga eksrorti ko‘payapti. Markaziy Osiyoda tashqi iqtisodiy hamkorlik **aloqalari** kuchaymoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovaroboroti 2003 yilda 5,2 % ga ko‘paydi.

O‘zbekistonning tashqi savdosida Rossiya, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Koreya, Eron, Ukraina, Qozog‘iston va boshqa davlatlar asosiy hamkorlar hisoblanishadi.

3.4. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo geografiyasi

O‘zbekiston–Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlari. Rossiya O‘zbekistonning yirik iqtisodiy hamkorlaridan biridir. Respublika tashqi «savdo oboroti» tuzilishida uning ulushi 2003 yilda 17 % gacha yetdi.

Faqatgina 2003 yilda ikki mamlakat o‘rtasida tashqi savdo oboroti hajmi 26 % ga o‘sdi va kelgusida yanada ko‘proq o‘sish istiqbollariga ega.

Tovaroboroti tuzilishi yanada ratsional tus olayapti. O‘zbekistondan Rossiyaga eksportda 2003 yilda, mashina va uskunalar – 23 %, paxta tolasi – 1994 yilda 7 % bo‘lgani holda muvofiq ravishda 11 va 64 % ulushni tashkil etdi.

Rossiyada O‘zbekistonga import hajmida ham asosiy ulushning 38 % mashina va uskunalarga 20 % kimyoviy mahsulotlarga, 24 % yog‘och, qog‘oz, karton, mebelga to‘g‘ri keladi. 1994 yilda Rossiyadan O‘zbekistonga asosan 39 % da energiya-yonilg‘i, 15 % oziq-ovqat tovarlari, 14 % qora metall import qilingan. Chkalov nomidagi zavodda zamonaviy yuk va yo‘lovchi tashish samolyotlarini birgalikda ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi ayniqsa sezilarli faollashdi. Shunisi harakterliki, 2004 yilda Toshkent aviazovodida Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan 15 ta samalyot yetkazib berildiki, bu islohatlargacha bo‘lgan davr ishlab chiqarishdan ko‘pdir.

Rossiyalik hamkorlar bilan «o‘z. DEU avto» o‘zbek avto zavodi faol faoliyat yuritayapti. Bir tomondan, Rossiyaga eksport mahsulotlari ko‘payapti. Bu 2004 yilda 25 ming avtomobilni tashkil etdi. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po‘lat qo‘yuvchilar mahsulotlari sifatini oshishi, «Sever stal» Rossiya kompaniyasidan ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun 90 % temir va tunukalarni olish imkoniyatini berdi.

Shunisi harakterliki, O‘zbekistonning aviatsion va avtomobil zavodlari butlovchi va boshqa materiallarga Rossiya Federatsiyasining 957 ta korxonalariga buyurtmalar bermoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga Rossiya kapitalini keng ko‘lamda investitsiya qilishga qiziqish ortmoqda. Birinchi navbatda, eksporttalab sohalar neft-gaz qazib olish, tog‘ qazilmalari, metallurgiya sanoati, mashinasozlik, elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish, aniq priborsozlik, qurilish materiallari, telekommunikatsiya, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa istiqbolli sohalarga investitsiya kiritish mo‘ljallanmoqda.

2004 yil (aprel)da ikki tomonlama imzolangan o‘zbek-rossiya bitimiga ko‘ra, «Shoxpaxta» konida «Gazprom» kompaniyasi tabiiy gaz qazib olish va realizatsiya qilishda ishtirok etayapti. Bir vaqtning o‘zida «Gazprom» bilan birga Ustyurt neftgaz regionida har yili 10 mlrd. kub metrgacha gaz qazib olish va realizatsiya uchun geologiya razvedka loyihalariga 1,4 mlrd.

AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish yuzasidan bitimlar ishlab chiqildi.

Kelgusida «Lukoyl» kompaniyasi bilan Qandim, Xavuzak, Sholi konlarida tabiiy gazni birgalikda qazib olish va realizatsiya qilish bo‘yicha yirik bitimlar imzolash mo‘ljallanapti. «Lukoyl» kompaniyasi tomonidan kiritiladigan 1 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi investitsiya 900 mlrd. kub metr tabiiy gaz qazib olish imkonini beradi.

Keyingi yillarda mashinasozlikda, priborsozlikda, elektrotexnika sanoatida shartlashilgan texnologik kooperatsiya oqilona tiklanmoqda.

Kabel mahsulotlari, elektrotexnika mashinalari, apparatlarga uskunalar ishlab chiqarishda 19 ta o‘zbek-Rossiya qo‘shma korxonalari ishlab turibdi. Maishiy va sanoat priborlari ishlab chiqarish uchun 33 ta qo‘shma korxona tashkil etilgan. Mashina va uskunalarni ta’mirlash, mashinasozlik sohalarida allaqachon 68 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatayapti.

Qishlok xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarida integratsiya jarayonlari rivojlanayapti. Bu borada 9 ta o‘zbek-Rossiya qo‘shma korxonasi ishlab turibdi. Taniqli «Vimm» Bill Don» kompaniyasi bilan Toshkentdagi yirik «Toshkent sut» birlashmasining 77 % aksiyalarini sotib olish yuzasidan shartnoma imzolandi. Kompaniya shuningdek meva sharbatlari va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi qo‘shma korxona tashkil etish uchun 20 mln. dollar investitsiya kiritishga kirishdi.

Ikki mamlakat o‘rtasida bunday iqtisodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi o‘zbek va rus xalqlari mentaliteti, umumiy madaniyati va iqtisodiy hamkorligini mustahkamlaydi. o‘zaro tarnsport infrastrukturasini yaxshilaydi, mamlakatlarni hududiy yaqinligini, iqtisodiyotlarni sog‘lomlashtirish har ikki mamlakat iqtisodiyotini dinamik o‘sish sur’atlarni ta’minlaydi.

o‘zbek – Amerika savdo-iqtisodiy munosabatlari. AQSH O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yirik investor hisoblanadi. 2001 yilda AQSH va O‘zbekiston strategik munosabatlar o‘rnatilganini e’lon qildilar. Keyingi yillarda o‘zaro tashqi savdo oboroti o‘sib bormoqda.

O‘zbekiston va AQSH yoqilg‘i-energetika kompleksi, tog‘ konchiligi, ximiya, yengil, oziq-ovqat, mashinasozlik sanoati, axborot texnologiyasi, yuqori texnologiya mahsulotlari singari istiqbolli sohalarida hamkorlikni rivojlantirayapti.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda Amerika sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 453 korxona qayd etilgan. Ulardan 120 tasi yuz foiz chet el kapitaliga barpo qilingan.

Ular orasida «Zarafshon-Nyumont» amerikaning oltin qazib oluvchi «Nmont Mayning» korporatsiyasi ishtirokida ish boshladi. «Bi Es Ay Indostriz Ink» kompaniyasi bilan Xo‘jaobod yer osti tabiiy gaz ombori qurilishi, «ABB Lummus Global» kompaniyasi ishtirokida Sho‘rtangaz kompleksi qurilishi, «Teksako» kompaniyasi bilan yuqori sifatli moy ishlab chiqaruvchi «o‘z-Teksako» qo‘shma korxonasi qurilishi amalga oshirildi. Qashqadaryo viloyatining Shimoliy o‘rtabo‘loq neft konida «Beyks Xyuz», «Keys Neyu Xoland» kompaniyalari bilan hamkorlikda neft qazib olishni ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligi texnikasiga lizing va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ish olib borilayapti. Akkumulyatorlar va boshqalar ishlab chiqarish uchun «o‘z Eksayd» qo‘shma korxonasi tashkil etildi.

O‘zbekiston AQSH bilan moliya-kredit sohasida faol hamkorlik qilayapti. Amerikaning Eksim banki O‘zbekistonda 44 ta qo‘shma loyihani moliyalashtirish uchun 1,5 mlrd. AQSH dollari kredit berdi.

Ayni paytda O‘zbekiston va AQSH o‘rtasida hamma yetakchi sohalarda iqtisodiy hamkorlik kengayib, rivojlanib borayapti.

Neftgaz, tog‘ qazilma, transport tizimi, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari va boshqa sohalarda o‘nta istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ustida ish olib borilmoqda.

O‘zbekiston**-Yaponiya savdo-iqtisodiy munosabatlari.** O‘zbekiston va Yaponiya savdo-iqtisodiy, madaniy hamkorlikda ko‘p asrlik tarixga ega. Ikki mamlakat o‘rtasida davlataro va milliy hamkorlik munosabatlari O‘zbekiston mustaqil bo‘lgan va milliy suverenitet olgandan keyin o‘rnatiladi. Yaponiya bilan diplomatik munosabatlar 1992 yil 26 yanvarda o‘rnatildi. 2002 yil iyulda ikki mamlakat o‘rtasida «O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya o‘rtasida hamkorlik va strategik partnerlik, do‘stlik to‘g‘risida deklaratsiya» imzolanadi.

Shuningdek, «O‘zbekistonda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda hamkorlik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo‘shma bayonoti» imzolandi. Yaponiya O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar jarayonlarini doimiy ravishda qo‘llab-quvvatlab kelayapti. 1994 yildan buyon Yaponiya hukumati O‘zbekistonga 1,6 mlrd. AQSH dollari miqdorida kredit va investitsiya taqdim etdi. Shuningdek talekommunikatsiya, transport, energetika, ta’lim va boshqa sohalarda muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun davlat yo‘li bilan 270 mln. dollari uzoq muddatli kreditlar va grantlar ajratdi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti tuzilishini qayta tashkil etishda xalqaro hamkorlik Yaponiya tijorat banki kreditlari muhim ahamiyat kasb etdi. 730

mln. dollarga yaqin bu kreditlar neftgaz va to‘qimachilik sohalarida 9 ta loyihani moliyalashga qaratilgan.

Beg‘araz insonparvarlik yordami doirasida Yaponiya O‘zbekistonga 131 mln. dollar ajratgan. Yaponiya kompaniyalari va banklari xo‘jaligida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho‘rtan gaz-kimyo kompleksi (majmuasi) kurildi. Markaziy Osiyoda yirik hisoblangan Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi rekonstruksiya qilindi. Ko‘kdumaloq gaz kondensati gaz komperssar stansiyasi ishga tushirildi.

Ilg‘or Yapon texnologiyasi asosida to‘qimachilik ishlab chiqarishini keng ko‘lamda modernizatsiya qilish boshlab yuborildi. Bu paxtadan sifatli eksportbop tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, paxtani qayta ishlashni chuqurlashtirish imkonini beradi. Masalan, Qo‘kon to‘qimachilik kombinati. Xuddi shunday komplekslar Chinoz va Shahrizabzda ishga tushirildi. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning muhim sohasi telekommunikatsiya hisoblanadi. Yaponiya hukumati tomonida ajratilgan uzoq muddatli 246 mln. AQSH dollari imtiyozli krediti bugungi kunda tashkilotlarda kompyuterlashtirishni amalga oshirishga imkon yaratayapti.

Energiyani tejash va ekologik toza ishlab chiqarish sohalarida, ayniqsa energetika sohasida ham kelajakda ko‘zlangan hamkorlik rivojlanayapti. Yaponiya Toshkent issiqlik elektrostansiyasida yangi bug‘ gaz uskunasini o‘rnatish uchun O‘zbekistonga uzoq muddatli 196 mln. dollar miqdorida kredit ajratdi. Toshkent issiqlik markazini modernizatsiyalash uchun yangi loyihani tayyorlash boshlandi. Yaponiya O‘zbekiston Markaziy Osiyo va Afg‘onstonda qisqa temiryo‘l yo‘nalishini yaratish, shuningdek O‘zbekistonning janubiy hududlarida iqtisodiyotni rivojlantirishni ta’minlovchi Toshguzar. Boysun-Qumqurg‘on temiryo‘li qurilishiga imtiyozli shart bilan 150 mln. dollar ajratdi.

Kelajakda asosiy hamkorlik yo‘nalishlari Xalqaro turizm va transport infrastrukturasi, elektrotexnika elektronika, telekommunikatsiya, to‘qimachilik, ximiya, gaz, neft sanoati sohalarini rivojlantirish, ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar bilan qurollantirishga Yaponiya investitsiyalarini jalb etishga qaratiladi.

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi savdo oboroti har yili 1,2 mlrd. dollarni tashkil qilayapti. Uning 47 % foizi o‘zbek eksportiga, 53 % Yevropa mamlakatlaridan O‘zbekistonga importni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida O‘zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlari

Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Fransiya, Niderlandiya va boshqalar hisoblanadi.

EI mamlakatlari shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoya kiritayotgan yirik sheriklar hamdir. O‘zbekiston hududida YEI mamlakatlari firma va kompaniyalari ishtirokida 500 dan ziyod korxonalar ishlab turibdi, ulardan 115 tasi yuz foiz (100%) Yevropa kapitali hisobiga tashkil etilgan.

Yevropa investorlari ishtirokida O‘zbekistonda amalga oshirilgan yirik loyihalar orasida «Oksuk Mayning» kompaniyasi bilan birga tashkil etilgan oltin rudasini qayta ishlovchi «Amanatu Goldfildz», tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «o‘z BAT», «Doyche-Kabel AG Toshkent», avtomobil va qurilish oynalari ishlab chiqaruvchi «Tekint» (Italiya) qo‘shma korxonalari bor.

EI mamlakatlari banklari va sug‘urta agentliklari O‘zbekistonda umumiy summasi 2,9 mlrd. dollarlik 174 loyihani moliyalashtirganlar. Ayni paytda shaharlar kommunal infrastrukturasi va irrigatsiya inshootlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha, amaldagi neft konlari samaradorligini oshirish va yangi istiqbolli loyihalar asosida energetika sistemasini modernizatsiyalash (Fransiya); O‘zbekiston janubida polimetall ruda konlarini ishlab chiqish (Buyuk Britaniya) va kasbiy ta’lim sohasida kadrlar tayyorlash borasida faol ish olib borilayapti.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdoning roli va ahamiyatini harakterlang.
2. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi qachon tashkil topgan?
3. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlik qachon tuzilgan?
4. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlik oldiga qanday vazifalar qo‘yilgan?
5. Yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonun qachon qabul qilingan.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qanday qonunlar qabul qilingan?
7. O‘zbekiston Respublikasi bilan dunyoning nechta davlatlari savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradi?
8. Mustaqillik yillarida respublikaning tashqi savdosi umumiy hajmi necha marta ko‘paydi?
9. Qaysi yildan buyon respublika tashqi savdo oborotida ijobiy saldo ta’minlanayapti?

10. 1990-2003 yillarda respublika eksportida xom ashyo resurslari ulushi necha foizga qisqardi?
11. 1990-2003 yillarda eksportda paxta tolasi ulushi necha foizga qisqardi?
12. Mamlakat eksporti nomenkulaturasi qaysi tovarlar bilan to‘ldirilayapti?
13. Oziq-ovqat tovarlari importi necha foizga qisqardi?
14. Yangi texnika va texnologiyalar, yangi uskunalar sotib olish necha foizga o‘sdi.
15. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo oborotida YEI mamlakatlari necha foizni tashkil qiladi?
16. Respublika tashqi savdosida qaysi mamlakatlar asosiy partnerlar bo‘lib hisoblanadi?

IV mavzu. XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

4.1. Kapital chiqarish (eksport) xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi shakli.
4.2. Kapital chiqarishning sabablari va asosiy shakllari.
4.3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kapital qo‘yilmalar.
4.4. Xorijiy investitsiyalar tuzilishi.

4.1. Kapital chiqarish (eksport) Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yetakchi shakli

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va zamonaviy jahon xo‘jaligida mamlakatlar o‘rtasida chetga kapital chiqarish (eksport), uning faol migratsiyasi (harakati) asosiy muhim belgilardan biridir.

Kapital chiqarish mazkur mamlakat milliy kapital oborotidan bir qismini olish jarayonlarini o‘zida mujassam etadi. U tovar yoki pul shaklida boshqa mamlakatlar ishlab chiqarish jarayonlariga aralashadi. Avval boshqa kapital chiqarish jahon xo‘jaligida kapital eksportini amalga oshiruvchi kam sonli rivojlangan mamlakatlargagina xos edi. Jahon xo‘jaligining rivojlanishi bu jarayon doirasini ancha kengaytiradi. Kapital chiqarish iqtisodiyotning dinamik taraqqiyotida har qanday sharoitda ham muvaffaqiyatli vazifa bo‘lib qoladi. Kapitalni sanoat negizida rivojlangan mamlakatlar ham, o‘rtacha taraqqiy etgan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham chiqaradi.

Hozirgi paytda kapitalning xalqaro harakati xalqaro iqtisodiy munosabatlarni turli shakllari rivojlanishida, jahon iqtisodiyotini faoliyat ko‘rsatishda hal qiluvchi element bo‘lib qolmoqda. Ekspertlarning baholashlaricha,to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘rtacha yillik

o‘sish sur’atlari taxminan 34 % ni, ya’ni jahon savdosi ko‘payishi sura’tlaridan 5 marta ko‘pni tashkil qiladi.

4.2. Kapital chiqarishning sabablari va asosiy shakllari.

Kapital chiqarishga asosiy sabab va ehtiyoj mazkur mamlakatda kapitalni to‘planib qolishi, nisbatan zaruriyatdan ortiqchaligi hisoblanadi. Tadbirkorlikdan daromad yoki foiz olish maqsadida u chetga o‘tkaziladi. Kapital ichki investitsiyalashga mablag‘ yetishmay qolganda ham amalga oshirilishi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab kapital chiqarish to‘xtovsiz o‘smoqda. Kapital eksporti tovar eksporti bo‘yicha ham rivojlangan mamlakatlar ichki yalpi mahsulot o‘sishi sur’atlari bo‘yicha ham o‘zib ketmoqda. Kapital chiqarish ko‘lami oshayotgani uni xalqaro migratsiyasini kuchaytirmoqda.

Kapitalning xalqaro migratsiyasi – bu mamlakatlar o‘rtasida kapital harakatining bir-biriga peshvoz harakti bo‘lib, ham divident shaklida, ham foiz miqdorida daromad keltiradi. Har bir mamlakat bir vaqtning o‘zida kapital eksportchisi va importchisi hisoblanadi: ya’ni, chorraxa investitsiyasi ro‘y beradi.

Katta daromad olish yo‘lida kapital chiqarishning muhim sabablari: mamlakatda chiqarilayotgan kapitalning to‘planishi; jahon xo‘jaligi turli bo‘g‘inlarida kapitalga va unga talab va ehtiyojni mos kelmasligi; mahalliy bozorni monopoliyalashtirish imkoniyati mavjudligi; mamlakatda arzon xom ashyo va ishchi kuchlarining borligi; barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsion muhit.

Kapital chiqarish va uni rag‘batlantirishning asosiy omillari:

1. Milliy iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro bog‘liqlikni o‘sishi kapital chiqarishni faollashtiruvchi, harakatlantiruvchi kuchdir. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya shaklidagi kapital eksporti ayniqsa ishlab chiqarishni xalqaro, ya’ni xalqaro mahsulotlar ishlab chiqarishga aylantirishda bosh omil hisoblanadi. Xalqaro mahsulotlar bu global Xalqaro bozorda sotiladigan (avtomobillar, samolyotlar, radioelektronika, kompyuterlar va boshqa) mahsulotlardir.

2. Xalqaro sanoat kooperatsiyasi, sho‘’ba korxonalarida transmilliy kompaniya qo‘yilmalari. Turli mamlakatlardan ayrim yuridik mustaqil korxonalarni yagona xalqaro korporatsiya doirasida ixtisoslashish, texnologik, sohaviy yakin hamkorligini o‘rnatish.

3. Riojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosati, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini qo‘llab-quvvatlash uchun sezilarli hajmda kapital jalb qilish, bandlik darajasini saqlash, sanoat yetakchi sohalari taraqqiyoti.

4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy holati, xorijiy kapitalni jalb qilish yordamida o‘z iqtisodiyoti rivojiga sur’at bag‘ishlash, «qashshoqlik»dan kutilishga urinish.

5. Iqtisodiy omillar sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Xalqaro korporatsiya qat’iy ekologik normalar tufayli ishlab chiqarishni rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chiradi.

6. Kapital oqimini yo‘naltiruvchi va tartibga soluvchi xalqaro moliya tashkilotlari muhim rol o‘ynaydi.

Kapital chiqarish o‘z shakli va xususiyatga ko‘ra turlicha bo‘lishi mumkin. Xususan, kelib chiqish manbaiga ko‘ra (1) davlatniki, va (2) xususiy kapital.

Xalqaro kapital qo‘yilmalarda davlat kapital qo‘yilmalari yana rasmiy hisoblanadi. Ular davlat byudjeti mablag‘larini tashkil qiladi va bevosita yo hukumat qarori bilan, yo hukumatlararo tashkilot qarori bilan xorijga yo‘naltiriladi yoki u yoqdan qabul qilinadi.

Shakliga ko‘ra bular – davlat zayomlari, ssuda, grantlar (hadyalar) hukumatlararo bitimga ko‘ra (XVF kreditlari) yordam o‘tazish.

Xususiy kapital-bular xususiy shaxslar (yuridik yoki jismoniy) tomonidan xorijga joylashtiriladigan yoki xorijdan qabul qilinadigan nodavlat manbalar. Bunga investitsiyalar, savdo kreditlari, banklararo kreditlash kabilar kiradi.

Joylashish muddati bo‘yicha chet el kapital qo‘yilmalari (1) qiska muddatli, (2) o‘rta muddatli va (3) uzoq muddatliga bo‘linadi. Keyingisiga 15 yildan ziyod muddatga qo‘yilgan qo‘yilmalar kiradi.

Foydalanish xususiyatiga qarab xorijiy kapital qo‘yilmalari (1) ssudali, (2) tadbirkorlik ko‘rinishida bo‘ladi.

Birinchisi protsent shaklida foyda olish uchun berilgan mablag‘larni bildiradi. Bu sohada davlat tomonidan va xususiy manbalardan qo‘yilmalar faol tus oladi.

Tadbirkorlik investitsiyalari bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarishga qo‘yiladi va u yoki bu hajmda dividend shaklidagi foyda olish huquqiga ega bo‘ladi. Bu yerda gap asosan xususiy kapital qo‘yilmalar haqida bormoqda.

Maqsadlarga ko‘ra tadbirkorlik kapital qo‘yilmalari (1) bevosita, (2) protfel investitsiyalariga bo‘linadi. Xalqaro valyuta fondi (XVF) ushbu

satrlarga (ya’ni maqsadlarga) yana bir guruhni – «investitsiyalar»ni kiritadi, unga asosan xalqaro zayomlar va bank depozitlari kiradi.

4.3. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kapital qo‘yilmalari

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ham jahon iqtisodiyotiga, ham uning o‘zagi-xalqaro biznesga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar deyilganda yo 10 yoki undan ziyod oddiy aksiyalar ustidan xorijiy nazorat, yoki korxona boshqaruvida «samarali ovozlar» tushuniladi. Ayrimlar bu faqat mulk, aksiyalar kapitalidagi ulushini mablag‘ bilan olish; (1) xorijdan aksiyalar sotib olish; (2) daromadni qayta investitsiyaga yo‘naltirish; (3) firma ichki zayomlari yoki firma ichki qarzlarni uzish.

Bundan tashqari turli noaksionerlik shakllar – subkontrakt, boshqaruv bitimi, franchayzing, litsenziyali oldi-berdi, mahsulotni taqsimlash va shular kabilar ham mavjud va amaliyotda keng foydalaniladi. Xorijiy investitsiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri shakllari va usullari global harakterdagi bir qator muammolarni keltirib chiqarishi, ularni hal etish uchun nostandart qarorlar qabul qilishga to‘g‘ri kelishini ham tan olish kerak.

Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra o‘tgan davrda chet el kapital qo‘yilmalari 1/3 ga ko‘paygan. Keyin ular 10 yilda, so‘ngra – 6-7 yilda ikki barobar ko‘payib borgan. Chorak asrda (50-yillar o‘rtalaridan) ular 4 marta o‘sgan va 80-yillarda jahonda taxminan 450 mlrd. dollar qo‘yilmalar qo‘yilgan. 1990 yilda 1,7 trln. dollarlik marra egallandi. Ya’ni, ular faqat o‘n yil ichida 4 baravar oshdi. 2000 yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar yig‘indisi umumiy summasi 3 trln. AQSH dollarini tashkil etdi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning bundan yuqori o‘sish sur’atlari eng avvalo jahon xo‘jaligini olg‘a siljishgani, transmilliy korporatsiyalarni oldingidek kapital shaklida emas, ishlab chiqarishni chiqargani, nafaqat daromad olishni mo‘ljallagani, balki hali ishlab chiqarishning o‘zi amal qilar ekan, uzoq muddat daromad olishni ko‘zlangani bilan bog‘liqdir.

Hozirgi davr bosqichida jahondagi barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning 9/10 xalqaro korporatsiyalar tomonidan nazorat qilinmoqda. Jahonda bunday xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar soni 39 mingtani, yana plyus 270 mingta xorijiy filiallarni tashkil qiladi. Shuning uchun shuni ta’kidlash mumkinki, endilikda transmilliy korporatsiyalar va

ularga o‘xshash xo‘jalik tuzilmalari jahon xo‘jaligining dinamik sektorini tashkil qiladi.

Hozirgi davr bosqichida deyarli barcha mamlakatlar kapital eksportyorlari hisoblanadi, shu bilan birga barcha davlatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kapital importlari hamdir. Shunga qaramasdan investitsiyalarni taqsimlash (ularning geografik tuzilishi) bir tekis emas. Misol uchun, yirik donor bo‘lgani holda Yaponiya bunday kapital qo‘yilishlarida kamtargina o‘rinni egallaydi. Yaponiya hukumati tomonidan yo‘l qo‘yilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyasi va bu mamlakat biznesi atigi 17,8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda uch qutbli to‘g‘ridan-to‘g‘ri global chet el investitsiyalari tuzilishi haqida gapirish uchun barcha asoslar bor: AQSH, Yevropa ittifoqi, Yaponiya.

Bu «uchlik» hissasiga umumiy investitsiya chiqarish va kiritishning 4/5 ga yaqinrog‘i to‘g‘ri keladi. Ya’ni, jahon savdosida ularning ulushi amalda ko‘proq. AQSH kapital harakatining yirik ishtirokchisiga aylangan:

EI da to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya asosida integratsiya darajasi o‘sdi. Butun hudud esa yirik kapital eksportchisi sifatida maydonga chiqayapti. Yaponiya tomonidan investitsiya chiqarish yuqori sur’atlarda o‘sayotgani qayd qilinmoqda. U «tashqi iqtisodiyot» hajmlari bo‘yicha jahonda o‘z o‘rnini jiddiy mustahkamlayapti.

«Uchlik» ning o‘z ichida esa kapitalni o‘zaro chatishib ketishi borayapti, o‘zaro savdo jahon savdosiga nisbatan tez o‘sayapti. «Uchlik» qiyofasida yangi, yanada yuqoriroq qavat xalqaro mehnat taqsimoti va o‘z milliy tartibga solish mexanizmi vujudga kelayapti. Hozirgi jahon xo‘jaligi standartlari ustidan hududiy darajada ustunlik yaratiladi.

«Katta yettilik» o‘zida o‘ziga xos yuqori bozor qavati «shtab»ini namoyon etadi. Unda integratsiya xalqaro munosabatlarga asoslanib emas, xo‘jalik taraqqiyoti yuqori dinamikasini amalda ta’minlovchi me’yorlar **«uyin qoidalari»** yordamida amalga oshiriladi. Qolgan mamlakatlar guruhi, ayrim to‘dalar bu jahon xo‘jaligi yuritish andozlariga o‘ziga xos ravishda «moslashadi», va yetakchilar bilan aloqalarni yo‘qotmaslikka harakat qiladilar.

Aloqa va axborot vositalari sohasidagi yutuqlar tufayli bir qator sanoat sohalari yetakchi investorlarga aylanadi: kompaniyalarning xorijiy kapital quyilmalari, ko‘chmas mulkka ixtisoslashgan va moliyaviy xizmat ko‘rsatishlar keyingi o‘n yil ko‘rsatkichlariga qaraganda qisqardi. Ko‘pchilik sanoat kompaniyalari uchun xorijda ishlab chiqarish markazlari

emas, balki mahsulotlarni tarqatish tarmoqlari yaratish, xorijda ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik byurolari tashkil etish istiqbol rejalariga aylanayapti.

Chet el investitsiyalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqimi geografik tuzilishi, ya’ni olg‘a siljishi quyidagilarga olib keladi: jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar joriy hajmi yuqori darajaga -315 mlrd. AQSH dollariga yetdi (o‘tgan yillarga nisbatan o‘sish 40 %); bu summaning katta qismi bosh investorlar hisoblangan rivojlangan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi (270 mlrd. dollar) va chetdan investitsiya oluvchilarniki -203 mlrd. dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya oqimi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham ko‘paydi, 100 mlrd. dollar eng rivojlanayotgan mamlakatlardan eksport esa 47 mlrd. dollarni tashkil etdi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar ham ortda qolgani yo‘q: Markaziy va Sharqiy Yevropada investitsiya oqimi ikki marta o‘sdi va salkam 12 mlrd. AQSH dollariga yetdi. Osiyodagi moliyaviy inqiroz, uning jahon iqtisodiyotiga noxush ta’sir etayotganiga qaramasdan, YUNKTAD ma’lumotlariga ko‘ra, jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiya oqimi 2000 yilda 10 % ga – rekord darajasiga – 430-440 mlrd. AQSH dollariga o‘sdi. Bu kapital qo‘yilmalarning katta qismi taraqqiy etgan mamlakatlar, Lotin Amerikasi davlatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga kelib tushdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyasi o‘sishi Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda kuzatilmoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari inqirozi boshlangandan keyin mintaqa mamlakatlari uchun xususiy moliya resurslari muhim manba bo‘lib qoldi.

4.4. Xorijiy investitsiyalari tuzilishi

Investitsiyalarning katta qismi va ularni amalga oshiruvchi bosh «harakatdagi shaxs» transmilliy korporatsiyalar (TMK) eslatilgan «uchlik» (AQSH, YEI va Yaponiya) qiyofasida jamlangan.

10 yirik qabul qiluvchi mamlakatlarga investitsiya oqimining 2/3 qismi 100 kichik mamlakatlarga -1% to‘g‘ri keladi.

Nisbatan taraqqiy etgan mamlakatlar guruhlari ichki investitsiyasi rekord o‘sishi avvalo firmalararo qo‘shilish jarayoni va partnerlar aksiyalarini sotib olish faollashuvi bilan bog‘lanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning salkam 90 % chiqarish va joylashtirish) taraqqiy etgan davlatlarga to‘g‘ri keladi. Natijada ularning umumjahon hajmida ishlab chiqarishda kapital joylashuvi 65 % gacha o‘sdi.

Agar xorijiy investitsiyalash ko‘lami bo‘yicha AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiyada joylashgan transmilliy korporatsiyalar (TMK) yetakchi bo‘lsa, chet el investitsiyalarini ko‘proq jalb etuvchilar ham o‘sha - AQSH, Buyuk Britaniya, GFR mamlakatlari bo‘layaptilar.

Investitsiyalarning notekis joylashuviga xos xususiyat boshqa davlatlar guruhiga ham ta’luqli. Rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashtirilayotgan mablag‘lar umumiy so‘mmasining 2/5 ga yaqini Osiyoga, 1/4 Lotin Amerikasiga, qolgani (1/10 gacha) Afrikaga to‘g‘ri keladi.

Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyo to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni joylashtirishda jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari orasida yirik mintaqa bo‘lib qolmoqda. Bu shu bilan bog‘liqki, Osiyo davlatlarini hozirgi zamon ko‘lamida taraqqiyot dinamizmi boshqa mamlakatlardan transmilliy korporatsiyalar (TMK) uchun yangi bozor topishga intilish, hudud resurslarini o‘zlarining global ishlab chiqarish tizimiga buysindirishda qulay imkoniyat bo‘lib xizmat qilayapti.

1992 yildan boshlab, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini yirik oluvchisi bo‘lib, Xitoy Xalq Respublikasi (XXP) chiqmoqda. XXP chet el kapitali uchun milliy rejim yaratish sari harakat qilayapti, asta-sekin unga ilgari berilgan imtiyozlarni olib tashlayapti, xususan import poshlinasidan ozod qilinganligi. XXP iqtisodiy o‘sish sura’tlarini hisobga olgan holda va unda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari uchun yangi sohalar ochik eshik jarayonida Xitoy uzoq muddatli istiqbolda xorijiy investorlarni jalb qiluvchi ob’ekt bo‘lib qoladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet investitsiyalari oqimi Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida o‘sayapti. Chet el kapitali qo‘yilmalari asosan bir nechta sohalarga qaratilgan: avtomobilsozlik (Meksika va Braziliya), foydali qazilmalarni qazib chiqarish (Chili), chet el investorlari qiziqishi xususiylashtirish jarayonlari avj olgan Argentina va Peruda ham kuchaydi.

Mutaxassislarning fikricha, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi notekisligi Lotin Amerikasi mamlakatlarida kelajakda ham saqlanib qoladi. Unda eng avvalo boshlangan xususiylashtirish jarayonlarida Braziliya va avtomobilsozlikda bir qator yirik investitsion loyihalarni amalga oshirgan korxonalar ko‘zga tashlanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, avvalgidek xalqaro investitsiyalash jarayonlari markazida Afrika mamlakatlari turadi. Bu yerga investitsiya xuddi dunyoning boshqa hududlaridagi singari tez o‘smoqda. Afrikada

yirik chet el investorlari bo‘lib Fransiya, GFR, Italiya, Buyuk Britaniyadan trasmilliy korporatsiyalar (TMK) qolmoqda.

Markaziy va Sharkiy Yevropa mamlakatlarida chet el investorlari faollik ko‘rsatkichlari rekord darajada yuqori. Bu faqat xususiylashtirish jarayonlarining navbatdagi to‘lqini bilangina izohlanmaydi. Bu yerda nihoyat iqtisodiy o‘sishlar ham boshlangan (Polsha, Chexiya). Ushbu mamlakatlarga bir yilda chet el investorlari umumjahon oqimining 5 % yo‘naltirilgan. Bunda barcha o‘sishning 2/3 qismi Vengriya va Chexiyaga to‘g‘ri keldi: u yokka xususiy kapital oqimi salkam uch marta ko‘paydi.

Transmilliy korporatsiyalar (banklar va moliyaviy muassasalar qo‘shilmagan holda) xorijiy qo‘yilmalari hajmi bo‘yicha yirik 100 tasi sanoat taraqqiy etgan mamlakatlarda joylashgan. Ularning xorijiy egalik qiymati taxminan 1,4 trln. dollar baholanmoqda. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investatsiyalarining dunyodagi umumiy hajmini 2/3 qismini tashkil qiladi. Xorijiy investitsiyachilar faoliyatida eng faol ishtirokchi kompaniyalar orasida ingliz-golland konserni «Royal-Datch Shell» oldinda borayapti. Uning xorijiy aktivi 63,4 mlrd. dollar. «Ekson» 56,2 va 87,9 mlrd. dollar.

Endilikda yirik transmilliy korporatsiyalar (TMK) lar orasida rivojlanayotgan Osiyo va Lotin Amerikasidan chiqqan mamlakatlar bor. Bunday TMK lar ruyxatini «DEU» (Koreya Respublikasi), Xitoydan «Xatchinson Uampu» va Meksikadan «Semeks» boshqarib borishayapti.

Shunday qilib, turli kanallar bilan amalga oshirilayotgan xalqaro kapital harakati hozirgi bosqichda jahon xo‘jalik aloqalarining dinamik rivojlanayotgan shaklidir. Internatsionalashuv jarayonlari keyingi o‘n yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb etish kanallari roli sezilarli oshganini ko‘rsatadi, uning bosh sub’ektlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar va jahon iqtisodiyotida xalqaro korporatsiyalardir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Hozirgi zamon jahon xo‘jaligida va Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda muhim ajralib turadigan belgilarini ayting.
2. Xorijga kapital chiqarish o‘zida nimani aks ettiradi?
3. Kapital chiqarish (eksport) sabablari qanday?
4. Kapitalning xalqaro migratsiyasi nima?
5. Kapital chiqarish va uni rag‘batlantirishga qaysi omillar turtki beradi?
6. Chetga kapital chiqarishning asosiy shakllarini ayting?

7. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jamg‘arish umumiy so‘masini aniqlang.
8. Kapitalni eksport va import qiladigan asosiy mamlakatlarni ayting.
9. «Uchlik» (AQSH, YEI va Yaponiya) da to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar qismi qancha?
10. Uzoq muddatli istiqbolda xorijiy investitsiyalar uchun jahonning qaysi mamlakatlari jalb qiluvchi bo‘lib qoladi.
11. Qaysi xorijiy transmilliy korporatsiyalar (TMK) Afrikada asosiy investorlar bo‘lib qolmoqda?
12. Jahonning eng yirik korporatsiyalari harakterli qirralarini izohlang.
13. Jahoning eng yirik va gigant transmilliy korporatsiyalari (TMK) ni ayting.
14. Qaysi kompaniya jahonda xorijiy aktivlari bilan birinchi (1) o‘rinni egallaydi?

V mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INVESTITSION SIYOSATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

5.1. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar
5.2. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli
5.3.O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit.
5.4.Xorijiy investitsiyalar bilan korxonalar o‘sish dinamikasi.

5.1. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qo‘yidagi omillarga ega: katta zahiraga ega bo‘lgan foydali qazilmalar va yonilg‘i – energetika resurslari, qishloq xo‘jaligi potensiali, ilmiy salohiyat potensiali, zamonaviy bozor infrastrukturasi institutlari tarmog‘i, keng

tijorat banklar tarmog‘i, Internetga chiqish bilan ishonchli telekommunikatsiyalar tarmog‘i, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.

Tabiiy resurslari. O‘zbekiston Respublikasida 100 turdan ziyod mineral xom ashyo va boshqa foydali rudali jinslarni o‘z ichiga olgan istiqbolli 2700 dan ziyod manbalar aniqlangan. 900 dan ortiq konlar tekshirib ko‘rilgan, ulardagi boyliklar zahirasi 970 mlrd. AQSH dollariga baholanadi. Respublika umumiy mineral – xom ashyo potensiali 3,3 trln. AQSH dollaridan ortiq so‘mmani tashkil qiladi.

Mineral xom ashyo resurslari va strategik materiallar zahirasi hajmi bo‘yicha O‘zbekiston jahondagi eng boy mamlakatlar qatoriga kiradi. O‘zbekiston oltin va uranning tasdiqlangan zahirasi bo‘yicha jahondagi birinchi beshlik (5) mamlakatlar o‘nlik (10) mamlakatlaridan biri hisoblanadi.

Rangli metallar: Miss, qo‘rg‘oshin, rux, volfrom, reniy va boshqalarning yirik zahiralariga ega. O‘zbekistonda 33 ta marmar, 18 ta granit va gabbro konlari aniqlangan. Juda ko‘p dekorativ tosh konlarida butun Yevroosiyoda yirik hisoblangan nayob tabiiy xazinalar mavjud. Respublika fasforitga boy. o‘zbekisonda tosh tuzi, kaliy tuziga boy yirik konlar mavjud.

O‘zbekiston hududida neft va gazning ulkan qatlamlari bor. Respublikaning 60 % hududi ularni qazib olish uchun istiqbolli hisoblanadi. Markaziy Osiyo gaz kondensanti zahiralarining 74 %, neftning 40 %, tabiiy gazning 40 %, ko‘mirning 55 % ulushi O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi.

Aniqlangan ko‘mir zahiralari 2 mlrd. tonnadan ko‘proqni tashkil qiladi. Neft-ximiya, bazali ximiya, farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, yangi tur mahsulotlar ishlab chiqarishda bu katta imkoniyatlar yaratadi.

Qishloq xo‘jaligi potensiali. Bugungi kunda respublika agrosanoat majmuida mamlakatning mehnatga qobiliyatli aholisining 2/5 dan ko‘prog‘i band. Qishloq xo‘jalik sektori mahsulotlari O‘zbekiston aholisi uchun zarur 90 % oziq-ovqat ishlab chiqarish imkonini beradi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalar-ni ko‘proq jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratilayapti.

o‘zbekisonda har yili 3-3,3 mln. tonna paxta tayyorlanadi. Undan 1,5-1,7 mln. tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi. Keyingi yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yalpi hajmida to‘qimachilik mahsulotlari ulushi 21 % ga o‘sdi. Respublika yengil sanoati korxonalarida paxta tolasi hajmining 25 % qayta ishlanmoqda. Respublika ipak sanoati yuqori sur’atlarda rivojlanayapti. Respublika pilla yetishtirish bo‘yicha dunyoda

uchinchi o‘rinni egallaydi. MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan pillaning 80 % o‘zbekisonga to‘g‘ri keladi. Xilma-xil va qulay iqlim sharoiti omillari o‘zbekisonda keng turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi. Mamlakatimizda yetishtiriladigan yuqori safatli sahovat, meva, uzum, poliz ekinlari mahsulotlarini tayyorlash, yuvish, quritish, saralash, qutilash, tez buziladigan mahsulotlarni saqlash, uzoq masofalarga eksportga jo‘natish uchun korxonalar zarur.

Ilmiy va intellektual potensial. O‘zbekiston yuksak kadrlar potensialiga ega, ularning asosini oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar tashkil etadi. Ularning yordami va salohiyatiga tayanilib ekesportbop murakkab mashinalar, uskuna va buyumlar ishlab chiqarish sohasida milliy sanoat tez sur’atlarda taraqqiy eta boshladi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida ilmiy salohiyati bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Respublika Quyosh fizikasi, zilzilaga bardoshli inshootlar, mashinasozlikda lazerdan foydalanish, paxta navi va genetikasi, qorako‘lchilik, o‘simliklar kimyoviy moddalari va boshqa qator sohalarda noyob yutuqlarga erishayapti.

O‘zbekistonda bugungi kunda 9700 dan ziyod umum ta’lim maktablari, 533 kasb kollejlari, 55 ta akademik litseylar va 65 ta oliy o‘quv yurtlari-universitetlar, institutlar ishlab turibdi. O‘zbekiston aholisi yoppasiga savodxon mamlakat hisoblanadi.

Transport infrastrukturasi. Qulay geografik joylashish va taraqqiy etgan trasport infrastrukturasi Markaziy Osiyo, Yakin Sharq hamda MDH mamlakatlari bozorlariga chiqish uchun imkon beradi. O‘zbekistonda barcha turdagi transport vositalarining respublikadan tashqariga chiqish uchun keng yo‘llar tarmog‘i yaratilgan. O‘zbekiston temir yo‘llar va avtomobillar tarmog‘i eng zich joylashgani bilan Markaziy Osiyoda yuqori o‘rinda turadi. Respublika g‘arbdan sharqqa, janubdan shimolga olib boruvchi yo‘llarda eksport-import yuklarini manzilga yetkazishda 10 ta transport karidori va tranzit yo‘nalishidan foydalaniladi. Yo‘llar tarmog‘i O‘zbekistonning barcha hududlarida tabiiy resurslar, qazilma boyliklardan kompleks foydalanish, xalq xo‘jaligini hamma joyda yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Qamchik davonida tonnel qurilishi yangi avtomobil yo‘llari qurish va rekonstruksiya qilish orqali bugun O‘zbekistonning barcha viloyatlari va tumanlari ishonchli transport tarmog‘i bilan ulangan va bu respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga yordam beryotir.

Zamonaviy bozor infrastrukturasi tarmog‘i. O‘zbekistonda mustaqillikning birinchi yillaridayoq tovar-xom ashyo birjasi, respublika

ko‘chmas mulk fond birjasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar respublika palatasi, biznes fond, respublika «Madad» sug‘urta agentligi, tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi «Tadbirkorbank», dehqonlar uchun «Paxtabank», «Zaminbank» tashkil etilgan edi. Ular bilan bir qatorda ko‘chmas mulk va investitsiyalar bo‘yicha Agentlik, boshqalar faoliyat ko‘rsata boshladi. Barcha tijorat banklari zamonaviy texnika bilan jihozlangan, kompyuterlar bilan ta’minlangan, yagona aloqa sistemasi bilan birlashtirilgan va ishonchli himoya vositalari bilan muhofaza qilingan. O‘zbekistonni iqtisodiy hamkorlari bo‘lgan mamlakatlar yetakchi banklari bilan korrespondentlik munosabatlari o‘rnatilgan.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida telekommunikatsiya va axborot texnologiyasi sektori jadal taraqqiy eta boshladi. Respublikada kommunikatsiyali aloqa tizimi keng yaratilgan. Bu mamlakatimizning istalgan nuqtasi bilan tezkor bag‘lanish imkonini beradi. Bugungi kunda respublika shaharlarini telekommunikatsiya raqamli tarmog‘i bilan qamrab olish darajasi 86 % dan oshdi.

Turistik potensiali. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa tarixiy shaharlar, qadimiy madaniy, me’morchilik obidalari bilan O‘zbekiston butun dunyoga tanilgan. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasi yaratilgan va bu kelajakda sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekiston turistik infratuzilmasi har yili 1,5 mln. dan ortiq turistlarga xizmat ko‘rsatish imkoniga ega.

5.2. Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli

Sanab o‘tilgan barcha turdagi resurslar xorijiy investorlar uchun faoliyat sohasini tanlashiga imkoniyatlar eshigini ochadi. Mustaqillik yillarida jalb qilingan investitsiyalar hajmi 14 mlrd. dollardan ortiq bo‘lsada, O‘zbekiston bozorlarining investitsion sig‘imida bir necha marta ko‘p sur’atlar qo‘lga kiritildi.

Keyingi yillarda xorijiy investitsiyalar bilan birga korxonalar faoliyati sohalari tuzilishi ham o‘zgarmoqda. Hozirgi vaqtda 80% qo‘shma korxona ishlab chiqarish sohasida band. Bunda qo‘shma faoliyat bo‘yicha xorijiy hamkorlik bo‘lib, «Bursel» (Turkiya), «Marubenti» (Yaponiya), BRI (AQSH), «Goldteks», «Vimateks», «Djaminolla» (Italiya, to‘qimachilik va ipakchilik sanoati), «Knauf» (Germaniya), «Semar Interneshnl» (Italiya, qurilish materiallari), «Bi Es Ay Industriz Ink», «ABB Lummus global»,

«Beyker xyuz» (AQSH), «Lukoyl», «Gazprom», «Nuritex» «Dimm Bill Donn» (Rossiya), «Safregaz» (uglevodorod qazib olish va razvedka, Fransiya), «Nyumond Mayning» (AQSH), «Okus» (Buyuk Britaniya), «Multipleks» (Avstraliya), «Beytman» (Isroil, oltinkon qidiruv), «Lyuftganza» (Germaniya havo kemalari ta'miri), «Nestle» (Shveysariya), «Manzini» (Italiya, oziq-ovqat sanoati), «Keys Nyu Xolland» (AQSH, mashinasozlik) va boshqa kompaniyalar hisoblanadi.

2003 yilda investitsiya doirasida 2 mlrd. dollar hajmida loyihalar amalga oshirildi, ularning 80 % to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va loyihalarni shartli moliyalashtirishga jalb etilgan mablag‘larga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda ko‘p ukladli iqtisodiyot yaratilishi ko‘p jihatdan davlat mulkini bosqichma-bosqich xususiylashtirishga imkon berdi. Natijada keyingi 10 yilda 130 ming davlat korxonalari mulkchilik shakllarini o‘zgartirdilar. Mulkda davlat monopoliyasiga barham berish «Xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish to‘g‘risida» gi qonunda o‘z aksini topdi. Nodavlat korxonalarini keyingi shakllantirish masalalari «Xususiy va kichik tadbirkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida» gi qonunda belgilab qo‘yildi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning strategik muhim sohalarida yirik loyihalar amalga oshirildi. «Sho‘rtan» gazkondensati konida kompressor stansiyasi qurildi. «Shimoliy o‘rtabuloq» konida yangi quvvat ishga tushirildi. Farg‘onada «Azot» kimyo zavodida yangi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. «Murintov» karerida tog‘ ishlarini tezlashtirish loyihasi, ko‘mir sanoatini texnik qurollantirish birinchi bosqichi, Samarqandda, «Prezident Otel» qurilish nihoyasiga yetkazildi. Toshkentda 4 ta mehmonxona kompleks rekonstruksiya qilinib, ishga tushirildi. «o‘zDEU avto» zavodida yangi modeldagi avtomobil ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Qo‘qon superfosfat zavodi rekonstruksiyasi to‘gallandi. «Surxontekstil» qo‘shma korxonasi tashkil etildi. Tayyor ipak buyumlar va ipak ip ishlab chiqarish bo‘yicha «Velaysilk» ko‘shma korxonasi, «Ishonch» AJ qayta texnik jihozlandi. «Besteks», «Baliqchi» va «Oyim Tekstil» qo‘shma korxonalarida paxtadan gazlama va ip yigirish ishlab chiqarish yangi quvvatlari ishga tushirildi. 2005 yilda lokalizatsiya dasturi doirasida 158 ta loyiha amalga oshirildi, 145 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish lokalizatsiyalashtirildi.

5.3. O‘zbekiston Respublikasida investitsion muhit

O‘zbekistonda xorijiy investorlar va investitsiyalarga teng huquqli sharoit yaratilgan. Ularning doimiy ravishda to‘lik xavfsizligi himoya qilinmoqda. Xorijiy investitsiyalar uchun huquqiy rejim O‘zbekiston yuridik va jismoniy shaxslari amalga oshirilayotgan investitsiyalar huquqiy rejimnikidan kam bo‘lmasligi kerak. Ular asosiylaridan biri shuki, huquqiy rejim xorijiy investorlarni mamlakat qonunchiligida o‘zgarishlar ro‘y berganda ham zarar ko‘rmasligini kafolatlaydi va huquqini himoya qiladi. Buning ma’nosi shuki, qonunchilik aktlari o‘zgargan taqdirda ham xorijiy investorlarni manfaatlariga zarar yetishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Investitsiya amalga kirgan momentdan boshlab, shartlarga 10 yil davomida o‘sha vaqtdagi qonun saqlanib qoladi. Xorijiy investor agar yangi qonun uning shartlarini bajarilishiga monelik qilmasa, sarmoyasini ko‘payishiga yordam bersa uni qo‘llanish huquqiga ega.

Xorijiy investorlar uchun qulay rejim qonunlarda va me’yoriy-huquqiy hujjatlar tartibida mustahkamlab qo‘yilgan. O‘zbekistonda investitsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun taraqqiy etgan institututsional infratuzilma yaratilgan. Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investitsiyalar Deportamenti, O‘zbekiston Prizidenti islohatlar va investitsiyalar bo‘yicha Mahkamalararo kengash uning bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 2 maydagi 205-son «To‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini huquqiy himoya qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi quyidagi huquqlar berilgan:

jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarni asoslangani va xorijiy investitsiyalar bilan korxonalarni zarur xo‘jjatlar orqali nechog‘lik ma’suliyat bilan tan olishganligini o‘rganish, jumladan, jinoiy materiallar, xo‘jalik, ma’muriy va fuqarolik ishlari;

aniqlangan qonunchilik buzilishlari buzilish sabablari va ularni keltirib chiqargan sharoitni bartaraf etish yuzasidan vazirliklar rahbarlariga, muassasa va nazorat qiluvchi organlar, shuningdek mahalliy hokimiyat organlari va boshqaruvlariga belgilangan muddatda albatta bajarish sharti bilan taqdim etadi;

xorijiy investorlarning qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilishi faktlari aniqlanganda tegishli organlar oldiga aybdor mansabdor shaxslar javobgarlika tortish shuningdek adliya organlari qonuniy talablarini bajarmagan mansabdor shaxslar masalasini qo‘ydi;

xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar huquqlarini buzgan mahalliy hokimiyat organlari va boshqaruvlari, nazorat organlari qarorlari, harakatlarini to‘xtatish;

xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilgan hollarda davlat poshlinasi to‘lamasdan jinoiy, fuqarolik, xo‘jalik va ma’muriy ishlar bo‘yicha sudlarga taklif bilan murojat qilish;

xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar qonuniy manfaatlari va huquqlari buzilganligi haqida murojaat qilinganda tekshiruvga tegishli mutaxassislarni jalb etish;

Shu bilan birga Adliya vazirligi tarkibida xorijiy investitsiyali korxonalar va xorijiy investorlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha Boshqarma tashkil qilindi.

Xorijiy investorlar bilan yaqin aloqada bo‘lish, ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekistonda ixtisoslashgan tashkilotlar tarmog‘i ishlab turibdi: Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, «o‘zbekinvest» eksport–import milliy sug‘urta kompaniyasi shtabi Londonda bo‘lgan siyosiy tavakalchilikni sug‘urta qilish bo‘yicha «o‘zbekinvest Interneshnl» qo‘shma kompaniyasi kabilar ishlab turibdi, yirik ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun lizing kompaniyasi tuzilgan xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YEBRR), «Maloy Benk Berkard» (Malayziya), va O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki uning ta’sischilaridan.

O‘zbekistonda xorijiy investorlar bo‘lishi mumkin:

xorij davlatlari, xorij davlatlarining ma’muriy yoki hududiy organlari;

xalqaro tashkilotlar, bitimlar yoki shartnomalar bilan davlatlararo tashkil etilgan xalqaro ommaviy huquq sub’ektlari;

yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar qonunchilik aktlariga muvofiq tashkil qilingan va faoliyat yuritayotgan har qanday shirkatlar, tashkilot yoki assotsiatsiya;

xorijiy davlatlar fuqarosi bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan holda chet elda yashayotgan jismoniy shaxslar;

xorijiy investorlarga har bir konkret investitsiyalashda investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida himoyalash choralari kafolatlanadi;

turg‘un iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi mamlakat iqtisodiyoti tarkibida progressiv o‘zgarishlar, afzal sohalar;

respublikaning eksport quvvatini mustahkamlash va kengaytirishga, uning jahon xo‘jaligi integratsiyasida galdagi ustun loyihalarini ta’minlash;

xususiy tabirkorlik va kichik biznes sohasida xom ashyo va materiallarni qayta ishlashga, aholi bandligini ta'minlash, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmatlarga qaratilgan loyihalar;

O‘zbekiston investitsion qonunchiligida tarkibiy qism bo‘lib, respublikani xalqaro shartnomalarga konvensiyalarga va bitimlarga qo‘shilishi haqidagi muhim xo‘jjatlar hisoblanadi. Ular tarkibiga kiradi:

O‘zbekiston va YEI hamda unga a'zo davlatlar o‘rtasida hamkorlik va sherikchilik to‘g‘risidagi kelishuv (1996 y); investitsiyalarni o‘zaro himoya qilish va rag‘batlantirish haqida davlatlararo kelishuv. Bu hamkorlik va sherikchilikda ikki tomonlama soliqqa tutilishni oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan, chet el investitsiya bilan korxona yo uning muassisligida, yo xorijlik investorning ishtiroki ulushi (pay, aksiya) natijasida tashkil etilishi mumkin.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalariga sharoit yaratishda ko‘zda tutiladi:

- teng huquqli sherikchilik;
- o‘zaro foydali;
- umumiy maqsadga erishish uchun moliyaviy va mehnat, material resurslarni birlashtirish;
- sherikka o‘z mamlakatida samarali iqtisodiy faoliyat yuritishda ko‘maklashish.

5.4. Xorijiy investitsiyalar bilan korxonalar o‘sish dinamikasi

Mamlakatimiz iqtisodiy qudratini oshirish va mustahkamlashda iqtisodiyotga chet el investitsiyalarining jalb etish muhim iqtisodiy omillardan hisoblanadi. Shuning uchun chet investitsiyalari hajmi yil sayin oshib borayapti. 2004 yilda O‘zbekistonda umumiy 3090 korxona chet el investitsiyasi bilan ro‘yxatga olingan bo‘lsa, ulardan 2497 tasi qo‘shma korxonalardir.

Faqatgina 2003 yilda 262 ta yangi korxona ro‘yxatdan o‘tdi, bu 2002 yilga nisbatan 126 % ni tashkil qiladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarining amaldagi soni 6,5 % o‘sishi bilan birga, ular faoliyati tuzilishi ham o‘zgardi: tijorat va savdo-vositachilik faoliyati sohasida ulush qisqardi va moddiy ishlab chiqarish sohasida ulush ko‘paydi. Chet el investitsiyasi bilan ishlab turgan korxonaning 1307 tasi (59,2 %) sanoatda faoliyat ko‘rsatayapti. Ulardan 21 % iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan shug‘ullanayapti.

Agar 1995 yilda ishlab chiqarish sohasida chet el investitsiyasi bilan 308 korxona band bo‘lsa, 2003 yil yakunlariga ko‘ra, chet el investitsiyasi bilan ishlayotgan ishlab chiqarish korxonalari soni 1553 taga yetdi.

Ular asosan mashinasozlik va metallni qayta ishlash, avtomabilsozlik, shuningdek oziq-ovqat, yangi sanoat, mahalliy resurslarni qayta ishlovchi sahalarga jalb etilmoqda.

Chet el investitsiyasi bilan korxonalar tashqi savdo oboroti doimiy ravishda o‘sib bormoqda va 2003 yilda u 24 % ga o‘sdi. Chet el investitsiyalari mahsulotlari eksporti (ishlar, xizmatlar) respublika eksporti hajmida 15,1 % ni tashkil etdi. Butun chet el investitsiyasi eksport hajmida: oziq-ovqat – 31,2 %, kimyoviy mahsulotlar – 41,4 %, energiya tashuvchilar – 46,9%, mashina va uskunalar – 50 %, yengil sanoat mahsulotlari – 414,2 ni tashkil etdi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda jahonning 80 mamlakati vakillari investorlar hisoblanadi. Qo‘shma korxonalar tashkil etishda ko‘proq AQSH faollik ko‘rsatayapti (434), Turkiya (244), Germaniya (131), Buyuk Britaniya (144), Janubiy Koreya (98), Italiya (33), MDH mamlakatlarida – Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston. Xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan yangi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar orasida 100 % li chet el kapitali bilan ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar ulushi o‘sdi. Bu ularning umumiy sonida 1/5 ni tashkil qiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tashqi savdo aloqalarining ahamiyati va rolini harakterlang.
2. O‘zbekiston respublikasi tashqi iqtisodiy vazirligi qachon tashkil etilgan?
3. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqlari bo‘yicha Agentligi qachon tuzilgan?
4. Tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha Agentlik oldiga qanday vazifalar quyilgan?
5. «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risi»gi qonun yangi tahrirda qachon qabul qilingan?
6. Iqtisodiyotning bu sohasi me’yoriy-huquqiy bazasini shakllantirishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qanday qonunlar qabul qilingan?

7. O‘zbekiston jahonning nechta mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o‘rnatgan?
8. Agentlik qaysi yo‘nalishlar bo‘yicha aloqani amalga oshiradi?
9. Mustaqillik yillarida respublikaning umumiy tashqi savdo hajmi necha marta ko‘paydi?
10. Respublikada qaysi yildan boshlab tashqi savdo oborotida ijobiy saldo ta’minlanayapti?
11. 1990-2003 yillarda respublika eksportida xom ashyo resurslari ulushi necha protsentga qisqardi?
12. Mamlakat eksporti nomenkulaturasi qaysi tovarlar bilan to‘ldiriladi?
13. Oziq-ovqat tovarlari importi necha protsentga qisqardi?
14. Yangi uskunalar, yangi texnika va texnologiyalar sotib olish necha protsentga o‘sdi?
15. O‘zbekiston tashqi savdo oborotida YEI mamlakatlari necha protsentni egallaydi?
16. Respublika tashqi savdosida qaysi mamlakatlar O‘zbekistonning asosiy sheriklari hisoblanadi?

VI mavzu. XALQARO VALYUTA-KREDIT MUNOSABATLARI

6.1. Xalqaro valyuta tizimining tuzilishi va mazmun mohiyati.
6.2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari.
6.3. Xalqaro valyuta va moliya-krediti bozorlari.

6.1. Xalqaro valyuta tizimining tuzilishi va mazmun mohiyati.

XX asrning o‘rtalarida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va valyuta munosabatlari taraqqiyotni haraktga keltiruvchi yangi kuchga aylandi. Umumiy bozor va ochiq iqtisodiyot yo‘nalishiga keng yo‘l ochish uchun savdo ayirboshlashni jadallashtirish, xalqaro moliyaviy tizimini rivojlantirish, yangi valyuta bozorlarini tashkil qilish va turli mamlakatlar o‘rtasida valyuta-pul munosabatlarini kengaytirish shartlarini amalga oshirish lozimligini ko‘rsatdi.

Mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarning turli-tuman shakllarida, ya'ni tovarlar va xizmatalar bilan savdo-sotiq qilish, ssuda sarmoyasi va investitsiyalarning harakati, ishlab chiqarish va fan-texnika borasidagi hamkorlik, ishchi kuchlarining ko'chishi (migratsiyasi) va xalqaro turizm-bularning hammasi valyuta munosabatlarni yuzaga keltiradi.

Valyuta munosabatlari milliy hamda xalqaro darajada amalga oshiriladi. Milliy darajadagi munosabat milliy valyuta tizimi (MVT)ni o'z ichiga qamrab oladi. **Milliy valyuta tizimi milliy valyutani chet el valyutasiga almashtirish shu bilan birga almashtirish bilan bog'liq bo'lmagan, chet el valyutasiga doir boshqa operatsiyalarni tartibga soluvchi qonuniy mustahkamlangan tizim hisoblanadi.** MVT ning o'ziga xos xususiyatlari ichki iqtisodiy taraqqiyotga erishish va tashqi iqtisodiy aloqalarda ikki mamlakat munosabatlarini barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy valyuta tizimi qo'yidagi ko'rinishlarda o'z aksini topadi:

- milliy valyuta birligi;
- oltin valyuta rezervlari tuzilmasi;
- milliy valyuta va valyuta kursi mexanizmning tengligi;
- valyutalarni avvalgi holatiga qaytarishga sharoit yaratish;
- naqd va po'l o'tkazish yo'li bilan valyutaga nisbatan muammolarni cheklash;
- mamlakatlar o'rtasida tashqi iqtisodiy hisob-kitoblarda tartibni saqlash va boshqalar.

Moliyaviy aloqalarda milliy valyuta tizimi valyuta kurslari va ularning tengligi bilan namoyon bo'ladi. **Valyuta kursi** – bir mamlakatning boshqa mamlakat pul birliklarida ifolangan pul birligi narxi.

Paritet-bu valyuta kursining asosi hisoblangan nisbat. U valyutaning oltin rezervlari tuzilmasining asosini ham belgilaydi.

6.2. Xalqaro valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari

Xalqaro valyuta tizimi (XVT) xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishga doir davlataro tuzilgan tashkilotdir. U mamlakatlararo barcha tashqi iqtisodiy aloqallarning rivojlanishi jarayonida shakllanadi.

Xalqaro valyuta tizimining asosiy elementlari quyidagilardir:

- milliy va jamoa valyuta rezervlari birligi;
- xalqaro likvidli aktivlarning tuzilmasi va xususiyati.
- valyuta tengligi va kursi mexanizmi;

- valyutaning dastlabki holatiga qaytarishga sharoit yaratish;
- xalqaro hisob-kitob qilish shakli;
- xalqaro valyuta bozori va Xalqaro oltin bozori rejimi;
- Xalqaro valyuta fondi (XVF) va xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) singari moliyaviy tashkilotlarda valyuta – pul munosabatlarini boshqarish.

Xalqaro valyuta tizimining asosiy ishi Xalqaro hisob-kitob va valyuta bozorida iqtisodiy o‘suvchi omillarni doim barqaror ushlash uchun inflyatsiya yuz bermasligi, tashqi iqtisodiy almashinuv va pul muammolarini doim tartibga solishni boshqarishdan iborat. XVT savdo borasida imkoniyatlarni kengaytirish va aksincha xalqaro iqtisodiy munosabatlarni cheklash mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro valyuta tizimi o‘suvchi va rivojlanuvchi tarmoq. U doim almashib va o‘zgarib turadi. XVT evolyutsiyasi ko‘proq g‘arb mamlakatlari iqtisodiyotida yuz berganki, okibat natijada dunyo xo‘jaligi pul munosabatlariga bu hol o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Xalqaro valyuta tizimi o‘z taraqqiyotida to‘rt bosqichdagi tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan.

Birinchi bosqich oltin andoza tizimi bo‘lib, u XIX asr oxirlarida amalda bo‘lgan. Bu davrda mamlakatlar o‘z ichki bozorlarida savdo sotiqni oltinlar orqali erkin yuritishgan. Oltin andoza tizimining asosiy alomatlari quyidagilar deb belgilanadi:

- oltin orqali valyuta birligini taqsimlash;
- har qanday pulni oltinga almashtirish va boshqa davlat chegarasida ham bu ishni bajarish;
- oltin muammalasi orqali o‘z millati qadrini oshirish;

Oltin andoza tizimi xalqaro hisob-kitob mexnazmida mustahkam kurs joriy qildi, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Negaki, oltinning qadri hech qachon tushmaydi. Eng e’tiborlisi aynan moliya, savdo munosabatlarida joriy etilgan bu tizim kapitalizm rivojlanishiga asosiy sabablardan bo‘ldi.

Kapitalistik ish yuritish uchun qo‘layligi-oltin andoza valyuta kurslarining ma’lum darajada barqarorligiga va uni oldindan bilib turish mumkinligiga ko‘maklashdi, bu esa xalqaro savdo rivojida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, oltin andoza mexanizmi fakat qisqa muddatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan to‘lov balansi taqchilliklari va aktivlarini o‘z-o‘zidan to‘g‘rilanishga yordam berdi. Bu holatlar kapitalizm rivojida erkin raqobatni yuzaga keltirdi va ular oltin orqali har qanday valyuta kursi tizimini boshqarilgan bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich-oltin yeviz andoza tizimi bo‘lib, u Genuez konferensiyasi qaroridan so‘ng tashkil etildi. Unga ko‘ra mavjud banknotlar endi oltinga emas, balki devizlarga ya’ni, veksel, chek, banknotlarga almashtiriladigan, ular esa kelishuvga ko‘ra oltin tengligida qabul qilinadigan bo‘ldi. Asta-sekin bu butun jahon bozorida dollar va funt sterlingni moliyaviy muomila sifatida yuzaga kelishini ta’minladi. Umuman olganda, oltin deviz andoza davrida chek va veksellar tufayli tovar aylanmalari barqaror harakatda bo‘ldi.

Uchinchi bosqich oltin valyuta andoza tizimi bo‘lib, u 1930-yillardan 50-yillargacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Endi bu davrga kelib qog‘oz pullar oltinga aylantiriladigan bo‘ldi. Valyuta kurslarining huquqiy erkin tizimi esa 1944 yilda Bretton – Vuds (AQSH) xalqaro konferensiyasida belgilanadi. Uning asosiy e’tiborli tomoni qo‘yida valyuta yuritish tartiblarida aks etdi:

mamlakatlar o‘rtasida pullik hisob-kitoblar oltin orqali bajarilishi saqlanib qoldi;

turli mamlakatlar valyuta vositalarida Amerika dollari oltin o‘rnini egallaydi;

1 troy unsiya (31,1 gr) oltin Markaziy bank orqali 1944 yilda belgilangan AQSH dollari kursi bo‘yicha 35 dollarga almashtiriladigan bo‘ldi. Bu pul oltin almashtirish operatsiyalarini davlat organi yoki har qanday fuqaro bajarishi mumkinligi belgilandi. Fakatgina bu holat 1988 yildagina barham topdi;

har bir mamlakat o‘z puli qadrini boshqa valyutalar muomalada barqaror ushlashi shartligi belgilandi. Bozor kurslarida valyuta, oltin va dollar tengligidan na u, na bu tomonga 1 % ham o‘zgarmasligi qat’iy joriy qilindi. Borib-borib dollar pul-tovar munosabatlarida o‘z mavqiyega ega bo‘ldi;

- davlatlararo valyuta munosabatlarining boshqaruvi Bretton Vuds konferensiyasida tashkil etilgan Xalqaro valyuta fondi orqali amalga oshiriladi. U valyutalarni erkin almashtiruvchi mamlakatlarni o‘z a’zoligiga oladi va valyutaga bo‘lgan mamlakat talabini qondirishga xizmat qiladi;
- Bretton-Vuds kelishuvi o‘zida Xalqaro valyuta tizimi taraqqiyotini nomoyon etadigan bo‘ldi;
- xalqaro valyuta tizimi hukumatlararo bitimlar tuzilishiga asoslardan biri bo‘ldi;

- oltin va dollar munosabatiga yakun yasab, Bretton-Vuds tizimi xalqaro savdo oboroti va rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati hamda mahsulotlari o‘sishida asosiy rol o‘ynaydi.

60-yillar oxiriga kelib tovar oboroti va sarmoya ko‘chishi ehtiyojlarining AQSH valyutasiga talabni tobora ko‘paytirilganligi Bretton-Vuds tizimi tangligi va tanazulligiga olib keldi. G‘arbiy Yevropa va Yaponiyada taraqqiyot yuksalgani ham bu tizimning yemirilishiga sabab bo‘ldi. Bu omillar oltin andozasi qoldiklariga hamda qat’iy o‘rnatilgan kurslar tizimiga so‘nggi zarba bo‘ldi. Bretton-Vuds tizimi 70-yillar boshiga kelib rasman to‘xtadi. AQSH dollarni oltinga almatirishda belgilangan narxdan voz kechdi. Natijada jahon bozorida oltinning qadri tezda yuksaldi.

1976 yilda XVFning Kingston (Yamayka) da bo‘lgan yig‘ilishi **yangi dunyo valyuta tizimini** vujudga keltirdi. Ushbu tadbirdan keyin xalqaro valyuta mexanizmlarini joriy etish quyidagi shakllarda o‘z ifodasini topdi:

- Oltinga nisbatan erkin mahsulot deya qaraldi. Uni xohlagan mamlakat valyutaga almashtirishi mumkin. Oltinning bahosi narxlar sifatini belgilashda foydalanishi mumkinligi ham qabul qilindi.
- Maxsus o‘zlashtirish huquqi (SDR) andozasi iqtisodiy jarayonlar, aniqrog‘i valyuta munosabatlariga joriy etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad avuar va valyutalar rezervini qisqartirish bo‘ldi.
- Mamlakatlar o‘z valyutalarini xohlagan boshqa valyutalarga almashtirishi erkinlashdi. Bugungi iqtisodiyotda boshqariladigan valyuta kurslari deb atash mumkin bo‘lgan har xil valyuta tizimlari mavjud. Bir tomondan to‘lov balansining musbat yoki manfiy saldosi tarizidagi turg‘un nomutanosibligi vujudga kelmasligi uchun valyuta kurslari suzish imkoniga ega bo‘lishi lozim deb hisoblandi.

90-yillar boshida xalqaro valyuta tizimi tashkiliy tuzilmasida suzuvchi valyuta kurslari murakkab vaziyatni yuzaga keltirdi.

Birinchidan-alohida milliy valyutalarning pul almashtirishdan bahosini yuqori darajaga ko‘tarish hissi kuchaydi.

Ikkinchidan valyuta tebranishlarining keng ko‘lamda yoyilishi oqibatida xalqaro savdoda nomutanosibona valyuta kurslari tizimi bo‘yicha alohida muammoni keltirib chiqardi.

Shulardan kelib chiqib 1988 yildayok 58 ta mamlakat o‘z pullarini sherikchilik asosida bir xil valyuta shakliga o‘tishi bo‘yicha shartnoma imzolashdi. Unga ko‘ra, 39 ta mamlakat – AQSH dollari, 14 ta mamlakat Fransiya franki, 5 ta mamlakat esa boshqa valyuta rejimiga birlashishdi.

Ko‘pgina mamlakatlar o‘z valyutalarini boshqa valyuta qarzina (savat) lariga, 4 ta mamlakat esa faqat chegaralarda valyutalari birligiga kelishib olishdi. o‘z navbatida 8 mamlakat Yevropa Ittifoqi tashkil etishdi. Unga ko‘ra o‘z valyutalari qadrini barqarorlashtirish va valyuta mexanizmlari borasida hamkorlik yuzaga keltirildi. 19 ta mamlakat esa «suzuvchi» valyuta rejimli yo‘ldan ketdi, ya’ni bular, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya va Yaponiyadir.

Yamayka kelishuvi **«maxsus o‘zlashtirish huquqi» (SDR)** deb ataluvchi jamoaviy valyuta birligiga asos soldi. Aslida SDR 1969 yilda oddiy kredit vositasi sifatida tashkil etilgandi. Ammo kiyinchalik uning zimmasiga **«Xalqaro valyuta tizimi aktivlarining asosiy rezervi»** sifatida oltin va dollarning muqobilligini ta’minlashdek vazifa qo‘yildi. 70-yillar boshida siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli SDR jadallashdi. Dollar qadri tushib, oltinning narxi oshdi. 1974 yilga kelib esa «suzuvchi» valyuta kurslari mavqei oshib, endi oltin ular bilan tenglashdi. Natijada 16 ta mamlakatning valyuta qiymati bir xil bo‘ldi, ularning tashqi savdodagi tutgan o‘rni mustahkamlandi. 1981 yildan 5 ta valyuta (AQSH dollari, nemis markasi, yapon iyenasi, fransuz franki va funt-sterling) mustaqil «suzuvchi» valyuta hisoblandi.

Belgilangan almashtirish kurslari tizimi amaldagi valyutaning chet el valyutasi savatiga (korzina) nisbatan qat’iy kurs belgilash qoidasini ko‘zda tutadi. Valyuta savati hisobi uning tuzilmasi valyuta tarkibiy qismi o‘lchovi hamda valyutaning dollarga nisbatan bozordagi kursi bilan o‘lchanadi.

SDR foizlar keltiradi. Agar mamlakatning biror maqsad uchun ajratilgan pul mablag‘lari SDRdan yuqori bo‘lsa va aksincha past bo‘lsa ham bu foizi olinadi. Demak, SDR nisbiy bo‘lmasligi lozim. U XVFda unga a’zo mamlakatlar uchun kvota vazifasini bajaradi.

Bu kvotalar esa o‘z navbatida ular pulni konvertatsiya (almashish) qilish harajatlari yoki pul balanslaridagi qarzlarini uzishlari uchun ajratiladi. Hozirda uning bu ulushi kapitalistik dunyo valyuta rezervida salkam 6 % ni tashkil etadi.

Ko‘pgina iqtisodchilarning fikricha, bu SDR foiz keltirish bilan birga barcha ayrim mamlakatlar uchun kam foizli kredit vazifasini ham o‘taydi.

Valyuta soveti (ittifoki) tarzida e’tirof etiladigan yana bir jamoaviy valyuta rezervi mavjud. U –**EKYudir**. EKYU Yevropadagi 12 ta mamlakat valyutasidan tashkil topgan. Muhimi, bu mamlakatlarning aksariyati YEI ga a’zo davlatlardir. Valyuta savatidan unga a’zo barcha mamlakatlar Yevropa Ittifoqi hududida milliy mahsulotlarni ko‘paytirish

va Ittifok ichida eksport qilish uchun teng huquq bilan foydalanib kelingan. Hozirda 1 EKYU 1,3 dollarga tenglashgan. EKYU oltin va dollar almashinuvida ham yuqori qiymati ega bo‘lgan.

EKYuning tashkil etilishi YEIga a’zo davlatlarning valyuta kurslari barqarorligini ta’minladi. Bir paytlar oltin almashtirishda yagona valyuta birligi hisoblangan AQSH dollaridan ham qadrli bo‘la boshladi, endi unga oltin almashtiradigan davlatlar ham paydo bo‘ldi.

Bu yerda boshqa bir sabablar paydo bo‘ldi. Endi EKYU Yevropa valyuta tizimini AQSH dollari «mustamlakasidan ozod» qilishi kerak edi. Hamda keng faoliyat turiga tarqalishi lozim edi. Shu bois EKYU nafaqat alohida valyuta operatsiyalari uchun balki xususiy sektori ham muammolaga keng tadbiq etildi. Natijada tezda valyuta birligi sifatida qo‘shma jamg‘armalar va xalqaro valyuta – kreditli moliya tashkilotlarida, shuningdek, markaziy banklarda davlatlararo hisob-kitob vositasiga aylandi.

Tijoratdagi EKYU yevro valyuta sifatida zayom obligatsiyalari, bank depozitlari va kreditlar vazifasini o‘tay boshladi. 500 dan ziyod yirik xalqaro tashkilotlarda EKYU kredit oldi-berdisida muomalada bo‘ldi. 70-yillar o‘rtalarida yagona valyuta ittifokini tashkil etish uchun faollik yo‘li izlangandi. Yevropaning ilg‘or davlatlari nafaqat valyuta birligini, balki muqobil tarzda AQSH dollarini ham faollashtirishga intilgandi. Faqat bu valyutaning integratsiyalashuvdagi va muammoladagi nazoratini shu ilg‘or davlatlar o‘z ko‘zlarida saqlashni istashgandi.

Jahon savdosida bunday murakkab vaziyatlar paydo bo‘lishi 1979 yil martida **Yevropa valyuta tizimi** (YEVT) ning tarkib topishiga olib keldi. YEVT – bu xalqaro (hududiy) valyuta tizimi, uni tashkil etishdan maqsad-almashtirish kurslarining o‘zaro tebranishlari ko‘lamini cheklashdan iborat edi. YEVT – jahon valyuta tizimida asosiy rol o‘ynovchi tarkibiy qism bo‘lib qoldi.

1972 yilda Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) u yoki bu darajada belgilangan valyuta «suzishi» yoki boshqariluvchi valyuta kursi tartibini qisqartirish taraddudiga tushdi. Markaziy banklar orqali endi hamjamiyatning o‘z a’zolariga tegishli valyutalar bozorilarda muammolada bo‘lishi shart edi. Bunday maqsad oqibatida **«Yevropa valyuta iloni»** paydo bo‘ldi. Shundan keyin YEIHga a’zo mamlakatlar valyuta kursi har yili 1,125 % dan 4% gacha o‘sa boshladi. «Ilon» grafik tasviri YEIHga a’zo 6 ta mamlakatda (GFR, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg) ayniksa o‘z kuchini ko‘rsatdi.

«Valyuta iloni» 1979 yilda V.Jikard Eston va G. Shmidtlar tashabbusi bilan Yevropa valyuta tizimi tashkil etilishi bilan yakun topdi. YEVT quyidagi uchta asosiy elementni o‘z ichiga qamrab oladi:

EKYU – Yevropa valyuta tizimining asosiy valyuta birligi.

Valyuta kursi mexanizmi sifatida boshqa hududlarni ham egallash. Yevropa valyuta tizimida kator markaziy banklarda kredit davlatlararo hududiy valyuta boshqaruvchiligi yo‘lidan borish.

Barqaror valyuta kurslari uchun kreditlash mexanizmi.

Bugun Yevropa valyuta tizimi oldida quyidagi vazifalarni amalga oshirish turibdi:

- EI ichkarisida valyuta barqarorligini yuqori darajada ushlab turish;
- barqarorlik shart-sharoitlarida strategiya o‘sishning asosiy elementi sifatida turish;
- iqtisodiy taraqqiyot jarayonida aloqaladorlikni kuchaytirish va Yevropa rivojiga yangi turtki qo‘shish;
- xalqaro iqtisodiy va valyuta munosabatlarida barqarorlik ta’sirini kuchaytirish.

Yevropa valyuta tizimi mexanizmining amalga oshirilishi joriy etilgan EKYU va uning barqaror narxi, ammmo, YEIga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi valyuta kurslarining boshqariluviga qaratilgan. Shu jihatdan YEVT valyuta rezervlarini umumiy ixtiyorlikka imkon beradi. Tizimning tashkil etilishi YEIda ichki kreditning ta’minlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yevropa valyuta tizimi taraqqiyoti va harakati jarayonida **«Delor plani»** alohida e’tiborga ega. 1989 yil J.Delor ya’ni, YEI ning atoqli arbobi Yevropa ko‘shma valyuta rejasini amalga oshirishida uchta muhim shartni bajarilishini maqsad qilib, qo‘ydi. Ular quyidagilar:

EI mamlakatlarida muvofiqlashgan, iqtisodiyot va valyuta siyosatini amalga oshirish.

EI markaziy bankini ta’sis etish.

milliy valyutani yagona YEI valyutasiga almashtirish.

1990 yilda Yevropa valyuta tizimi Angliya, Ispaniya, Portugaliya qo‘shilishi natijasida kengaydi. 1991 yilda yagona Yevropa makonini tashkil etish bo‘yicha Maastrixt shartnomasi imzolandi. Bu shartnomani tuzishdan YEI a’zolarining bosh hukumati bitta maqsadni – **valyuta ittifoqi** tashkil etishni ko‘zlaydi.

Umuman olganda G‘arbiy–Yevropa valyutasi, Yevropa valyuta tizimi qariyb 15 yil ushbu mamlakatlar iqtisodiy aloqallarida muvaffaqiyatli faoliyatda bo‘ldi. 1992 yil kuziga kelib bu tizim barbod

bo‘la boshladi. YEVT dan o‘sha yilning sentyabrida ingliz funt-sterlingi chiqib ketdi, ispan pesetasi va portugal eskudosi devalvatsiya (pul birligi kursining keskin pasayishi) ga uchraydi.

90-yil o‘rtalarida YEIda yagona valyuta ittifoqi tuzishga imkon tug‘ildi, degandek. Tuzilgan Maastrixt shartnomasidagi talablar amalga oshishi, milliy valyuta birliklarining davlatdan-davlatga o‘tish munosabatlariga ko‘nikish uchun ma’lum vaqt o‘tishi albatta zarur edi. Bu o‘sha yilning oxiriga tugallanib, valyuta ittifoqiga shu mahalda kirilishi kerak edi. Ammo, YEI ning rejasi to‘liq amalga oshmadi. Valyuta ittifoqining tashkil etilishiga quyidagi uchta bosqichlar sabab bo‘ldi.

Birinchi bosqich 1998 yilda boshlandi. Shartnomaga ko‘ra ittifoqchilar xo‘jjatlardagi mavjud mezonlarga javob beruvchi shart-sharoitlarni yaratishlari lozim edi. Maastrixt shartnomasida bu mezonlar quyidagilarni tashkil etardi: inflyatsiya darajasini barqaror ushlash, davlat byudjetida yetishmovchilikni (3% dan oshmagan holda) yuzaga keltirmaslik. Stavkalar o‘lchovi va milliy valyutaning bir xil qadrini saqlash. o‘sha paytda bu talablarni bajarishga faqat Germaniya va Lyuksemburg, shuningdek Avstriya va Irlandiya davlatlarigina qodir bo‘ldi xolos. 1998 yilning oxiriga kelib Markaziy Yevropa bankini tashkil etishga, markaziy bankning Yevropa tizimi faoliyatini esa shu bank orqali davom ettirishga kirishdi.

Ikkinchi bosqich (1999-2001 y.y.) tashkil etilgan Markaziy Yevropa bankining birinchi qadami valyuta operatsiyalarini yagona valyuta orqali almashtirishni amaliyotga tadbiq etdi. Moliyaviy tashkilotlar va tijorat banklari ham valyuta bozorlarida almashtirish ishlarini shu shaklga o‘tkazishdi.

Ikkinchi qadami esa (2002-2003 y.y.) milliy monet va kupyurlarni yagona **YEVRO (**Yevropa) pul birligi belgisida almashtirishdan boshladi. Bu yagona pul birligiga 2002 yil yanvardan kirishildi. Unga a’zo bo‘luvchi mamlakatlar huquqlari qayd etib o‘tildi. Yagona pul muomalasiga o‘tishning birinchi bosqichida 6 oygacha ham milliy valyuta, ham Yevro savdo munosabatlarida ishlatildi. Bu davrdan keyin YEVRO o‘z o‘rnini mustahkamlab, Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida to‘liq muomalada bo‘lishga erishdi.

Uchinchi bosqich. Ilgari bunday shaxsiy tashabbus yuz bermagan bo‘lsa, endi Yevropa valyuta iqtisodiy ittifoqiga a’zo davlatlarning banklardagi barcha hisob-raqamlaridagi pullar Yevropa valyutasiga konvertatsiya qilinadigan bo‘ldi.

Yevropa valyuta birligi, iqtisodchilar farazicha, dunyoda pul bilan bog‘liq yetakchi imkoniyatlarni o‘z domiga oladi. U YEI ni barqarorligini ta’minlovchi asosiy manba, shuningdek inflyatsiyaga qarshi kurashni yengillashtiruvchi kuch, hamda jahon bozorida YEI davlatlarining raqobatbardosh mahsulot va xizmatlari bilan AQSH va Yaponiya mahsulotlarini ancha cheklanishini ta’minlashdan iborat edi.

EVROning paydo bo‘lishi qimmatli qog‘ozlarning ham qadrini anchayin oshirdi. Hozirgi kunda Yevropa moliya bozorida dunyo investitsiyasi bir-biridan tarqoq bo‘lgan holatni yuzaga keltirgan. Bunday vaziyat YEI ning real iqtisodiyoti va moliya qurdratiga soya solmay qolmaydi albatta. Negaki dunyoning nufuzli investorlari barcha mamlakatdagi singari YEI ham birgina valyuta orqali o‘z investitsiyalarini kiritish va hisob-kitob qilishni ma’qul ko‘rishadi.

EVROning joriy etilishi jahon valyuta bozorida birdan o‘z mavqiyeni tiklash lozim edi. Asosiy maqsad bozorda yagona lider bo‘lib turgan dollarga teng ravishda raqobatlasha oladigan pul birligini bozorga kiritish va dollarning valyuta bozoridagi o‘rnini egallashdir. Ma’lum vaqt o‘tib bu amalda o‘z isbotini topishi, jahon valyuta bozorida YEVRO ning qiymati dollardan bir necha hissasigacha ortishi kutilgandi. Endi dunyo bozorida Yevropa valyutasi ham dollar, hammasi bilan raqobatlasha olish quvvatiga ega bo‘ldi. Bunday valyuta holati yuzaga kelishidan banklar ham katta manfaat ko‘ra boshladi. Ilgari ular investitsiya kiritilishi jarayoni uchun valyutani, masalan dollarni bozordan foizi bilan olishayotgan bo‘lishsa, endilikda YEVRO orqali har qanday investitsion harakat yoki oldi-berdi uchun shu valyutadan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Yangi pul birligi joriy etilishi tufayli YEIdagi bir mamlakat bir yilda 40-50 mlrd. dollar ortiqcha harajatdan qutuldi. Masalan, bir fransuz fuqarosi 10-12 ta g‘arbiy Yevropa mamlakatlariga safarga chiqquday bo‘lsa, u sarf etishi lozim bo‘lgan 2 ming dollarning teng yarmi pullarni almashtirish harajatlariga sarf etilar edi.

Endi Yevropada yagona pul birligi–EVRO paydo bo‘lgani ayrim moliya tashkilotlariga, masalan birja maklerlarining kam foyda ko‘rishlariga olib keldi. Negaki, dollar va milliy pullar bilan bajariladigan operatsiyalar davomida ular salmoqli iqtisodiy foyda ko‘rardilar.

Xullas, **uchinchi bosqich** amalga oshirilgani tufayli Yevropa valyuta iqtisodiy itifoqiga a’zo davlatlarning banklardagi barcha hisob raqamlaridagi pullar Yevropa valyutasiga konvertatsiya qilindi. Yevropa valyuta biriligi dunyoda pul bilan bog‘liq yetakchi imkoniyatlarni o‘z domiga oldi.U YEI mamlakatlari iqtisodiyotining barqarorligini

ta’minlovchi asosiy manba bo‘lib qoldi. Shuningdek, pul inflyatsiyasiga qarshi kurashni yengillatuvchi kuch hamda jahon bozorida YEI davlatlarining raqobatbardosh mahsulot va xizmatlari bilan AQSH va Yaponiya mahsulotlarini ancha cheklashini ta’min etdi.

EVRO joriy etilishi bilanoq jahon valyuta bozorida o‘z mavqiyega tezda erishdi. Dunyo bozorida yagona lider bo‘lib turgan dollarga teng ravishda raqobatlasha oladigan pulni bozorga kiritdi. Hatto dollar o‘rnini egallaydi. Bugungi kelib YEVRO ning qiymati jahon valyuta bozorida dollardan 1,3 hissasigacha ortdi. Dunyo moliya bozorida esa Yevropa valyutasi ham dollar, ham yapon iyenasi bilan raqobatlasha olish quvvatiga ega bo‘ldi.

6.3. Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari

Xalqaro valyuta va moliya-kredit bozorlari dunyo xo‘jaligi hamda xalqaro iqtisodiy munosabatlarda asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yigirma yil ichida moliya bozori taraqqiyotida keskin burilish yili bo‘ldi. 1980 yillardan buyon yalpi ichki mahsulot (YAIM) tayyorlashga nisbatan moliyaviy aktivlar narxining o‘sishi 2,5 barobar oshdi.

Ob’ektiv munosabatlarga ega moliya bozori taraqqiyoti amaldagi kapitalning oborotini ob’ektiv qonuniyatlarga asosladi. Ayrim joyda erkin kapitalga ehtiyojni oshirgan bo‘lsa, aksincha boshqa joyda unga nisbatan talab keskin pasaydi. Jahon valyuta, moliya-kredit bozori dunyo xo‘jaligida ish yuritish darajasida bunday tafovutlarga yo‘l ochdi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar, ya’ni jahon bozori, xizmatlar ko‘rsatish, kapitallar harakati jarayonida milliy valyutalarni oldi-sotdi va boshqa valyuta bilan bog‘liq munosabatlardagi aloqalarni tenglashtirdi.

Jahon valyuta bozori, krediti va qimmatli qog‘ozlar bozorining vujudga kelishidagi dastlabki shartlar quyidagilar edi:

- mahsulot ishlab chiqarilishi uchun zarur kapital va bank ishi bir joyda to‘planishi;
- xo‘jalik aloqalarida baynalminallikni yuzaga keltirish;
- xalqaro banklar taraqqiyotini telekommunikatsiyalar bilan ta’minlash.

Valyuta bozori o‘zida nimalarni aks ettiradi?

Valyuta bozori-keng ma’noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qilib, muayyan moliya-valyuta idoralari orqali o‘zaro ta’sirida bo‘ladigan chet el investorlari bilan oldi-sotdi operatsiyalarini bajaruvchi mulkdor o‘rtasida xorij valyutasini ayirboshlovchi munosabatlarni tasvirlaydi. Milliy valyuta bozori bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda mavjud. Shu narsa aniqki, rivojlangan milliy valyuta bozorlari dunyoda yagona valyuta bozori bilan aloqalarni albatta mustahkamlaydi. o‘z navbatida yagona bozor o‘zida xalqaro, hududiy milliy (mahalliy) valyuta bozorlari faoliyatini ham aks ettiradi. Bu bozor endi valyuta operatsiyalari hajmi, xususiyati, soni va qatnashuvchilari bilan alohida ajralib turadi.

Jahon valyuta bozori faoliyatini **Jahon moliya markazi** (JMM) jamlaydi. JMM-bu kredit-moliya institutlari jamlangan banklar joyi hisoblanadi. Ular xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalarini hamda qimmatli qog‘ozlar va oltin bo‘yicha bitimlar tuzilishini amalga oshiradi. Dunyoda bunday jahon moliya markazlari London, Nyu-York, Frankfurt-na-Mayn, Parij, Syurix va Tokioda o‘z faoliyatlarini olib borishayotibdi.

Valyuta bozorlari xalqaro hisob-kitoblar va jahon valyuta bozoridagi kredit va moliya bozori yordami bilan banklarning valyuta rezervlari, shuningdek davlat va tadbirkorlarning valyutaga talabi qondirildi. Qo‘shimcha tarzda aytish mumkinki, valyuta bozori mexanizmi davlat iqtisodiyoti boshqaruvi uchun ham askotadi, uning birja, brokerlik firmalari, bank korporatsiyalar faoliyatini to‘g‘ri, mukammal tashkil etilishida ham hissasi talay.

Xalqaro moliya-kredit bozori. Xalqaro moliya-kredit munosabatlari jahon kreditlash va moliyalash bozorining imtiyozli kapital bilan ta’minlash munosabatlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro kredit bozorida mamlakatlar o‘rtasidagi pul harakatlari, qarzni tez qaytarish, uzish va foizlar to‘lovini vaqtida to‘lash bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro kredit bozori-bu bozorning imtiyozli kapital beruvchi qismi sanaladi. U o‘zida quyidagi jihatlarni aks ettiradi:

- **Jahon pul bozori**. Qiska muddatli depozit-ssuda operatsiyalarini bir kundan to bir yilgacha kredit shaklida berish;
- **Jahon kapital bozori**. U chet el kreditlarini va yevrokreditlarni o‘rta va uzoq muddatga beradi (1 yildan 15 yilgacha);

Jahon moliya bozori – bu bozor ssuda kapital beruvchi sub’ektlarning bir qismi bo‘lib, emissiyaga uchramaydigan va qimmatbaho kog‘ozlar oldi-sotdi operatsiyalarini bajarishda tezkor faoliyatiga ega bo‘lgan bozorning bir qismi. Bu bozor milliy valyutalarda Xalqaro ssuda

kapitali operatsiyalarini ham bajaradiki, bu baynalminallik jihatlarini ham rivojlantiradi.

Jahon ssuda kapitali so‘nggi o‘n yillar ichida keskin rivojlandi. U dunyo xo‘jaligida turli kompaniyalar, banklar, valyuta-kredit muassasalarini qisqa muddatli ssuda kapitallari bilan ta’minlab, iqtisodiy harakatni kuchaytirayotir. Aytish mumkinki, so‘nggi yuz yillikda dunyo xo‘jaligi taraqqiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarish sanoat rivojlanishi va xalqaro savdo faoliyati taraqqiy etgani kabi xalqaro moliya-kredit munosabatlari o‘sishiga ham katta raqobat keltirdi.

XX asrning 50-yillar oxiriga kelib xalqaro moliya-kredit bozori taraqqiyoti **yevrobozor** deb ataluvchi jahon bozoridagi ssuda kapital jamg‘armasiga ega moliyaviy tarkibni yuzaga keltirdi va uning faoliyatini avj oldirdi.

Yevrobozor – bu kredit va zayomlarni yevrovalyutalar orkali valyuta-kredit operatsiyani amalga oshiruvchi bozor makonidir.

Yevrovalyuta esa bir qator rivojlangan mamlakatlar o‘z chegarasidan tashqaridagi muomalada qarz va hisob-kitob harakatlarida, ayniqsa banklararo qarzlar va transmilliy korporatsiyalarni kreditlashda foydalaniladigan valyuta.

Yevrobozorining hukumatlararo va davlatlararo bozorlarida qatnashishga huquqi yo‘q. U bir necha mamlakatlardagi investor va korxonalar uchun ko‘proq xizmat qiladi. Yevrobozoridagi operatsiyalar davlat valyuta boshqaruvi va soliq qonunchiliklari ta’siriga tushmaydi.

Yevrobozorning faol taraqqiyoti 60-70 yillarga to‘g‘ri keladi desak adashmagan bo‘lamiz. Chunki 80-yillar va 90-yillar boshiga kelib u o‘z faoliyatini biroz o‘zgartirdi. Masalan, 80-yillar boshida qimmatli qog‘ozlar bozorida keskin taraqqiyot yuzaga keldi, natijada yevroobligatsiya, yevroaksiya, yevroveksel va moliyaviy innovatsiyalar salmog‘i ortdi.

Yevrobozorining taraqqiy etishi butun jahon ko‘lami bo‘ylab erkin moliya resurslarini amalga tadbiq etishga imkoniyat yaratdi. Shuningdek, u korxonalarni ichki bozor kapitallariga emas, balki Yevrobozorga murojat etishni taklif etdi, toki ular moliya resurslarini oqilona tarzda joylashtirsinlar.

Yevrobozorlar bugunda barcha yirik xalqaro banklar, jahondagi barcha moliyaviy markazlar va valyutani konvertatsiya qiluvchi moliya muassasalarini o‘zaro aloqalarga kirishtirgan. Yevrobozorining taraqqiy etgani yangi xalqaro moliya markazlari (Singapur, Gongkong, Quvayt, Kayman orollari)ning vujudga kelishiga omil bo‘ldi. 1982 yil dekabrda esa Nyu-Yorkda xalqaro bank xizmatlarining erkin hududi tashkil etildi. 80-

yillar oxirida vujudga kelgan yangi jahon moliya markazi endilikda butun dunyodagi Xalqaro moliya-kredit operatsiyalarining uchdan bir qismini amalga oshirishni tashkil etmoqda.

Nazorat savollari

1. Milliy valyuta tizimining asosiy xususiyatlarini ayting.
2. Valyuta kursi va paritet (tenglik) o‘zida nimalarni namoyon etadi?
3. Xalqaro valyuta tizimining alohida elementlarini ayting.
4. Xalqaro valyuta tizimining asosiy vaziflarini sanab o‘ting.
5. Xalqaro valyuta tizimining asosiy bosqichlariga baho bering.
6. Oltin standart tizimi haqida tushuncha bering.
1. Genuyez shartnomasining xalqaro hisob-kitobidagi muhim jihatlarini aytib bering.
2. Bretton-Vuds tizimining o‘ziga xos va muhim xususiyatlarini so‘zlab bering.

1. Yamayka tizimi valyuta bozorida qanday yangilik olib keldi.
2. Yevropa valyuta tizimi qachon tashkil topdi?
3. Yevropa valyuta tizimining harakterli jihatlari haqida gapiring.
4. Yevropa milliy monet va kupyuralari qachon YEVROga almashtirildi?
5. Dunyodagi eng yirik moliya markazlarini ayting.

VII mavzu. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYALAR

7.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabalari.
7.2. Iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va asosiy shakllari.
7.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
7.4. Jahondagi asosiy hududiy integratsiyalashgan uyushmalar.

7.1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va sabablari.

Zamonaviy dunyo xo‘jaligi ikki qarama-qarshi iqtisodiy tendensiyalar bilan ajralib turadi. Ularning biri-o‘sib borayotgan dunyo iqtisodiyotining bir butunligi, yiriklashuvi bo‘lsa, ikkinchisi, xolislik, ya’ni boshqalardan ajralib turadigan, dunyo iqtisodiy markazlarining vujudga kelishi, xalqaro integratsion guruhlar tashkil etuvchi alohida mamlakat va hududlarning o‘zaro ta’sirlashuvi va yaqinlashuvi bilan harakterlanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar zamonaviy dunyo iqtisodiyotining asosiy harakteristikasi bo‘lib hisoblanadi. U o‘zida dunyo xo‘jaligi baynalminallashuvining alohida, yangi bosqichini mujassam etadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar-ayni davrda xo‘jalik hayoti baynalminallashuvining oliy darajasidir. Integratsiya a’zolari bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasida yanada chuqurroq xalqaro mehnat taqsimoti vujudga keladi, mahsulotlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchlari bilan jadal almashinuv jarayonlari sodir bo‘ladi.

Integratsion birlashuv a’zolari bo‘lmish mamlakatlar o‘rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuvi va jamlashuvi jarayoni yanada tezrok kechadi. Bu esa ushbu mamlakatlar integratsion guruhlari

chegarasida yagona iqtisodiy siyosat vujudga kelishini ob'ektiv tarzda talab qiladi. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar birlashayotgan davlatlarni ishlab chiqarish jarayonlarining qayta qo'shilishi, o'zaro ta'sirlashuvi va aralashuvini taqazo etadi, keltirib chiqaradi. Integratsiyalar jarayoni to'lakonli tizimning turli bo'g'inlarini, ya'ni shaxsiy ishlab chiqarish, mahsulot va kapitalning, ishchi kuchi va texnologiya munosabatlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari o'tgan asrning 50- yillarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi va sifat o'zgarishlari, xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi va chuqurlashuvi, kapital va ishlab chiqarishning baynalminallashuv jarayonlari, sanoati rivojlangan mamlakatlarning Xalqaro iqtisodiy munosabatlari baynalminallashuviga bo'lgan harakat bilan bog'liqdir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning asosiy sabablari fan texnika taraqqiyoti (NTP) bo'lib, u moddiy, moliyaviy, mehnat kabi ahamiyatli resurslar rivojini, shuningdek, ilmiy texnikaviy sohada alohida mamlakatlarning birgalashib faoliyat yuritishlaridagi katta bozorlar yuzaga kelishini taqazo etadi. Iqtisodiy integratsiyaning bosh sabablaridan biri-**transmilliy korporatsiyalar ya'ni yirik xalqaro monopoliyalarning taraqqiyotidir.**

Davlat, monopoliya kapitali iqtisodiy integratsiya yordami bilan yangi mol-mahsulot bozori, xom-ashyo bozorini egallashni, o'z foydasini eng yuqori darajada oshirishni umid qiladi va bunda u davlat hokimiyatining qo'llab-quvvatlashiga tayandi. Iqtisodiy integratsiyaning katta ahamiyatga ega bo'lgan sababi **siyosiy omildir**. Bu omil-davlatlarning integratsiya yordamida nufuzli siyosiy obruga ega bo'lishga, dunyo hamjamiyatida yuqori mavqega ega bo'lishga intilishdan iboratdir.

Ma'lumki, integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rtasida bozor munosabatlari taraqqiyotining taxminan bir xil va yaqin darajasi mavjuddir.

Qoidadagiday, xalqaro hududiy integratsion guruhlanish yoki mahsulot ishlab chiqarishda taraqqiy etgan yoki rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida bo'lib o'tadi. Masalan, Yevropa iqtisodiy tashkiloti (YEIT)–G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida, Afrikada–tropik Afrikaning iqtisodiy chegrasida rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida. Integratsiyalashayotgan mamlakatlar o'rtasida asosiy masala bo'lib, u yoki bu davlatlarning integratsion birlashuvi va iqtisodiy, ijtimoiy, shu bilan bir qatorda siyosiy harakterga ega muammolarning umumiyligi xizmat qiladi.

Hududiy yaqinlik, turli shakllarda uzilmas iqtisodiy munosabatlarning an'analari, - bularning hammasi integratsiyaga birinchi turtki bo'ladi. Odatdagiday, iqtisodiy integratsiyaning jarayonlari bitta hududdagi bir necha qo'shni davlatlardan (Markaziy Osiyo), bitta kontinentdan (G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika singari) boshlanadi. Chunki ular umumiy chegaralarga yoki savdo-iqtisodiy aloqalarning tarixan tarkib topishiga bevosita aloqadordir.

7.2. Iqtisodiy integratsiyaning maqsadi va asosiy shakllari.

Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan dunyoning deyarli barcha integratsion guruhlarida ularning asosiy maqsad va masalalari bir-biriga to'g'ri keladi. Ular integratsion ittifoqqa a'zo bo'lgan mamlakatlarning daromadlari oshishi ko'rinishda iqtisodiy boylik olish, ishlab chiqarish va talablarning pasayishidagi harakatda ifodalanadi. Bu maqsadlar Yevropa mamlakatlari kabi Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR), Afrika va Markaziy Amerika iqtisodiy integratsiyalashuvida ham yorqin ko'rinadi. Integratsiya hamkorlik integratsion birlashuv a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi savdoda cheklanishlarning doimiy yo'qotilishi, o'zaro savdo sohasida umumiy siyosatning o'tkazilishi va ishlab chiqilishini ta'minlaydi. Iqtisodiy guruhlarda qatnashayotgan mamlakatlarga jahon hamjamiyatida butunjahon savdo tashkiloti (JST), Xalqaro valyuta fonli (XVF), xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) va boshqa turli Xalqaro tashkilotlarda o'z nuktai nazarini bayon etib turish osonroq.

Integratsion birlashuvga a'zo bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiyotning tizimlarida qayta qurish o'tkazilishi integratsiya maqsadlarining amalga oshirilishi uchun muhim vosita sifatida qaralishi mumkin. Bu iqtisodiyotning turli jabhalariga tegishli: ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar, ularning mujassamlashuvi, sohalashuvi, yanada samaraliroq tizimlar yaratish rejasidadir. Juda ko'plab integratsion guruhlar a'zosi bo'lgan mamlakatlar uchun iqtisodiyotdagi hamkorlikni kengaytirish nafaqat uni mustahkamlashda, balki u siyosat, harbiy soha, madaniyat va boshqa soahalarda ham juda muhim sanaladi. Ushbu maqsadlar sanoati rivojlangan mamlakatlar birlashuvini keltirib chiqaradi. Masalan, Yevropa Itifoqi (YEI), Yaqin Sharq mamlakatlari va Osiyo-Tinch okeani hududi (ATR) birolashuvi kabi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar qo'yidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- erkin savdo hududi;
- bojxona ittifoki;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifok;
- to‘liq iqtisodiy integratsiya.

Iqtisodiy integratsiya rivojlanishi savdo-iqtisodiy ittifoqdagi mamlakatlar o‘rtasida bitimlar hamda mamlakat o‘rtasidagi ittifoqni huquqiy mustahkamlovchi davlatlararo kelishuvlar bilan kuzatiladi.

Erkin savdo hududi – iqtisodiy integratsiyaning boshlang‘ich darajasi, u mamlakatlarning soliq to‘lashda maxsus imtiyoz tartibiga amal qiladigan alohida hududi. Unga kiritilgan tovarlar boj va kvotalar to‘lovidan ozod etiladi, bojxona nazoratidan xoli bo‘ladi. Bunda har bir davlat shaxsiy savdo-iqtisodiy siyosatini uchinchi mamlakat munosabatlariga ham o‘tkazish imkoniyatiga ega. Ko‘p hollarda erkin savdo hududlarida yaratilgan shart-sharoitlar tufayli qariyib barcha mahsulotlar savdosi amalga oshiriladi, bundan faqatgina qishloq xo‘jalik mahslotlari mustasno xolos. Savdo hududi unga a’zo mamlakatlardan biriga joylashgan uncha katta bo‘lmagan davlatlararo kotibiyatda markazlashishi mumkin. Ammo, tegishli hujjatlarga doir rahbariyat davriy yig‘ilishlarda o‘z taraqqiyotining asosiy parametrlariga xayrixoh bo‘lib, ularning ba’zilari busiz ham o‘z savdo faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkinligi ayon bo‘ladi.

Erkin savdo hududiga asosan 1960 yilda tashkil etilgan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) kiradi. Uning tarkibida Avstriya, Finlayandiya, Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvesiya kabi bir qator mamlakatlar bor. Yevropa iqtisodiy hududi (1994 y) da esa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hamda Islandiya va Lixtenshteynlar mavjud.

Boltiq bo‘yi erkin savdo hududi (1993 y) ga Estoniya, Latviya, Litviya kiradi;

Markaziy Yevropa erkin savdo hududi (1992 y) - Chexiya, Vengriya, Polsha, Slovakiya;

Shimoliy Amerika erkin savdo hududi (1994 y) – Kanada, Meksika, AQSH;

ASEAN mamlakatlari erkin savdosi haqida kelishuv (1992) – Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tayland;

Iqtisodiy aloqalarni chuqurlashuvi haqida Avtraliya Yangi Zelandiya savdo kelishuvi (1983 y) – Avstraliya – Yangi Zelandiya;

Bangkok kelishuvi (1993y) – Bangladesh, Hindiston, Koreya Respublikasi, Laos, Shri-Lanka.

Boj ittifoqi – ikki yoki bir qancha davlatlarning bojlar bo‘yicha o‘zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifi joriy etish yuzasidan o‘azro kelishuvi. Uchinchi mamlakat uchun joriy etilgan alohida yagona tarif va kvotlar esa ularni erkin savdo hududidagi boj ittifoqidan ajratib turadi. Bojxona itifoqi poshlinasiz ichki integratsiyaviy xizmatlar, tovarlar va ularning hudud ichida to‘liq erkinligini nazorat qilib turadi. Odatda bojxona itifoqi tashqi savdoga kelishilgan markazlashuv joriy qiluvchi davlatlararo organlarning rivojlangan tizimini yaratishni talab qiladi. Hammasidan ham ko‘proq ular hujjatlarga javob beradigan boshqaruv ministlarining yig‘ilishlarini davriyligini qabul qiladi. Ular har doim o‘z faoliyatlarida harakat qiluvchi davlatlararo kotibiyatga tayanishadi.

Bojxona ittifoqlari (BI) dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida rivojlangan. Ular quyidagilar: Turkiya bilan YEI assotsiatsiyasi (1963y), uning tarkibiga YEI mamlakatlari va Turkiya kiradi. Arab umumiy bozori (1964y) – Misr, Iroq, Iordaniya, Liviya, Mavritaniya, Suriya va Yaman. Markaziy Amerika umumiy bozori (1961) – Kosta Rika, Salvador, Gvatemala, Gonduras, Nikaragua, Kolumbiya, Ekvador, Venesuela mamlakatlari o‘rtasida tuzilgan erkin savdo hududi (1992 y) – Kolumbiya, Ekvador, Venesuela.

Umumiy bozor-iqtisodiy integratsiyaning hammadan ko‘proq rivojlangan turi. Integratsiyalashgan mamlakatlar nafaqat tovar va xizmatlar erkin harakati haqida kelishishadi, balki ishlab chiqarish faktorlari-davlatlar o‘rtasida kapital va ishchi kuchi borasida ham almashuvlar qilishadi. Umumiy bozorning iqtisodiy integratsiyasiga qo‘yidagi dunyo tashkilotlari kiradi: **Fors ko‘rfazidagi arab mamlakatlari hamkorligi** (1981y) – Bahrayn, Quvayt, Ummon, Qatar, Saudiya Arabistoni, BAA; **And umumiy bozori** (1990) – Boliviya, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Venesuela; **Lotin Amerikasi integratsion assotsiatsiyasi** – LAIA (1990y) – Argentina, Boliviya, Braziliya, Chili, Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Peru, Urugvay, Venesuela; **Janubiy konusning MERKOSUR** umumiy bozori (1991y) – Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay; Karib **hamjamiyati va Krik bilan Karib mumiy bozori** (1993y) – Antigua, Barbuda, Bagam orollari, Barbados, Beliz, Dominika, Grenada, Gayana, Yamayka, Montefrat, Sent-kits va Navis, Sent-Lyusiya, Sent-Vinsent va Grenadina, Trinidad va Tobago.

Iqtisodiy ittifoq – integratsiyaning oliy formasi bo‘lib, bunda qatnashuvchi mamlakatlar o‘z iqtisodiy siyosatlarini, shu jumladan pul, soliq va ijtimoiy siyosatlarini, shuningdek savdoga hamda ishchi kuchi va sarmoya ko‘chib yurishiga nisbatan siyosatni muvofiqlashtiradilar. Unda

bojxona tariflari, tovar va ishlab chiqarish faktorlari, mikroiqtisodiy siyosat koordinatsiyalari, valyuta, byudjet, pul sohalarida qonunchilikning unifikatsiyasi ko‘rib chiqiladi.

Dunyoning iqtisodiy ittifoqiga – Yevropa hamjamiyati (YES), keyinroq Yevropa itifoqi (1993y) a’zo bo‘ldi. Shuningdek, iqtisodiy ittifoqqa ko‘shilgan mamlakatlar quyidagilar hisoblanadi: **G‘arbiy Yevropa mamlakatlari** – Avstriya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Daniya, Germaniya, Gresiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Fransiya, Shvesiya: **Benilyuks iqtisodiy ittifoqi** (1948y) Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg: **Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi (MDH)** 1992y Armaniston, Ozarbayjon, Belorus, Ukraina, Gruziya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston: **Mag‘rib arab ittifoqi** (1989y) – Aljir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunis: **Lagos harakat rejasi (1973)** – Afrika janubidan Saharagacha bo‘lgan mamlakatlar; **Manu daryosi itifoqi** (1973)-Gvineya, Liberiya, Sverra-Leone; **G‘arbiy Afrika iqtisodiy va valyuta ittifoqi** (1994y) – Benin, Burkina-Faso, Kot-D Ivuar, Mali, Niger, Senegal, Togo.

To‘lik iqtisodiy integratsiya – a’zo mamlakatlar guruhlari yagona iqtisodiy siyosati o‘tkazilishida qarab chiqilgan tiplari aralashadi, ular integratsion ittifoq chegarasida huquqiy qonunchilikning unifikatsiyasini talab qiladi. To‘liq iqtisodiy integratsiya barcha a’zo mamlakatlar uchun valyuta siyosatini talab qiladi, yagona valyuta munosabatlarida yagona valyuta tizimi va yagona valyuta mexanizmi mavjud; Yagona valyuta, valyuta nazoratining yagona qoidalari, umumiy markaziy bank va boshqalar. Shuni ta’kidlash kerakki, integratsion jarayonlar makroiqtisodiy darajada ham, mikro iqtisodiy darajada ham muhim harakterga ega. Shuning uchun bu integratsiyaning ikki darajasi parallel ravishda o‘tadi, ular ko‘p kesishmaydi, bir-biri bilan yaqinlashadi, bir-birini to‘ldiradi. Integratsiyaning makroiqtisodiy darajasi egallash an’anasi aniq integratsion guruhga a’zo mamlakatlar davlatlararo iqtisodiy munosabatlarini nazorat qilishni ko‘chaytirishga to‘la mos keladi. Yo‘nalishlarning turli shakllari, makro va mikro integratsiyaning mos kelishi iqtisodiy jihatdan ham, integratsion birlashuv jihatdan ham harakter kasb etadi. U yoki bu iqtisodiy integratsiya tiplarining yaratilishi va amal qilishida siyosiy faktor ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

7.3. Xalqaro integratsiya taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Dunyo xujaligi tizimida iqtisodiy integratsiya jarayonlari G‘arbiy Yevropada ancha yuqori darajada taraqqiy etdi. Bu boradagi rivojlanish va madaniyat Yevropa Ittifoqida 1951 yilda boshlandi. Shu yilning aprelida 6 ta mamlakat, ya’ni-Fransiya, Germaniya, Italiya, Lyuksemburg, Belgiya va Niderlandiya o‘rtasida ko‘mir va po‘lat ishlab chiqaruvchi Yevropa hamkorligi(YEOUS) shartnomasi imzolandi. Bu G‘arbiy Yevropa integratsiyasi tarixida o‘ziga xos ma’no kasb etdi. To‘g‘ri, bu hududning integratsiyalashuv munosabatlari rivoji 1957 yilda, ya’niki ushbu mamlakatlar o‘rtasida Yevropa iqtisodiy hamkorligi (YEES) hamda Yevropa atom energiyasi hamkorligi (Yevrotom)ni tuzish bo‘yicha shartnoma imzolangandan keyin avj oldi. Shundan keyin, ya’ni 1960 yilda bu shartnomaga zid bo‘lgan Buyuk Britaniya, Avstriya, Daniya, Norvegiya, Portugaliya, Shvesiya, Shvesariya mamlakatlari o‘rtasida imzolangan Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) bitimi bekor qilinadi.

G‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi taraqqiyoti jarayonini to‘rt bosqichga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Birinchi bosqich (50 yillar oxiri, 70 yillar boshi) Yevropa iqtisodiy hamkorligiga a’zo mamlakatlar o‘rtasida ayrim savdo mahsulotlaridan olinadigan poshlinalarning doimiy ravishda o‘zgarib turishi, boj ittifoqining tashkil topishi, hamda yagona boj siyosatini yurgizish va savdo borasida yagona boj tariflarini amaliyotga tadbiq etish bilan harakterlanadi. Uchinchi mamlakat bilan ham savdo munosabatlari yaxshilangan. Boj to‘lovlari borasida erkin harakterlanish nafakat mahsulot sotuvida, balki kapital, ishchi kuchi, xizmatlar va shu kabilarda ham o‘z aksini topdi. Shuningdek, bu mamlakatlar o‘rtasida erkin ishchi kuchi va ularning erkin yashashlari uchun zarur sharoitlar yaratib berildi.

60 yillar boshida yagona agrar siyosat boshlandi. YEIning bu siyosati tufayli mazkur itifok hududi bo‘yicha qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bir xil narxlar belgilandi. Natijada hamkorlikka a’zo mamlakatlar ichki bozorida, shu bilan AQShda ham mahsulot sotish va kapital jamg‘arish jarayonlari ancha shiddatli tus oldi. 1973 yilda Yevropa iqtisodiy hamkorligi uchta yangi mamlakat, ya’ni Buyuk Britaniya Irlandiya va Daniyalar bilan ko‘paydi. Natijada Yevropada kuchli to‘qqizlik vujudga keldi.

Ikkinchi bosqich (70-yillar va 80-yillar o‘rtalari) Yevropa Ittifoqi tarixiga turg‘unlik va inqirozlik davri sifatida kiritildi. Bu davr G‘arbiy Yevropa integratsiyasida asabbuzarlik nomini oldi. YEIHga a’zo

mamlakatlarda birdan sodir bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining tushib ketishi bu hamkorlikka a’zo mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy taraqqiyot nomutanosiblik darajasini kuchaytirdi. Faqatgina 1981 yilda YEIga Gresiyaning qo‘shilishi natijasida bu davlatlar o‘rtasida iqtisodiy taraqqiyot biroz mo‘’tadillashdi.

Yevropa Iqtisodiy hamkorligi (YEIH) yuzaga kelgan iqtisodiy sust holatiga integratsiyalashuv jarayonlaridan imkoniyat qidirdi. Natijada 1979 yilda YEIHda Yevropa valyuta tizimi valyuta integratsiyasi jarayonlarini keng ravishda olib bora boshladi.

Uchinchi bosqich (80-yillar ikkinchi yarmi va 90-yillar boshi) keyingi yillarda integratsiya jarayonlari muvaffaqiyatli kechgani natijasida YEIH ga a’zo davlatlar soni 12 taga yetgani bilan harakterlanadi. Ya’ni, 1986 yilda bu hamkorlikka Ispaniya va Portugaliya qo‘shildi. Bu davr g‘arbiy Yevropa integratsiyasi taraqqiyotida yangi intilishlar, birikuv Yagona Yevropa akt (YAYEA) ini tuzilishi bilan farqlanadi.

Yagona Yevropa akti YEIHga a’zo davlatlarning umumiy mohiyati ittifoqning siyosiy va iqtisodiy ko‘rinishi moliya-valyuta va gumanitar hududlarda ham integratsiyalashuvning yuqori darajasiga ko‘tarilishidan dalolat beradi.

Yagona Yevropa aktiga binoan hamjamiyatga yangi a’zolar kirganda, uyushgan a’zolik haqida shartnoma tuzilganda va uchinchi mamlakatlar bilan savdo bitimlari tuzilganda Yevroparlamentining ma’qullashi talab qilinadi. U YEI ning eng muhim mohiyati bo‘lgan yagona iqtisodiy kenglik (ichki chegaralarsiz hudud, ya’ni mahsulot, kapital, fukarolik va xizmatlarni erkin bajaruvchi) kabi erkin ichki bozorni keng suratda bildiradi. Yana ham aniqrog‘i, a’zo davlatlar ittifoqini bir butun xo‘jalik organizmi sifatida kashf etadi. Shunday qilib, uchinchi bosqichda YEIH ga a’zo mamlakatlar 1992 yilning oxiridan yagona ichki bozor, valyuta – iqtisodiy va siyosiy ittifoqini vujudga keltirib, uni amaliyotda tashkil etishdi, desak xato bo‘lmaydi.

To‘rtinchi bosqich (90-yillar o‘rtalaridan hozirgi vaqtgacha). Yagona Yevropa akti tuzilgach, 1993 yil 1 yanvaridan YEIH ichki chegaralarida ancha erkin savdo harakatlarini ta’minlovchi shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa g‘arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi taraqqiyotida yangi, samarali yo‘lni ochib berdi. 1992 yil fevraldagi Maastrixt shartnomasining bekor qilinishi 1994 yilning 1 yanvaridan YEI ga a’zo mamlakatlar sonining 15 taga yetishini ta’minladi.

EIH ga a’zo mamlakatlar endilikda yagona Yevropa banki va yagona valyuta-Yevroni tashkil etgani kabi yagona ichki bozorni ham vujudga

keltirishdi. 2002 yil yanvaridan milliy valyuta – Yevro joriy etilgan bo‘lsa, shu yilning avgustiga kelib u to‘liq muammolaga kiritildi. Bir vaqtning o‘zida YEI davlatlari o‘rtasida ayrim siyosiy va iqtisodiy masalalarni boshqarish 5 ta nufuzli siyosiy institutlar ham tashkil etildi. Bular: Yevropa parlamenti, YEI komissiyasi, Yevropa soveti, Vazirlar soveti, YEI sudi kabi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlaridir.

7.4. Jahondagi asosiy hududiy integratsiyalashgan uyushmalar

Iqtisodiy integratsiyaning ob’ektiv jarayonlari dunyoning boshqa hududlarida ham rivoj topayotir. Masalan, Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrikada o‘ttizdan ziyod erkin savdo, boj va iqtisodiy itifoq zonalari faoliyat yuritmokda. Iqtisodiy integratsiya rivoj topgan guruhlardan biri-1994 yanvarida AQSH, Kanada va Meksika mamlakatlaridan tashkil topgan shimoliy Amerika erkin savdo hududi – **NAFTAdir.** Mazkur blok aholisi 400 mln. dan ortiq va yirik iqtisodiy imkoniyatga ega hududni o‘z ichiga olgan. Bu mamlakatlarning yillik mahsuloti va ko‘rsatgan xizmati 3 trln. dollardan oshadi. Dunyo savdo hajmida bu mamlakatlar ulushi qariyib 20% ni tashkil etadi.

NAFTA dagi integratsiyalashuv jarayonlari AQSH, Kanada va Meksikadagi mavjud texnologiyalar, ishchi kuchi, kapital va umumiy mol-mahsulot bozoridagi holatni YEES esa a’zo mamlakatlar bozoriga ham kiritishni ham o‘z ichiga oladi. NAFTA kelishuvning eng muhim vositasi, bu – unga a’zo uchala mamlakatdagi mavjud integratsiya munosabatlarida investitsion barerlar hamda integratsiya bo‘layotgan mahsulotlar savdosini 2010 yilgacha zamonaviylashtirib borishdan iborat.

NAFTA kelgusida «Merkosu» (u 1991 yil Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay o‘rtasida tashkil topgan) bloki bilan savdo-iqtisodiy borada integratsiyalashuvga ko‘ra, 2020 yillarda AQSH uchun asosiy integratsion yo‘nalish hisoblangan–**Osiyo-Tinch okeani hududi** (ATR)ning «integratsion to‘g‘on»ni zabt etish mo‘ljallangan.

XX asr oxirlarida integratsiya jarayonining asosiy kuchi ATRda birlashdi. Ular o‘zlarida mavjud gigant imkoniyat, kuchlar va 3,5 mlrd.ni aholi bilan katta hududga ega bo‘lishdi. ATR hisobiga hozirda 565 turdagi dunyo yalpi ichki mahsulotlarini ishlab chiqarish va dunyo eksporti va importining 45%lik ulushi to‘g‘ri kelmoqda.

ATR integratsion jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- bu integratsiyaga iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar jalb etiladi;
- integratsiya jarayonlari hududidagi mamlakatlar firma va korporatsiyalari o‘rtasida asosan makroiqtisodiy darajalarning yuqoriligida kechadi;
- integratsiya alohida hududlarda yuqori darajada kechadi;
- integratsion jarayonlari ham yuqori tayyorgarlikda tashkil etilmagan hududlarni rivojlantirishi;
- mavjud integratsion guruhlarning aniq rasmiylash tirilmaganligidan.

ATR bir qator subregional birlashmalar, ya’ni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (**ASEAN).** Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti **(ATES)** – Avstraliyaning Yangi Zelandiya erkin savdo hududi, Janubi-Tinch okean forumi **(YUTF),** Tinch okeani iqtisodiy soveti **(TES)**dan tashkil topgan.

ATR jarayonlarida asosiy rolni Yaponiya o‘ynaydi. So‘nggi yillarda uning yoniga to‘rtta. «**Osiyo yo‘lbars»lari** – Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong hamda AQSH va Xitoy qo‘shildi. Hozirda integratsiya jarayonlari faollashayotgan yana bir birlashma **ASEAN** bo‘lib, u 1967 yilda olti mamlakat-Bruney, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailandlardan tashkil topgandi. 1995 yilga ular safiga Vetnam ham kirdi. ASEAN mamlakatlari bir-biri bilan o‘zaro yuqori darajada integratsiyalashuvga kirishdilar va shu bilan birga Yaponiya, AQSH, Janubiy Koreya, Tayvan va so‘nggi yillarda Xitoy bilan ham bu aloqalarni kuchaytirgan.

1989 yilda tashkil topgan **Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti (ATES)** janubiy Osiyoda iqtisodiy integratsiya taraqqiyotini rivojlantirdi. Uning tarkibiga Osiyoning 18 davlati va Janubiy hamda Shimoliy Amerika kiradi. 1997 yilda esa, ular qatoriga Rossiya qo‘shildi. ATES rejasiga ko‘ra dunyo erkin savdo hududida bu mamlakatlar boj va ichki barerlar to‘lovidan ozod etilgandir.

Integratsiya jarayonlari yer sharining turli hududlarida, turli kontinentlarda jadal rivojlanmokda. Ya’ni, Afrika, Yakin Sharq, Lotin Amerikasi, Avstraliya va Okeaniya, Markaziy Osiyoda 1989 yilda Afrika kontinentining shimoliy qismida Aljir, Liviya, Mavritaniya, Marakko, Tunislardan iborat **Mag‘rib arab ittifoqi** tuziladi. 1981 yilda esa Fors ko‘rfazi atrofidagi arab davlatlari (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, Bahreyn, BAA, o‘mmon)dan iborat hamjamiyat soveti tashkil etilgandi. 1992 yilda esa Eron, Pokiston, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va O‘rta Osiyo mamlakatlaridan iborat Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyat tashkiloti tuzilganligi e’lon qilindi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaga umumiy ta'rif bering. Uning sabablari, maqsadi nimalardan iborat?
2. Integratsion birlashmalar bosqichlarini ayting va ularga harakteristika bering;
3. Dunyo iqtisodiyotidagi asosiy iqtisodiy markazlarni ayting. Bu markazlar qaysi integratsion guruhlariga mansub?
4. Xalqaro integratsion birlashmalarda ko‘proq qaysi integratsiya jarayonlari shakllari rivoj topadi. Bu jarayon haqida qisqacha gapirib o‘ting.
5. Yevropa Ittifoqi (YEI) ga a'zo mamlakatlarni sanab o‘ting.
6. MDH davlatlari integratsion taraqqiyotida kanday imkoniyatlar mavjud.
7. Osiyo-Tinch Okeanii hududi (ATR) integratsiya jarayonlarining o‘ziga xos tomonlari nimalarda aks etadi?
8. Xalqaro integratsiya birlashmalarida O‘zbekiston imkoniyatlari qanday kuchga ega deb o‘ylaysiz?

VSH mavzu. XALQARO ISHCHI KUCHLARI MIGRATSIYASI

8.1. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining sabablari.
8.2. Xalqaro migratsiya okimi va uning asosiy xususiyatlari.
8.3. Ishchi kuchlarini o‘ziga jalb etuvchi zamonaviy markazlar.
8.4. Ishchi kuchlarni boshqarish jarayonlari.

8.1. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasining sabablari.

Aholi migratsiyasi – bu doimiy yashaydigan joyiga qaytib kelish sharti bilan boshqa chegara hududlariga ko‘chib o‘tish va vaqtincha ishlash tushuniladi.

Xalqaro migratsiya mehnat, oilaviy, sayyohlik kabi shaklarga bo‘linadi. Bu borada asosiy e'tibor xalqaro mehnat migratsiyasi va xalqaro ishchi kuchlari bozori muammosiga ko‘proq qaratiladi. Xalqaro ishchi kuchi bozori mehnat resurslari hamda milliy chegaralardan o‘tishda turli yo‘nalish bo‘yicha shakllanadi. Xalqaro mehnat bozori esa mehnat migratsiyasi shaklaiga bo‘ysinadi.

So‘nggi yillarda migrantlar faoliyati ancha pasaygani kuzatilmokda. Masalan, 90-yillar o‘tralarida (aniqrog‘i 1995 yil boshlarida) mamlakatdan mamlakatga ko‘chib yuruvchi aholi 125 mln. atrofida edi. Keyingi

paytlarda jahon bo‘yicha bu holat 20 mln. kishini tashkil etmoqda. Bugungi kunda AQSH da chet ellik ishchilar soni 7 mln. ni tashkil etsa, bu ko‘rsatkich G‘arbiy Yevropada 6,5 mln. ni, Lotin Amerikasida 4 mln. Yakin sharq va shimoliy Afrikada 3 mln., odamni tashkil etadi. Xorijlik ishchilar ko‘plab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda faol sanalishadi. Masalan, Fransiyaning qurilish sohasida 25 %, avtomobilsozlik sohasida esa 33 % ishchi immigrant sanalishadi. Shuningdek, Belgiya konchilarining teng yarmi, Shveysariya qurilish tarmog‘ida ishlayotgan ishchilarning 40% i xorij immigrantlaridir.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi ikki xil formadan iborat: immigratsiya va emigratsiya.

Immigratsiya – bu ishlash uchun boshqa mamlakatdan biror hududga ko‘chib kelish. **Emigratsiya** esa aholining ishlash uchun boshqa mamlakatga ko‘chib ketishi tushuniladi. Bu ikki holat o‘rtasidagi farq esa iqtisodiy tilda migratsiya saldosi deb nomlanadi. Emigrantning o‘z yurtiga kaytib kelishi **reemigratsiya** deb ataladi. Xalqaro migratsiyada yuqori malakali migrantlar-aklli muhojirlar deyiladi.

Ishchi kuchi migratsiyasining asosiy sabablari iqtisodiy va iqtisodiy harakterga ega bo‘lmagan omillarda o‘z aksini topadi. Iqtisodiy maqsadni ko‘zlovchi migratsiyada esa arzon ishchi kuchi tufayli mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi kuzatiladi. Sir emaski, biror mamlakatga ish izlab borgan kishi o‘sha yerlik tub aholi olayotgan maoshdan kam oylik oladi, shu bilan birga davlat yoki korxonadan shu yerlik ishchidan ko‘ra ancha kam bo‘lgan ijtimoiy himoya talab qiladi.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘proq ishchi kuchi chiqib ketayotgan mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sustlashadi, ishchi kuchi kiritilayotgan davlat boyiydi. Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy omillar-kapital yuritilishining tezlashishida o‘z aksini topadi. Transmilliy korporatsiya (TMK) ishchi kuchlari qo‘shilishi natijasida davlatga kapital oqib turishi jadallashgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

8.2. Xalqaro migratsiyasining sabablari.

Xalqaro mehnat migratsiyasi darstlab guyo bir xilli ko‘rinishdek namoyon bo‘ladi, aslida bu doimo davlat boshqaruviga ta’sir etib turadi. o‘z o‘rnida so‘nggi paytlarda migratsiya oqimi bozorining asosiy boshqaruv elementlaridan bir bo‘lib qoldi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XIX asr o‘rtalarida aholi migratsiyasi tarixida juda ahamiyatli voqealar sodir bo‘ldi. o‘sha asrning 40-yillarida Irlandiyalik emigrantlar AQShga kelmay ko‘yishdi.

Keng masshtabli migratsiya okimining pasayishi XIX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. Bunga sabab AQShda Italiya va sharqiy Yevropadan keltirilayotgan bo‘g‘doyning narxi juda kamayganida aks etadi. G‘alla narxi tushgach mehnatga hak to‘lash ham keskin pasaydi, ammo AQSH iqtisodiyotiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

AQSH migrantlar kuchidan umidvor va iqtisodiy foyda ko‘rishni biladi. Shu bois endi u agrar soha uchun immigrantlarga sharoit yaratdi. Natijada Yevropa mamlakati keng masshtabli ishchi kuchi AQSH ga oqib kela boshladi. Bu yangi migratsiya okimi AQShda XX asrning 20-yillarida rivojlandi. Endi Yevropadagi 1-jahon urushidan keyin bu yer aholisi ko‘proq Amerikada ishlashni lozim ko‘rishdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin AQShda mavjud ishchi kuchi migratsiyasi uch xil oqimga bo‘lindi. **Birinchisi**, bu – aqlli muhojirlar. Ular ko‘proq shimoliy Amerikadan ish topishdi, negaki bu migratsiyalar yuqori malakaga ega edilar. **Ikkinchi** oqim – bu Vengriyada antikommunistik qo‘zg‘olon sodir etilgan 1956 yilgi voqealardan keyin mamlakatdan chiqib ketgan qochoqlar, shuningdek Vetnamda (1974-75) kechgan «janublik» va «shimollik»lar o‘rtasidagi kelishmovchiliklardan keyingi qochoqlar tashkil etadi. **Uchinchi** oqim esa Karib havzasi davlatlaridan ish izlab kelgan muhojirlar sanaladi.

Agar birinchi va ikkinchi oqimlar sababi siyosiy va ko‘chishga majbur bo‘lish bo‘lgan bo‘lsa, uchinchi holatda esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy maqsad sabab bo‘lingan.

XIX va XX asr mehnat migratsiyasi jarayonida Xitoydan Janubi-sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerikaga aholi migratsiyasi sodir bo‘lgani asosiy rol o‘ynaydi. U asosan ko‘chishga majburlik jihatidan ahamiyatli va bu paytda 70 mln. dan 100 mln. xitoylikgacha aholi shu mamlakatlarga ko‘chgan va ko‘chirilgan.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida II jahon urushidan keyin, aniqrog‘i o‘tgan asrning 60-yilarida yetarlicha ishchi kuchi migratsiyasi jarayoni avj oldi. Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Yugoslaviya ishchi kuchlari Yevropa mamlakatlari iqtisodiy ishlab chiqarish rivojida faol ishtirok etdi. Bugungi kunda ham xorijlik ishchi kuchlari dunyo xo‘jaligi harakatining asosiy me’yoriy elementlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi boshqaruvini quyidagi holatlarda ko‘rish mumkin:

- rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan davlatlarga ko‘chish;
- sanoati rivojlangan mamlakatlarga migratsiya;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro ishchi kuchi migratsiyasi almashish;
- sobiq sotsialistik mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi migratsiyasi;
- sanoati taraqqiy etgan rivojlangan mamlakatlarga ilmli ishchilar, yuqori malakali mutaxassislar migratsiyasi.

Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi sanoati rivojlangan mamlakatlarda ba’zan noiqtisodiy maqsadlarni ko‘zlaganlikda ham aks etadi. Masalan, Yevropadan AQShga ko‘chib kelgan aqlli muhojirlar o‘zlari uchun iqtisodiy foyda ko‘rish uchun emas, balki shu mamlakat taklifi bilan mahalliy aholidek yashayapti va ishlayapti.

Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasida Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlardagi ko‘chish holatlari ham ahamiyat kasb etadi. YEIda 1989 yil 9 dekabrda Hartiya, deb nomlangan Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (YEIH) ga a’zo mamlakatlar ishchilarining ijtimoiy huquqi imzolandi. Unda yozilishicha, «har bir Yevropa iqtisodiy hamjamiyatga ahzo mamlakat ishchisi hamjamiyat hududida mavjud qonun-qoida va chegara intizomi, jamoa tartibini saqlash, jamoatchilik xavfsizligini ta’minlash va sog‘ligini asrash huquqlariga ega»; «EIH hududida ishga kirishini hoxlovchi fuqaro kasbi va qo‘lidan keladigan hunariga qarab, har qanday ishni bajarishi va mehnat sharoitlari hamda ijtimoiy himoya imkoniyatlaridan to‘laligicha foydalanish huquqiga ega».

So‘nggi yillarda ishchi kuchlari migratsiyasi rivojalanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ancha o‘sdi. Asosiy ko‘rsatkich yangi sanoatlashgan mamlakatlar (YASM) birlashgan arab mamlakatlari, OPEKka a’zo mamlakatlar, hamda u yoki bu sohalarda keskin rivojlanish bosqichida bo‘lgan mamlakatlarda yuqori bo‘lmoqda.

Ishchi kuchlari migratsiyasining «**aqlli muhojir**» lik okimi hozirda ko‘proq harakatda va ular asosan Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikadan OPEKka a’zo bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga borishmoqda.

Sobiq sotsialistik mamlakatlar, xususan MDH davlatlarida kechayotgan ishchi kuchi migratsiyasi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tish zarur. Bugungi kunda asosiy ishchi kuchi oqimi Rossiyada. Masalan, birgina Rossiya poytaxti Moskvada hozirgi paytda dunyoning 78 mamlakatidan xorijlik ishchilar va immigrantlar poytaxtdagi qurilishlarning 46 % ish o‘rnini tashkil qiladi.

So‘nggi yillarda Rossiyaga yaqin bo‘lgan Ukraina, Belorus, Moldova, Armaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va boshqa mamlakatlardan juda ko‘p ishchi kuchlari kirib kelmoqda. Bu migratsiyaning sabablari-iqtisodiy maqsad bo‘lib, ular pul topish uchun bu yerga ish izlab kelayotir. Shuningdek, Rossiyada qochoqlar va turli qo‘zg‘olonlar oqibatida ko‘chishga majbur bo‘lganlar ham bor. Bular salkam 5 mln. aholi bo‘lib, asosan MDH davlatlari fuqarolaridir.

Ishchi kuchlarini o‘ziga jalb etuvchi zamonaviy markazlar

Boshqa davlatlardan ishchi kuchlarini o‘ziga jalb qiluvchi mamlakatlar va hududlar quyidagilar:

AQSH, Kanada. Har yili AQSH ga boshqa mamlakatlarga qaraganda eng ko‘p immigrantlar tashrif buyuradi. G‘arbiy Yevropa, Rossiya, Lotin Amerikasi va boshqa mamlakatlarning yuqori malakali immigrantlari AQShda ishlashni ko‘proq xush ko‘radi. Unchalik malakaga ega bo‘lmagan ishchilar esa asosan bu yerga Lotin Amerikasi va Karib havzasidan ishlash va yashashga kelishadi. AQShga qonuniy yo‘l bilan har yili 740 ming aholi ishlash uchun ko‘chib kelsa, shu maqsadda 160 ming kishi ko‘chib ketadi. Migratsiya saldosi yillik 580 ming kishini tashkil etardi. Immigrantlar oqimi birgina Kanada va AQSH o‘rtasida (90-yillar o‘rtasida) yillik 100 ming aholini tashkil etgan.

G‘arbiy Yevropa. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarga, asosan YEIga Maltadan hamda sharqiy Yevropa va MDH davlatlaridan, shuningdek, Shimoliy Afrika va yaqin Sharqdagi arab mamlakatlari, Afrikaning sahargacha bo‘lgan mamlakatlaridan har yili bir necha yuz minglab immigrantlar kelishadi. G‘arbiy Yevropa integratsiyalashuvining natijasida ishchi kuchi migratsiyasi YEIga a’zo mamlakatlarda erkin va mehnat qonunchiliklari huquqlaridan to‘la foydalangan holda faoliyat yuritadilar.

Yakin Sharq. Neft qazib oluvchi mamlakatlar hududida og‘ir ishlarni bajarishga arzon bo‘lgan xorijlik ishchi kuchlari jalb etilgan. Bu yerda mavjud ishchi kuchlarining 50 % ini qo‘shni arab mamlakatlari, ya’ni Saudiya Arabistoni, BAA, Bahrayn, Quvayt va Ummon davlatlarining fuqarolari tashkil etadi.

Boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar. 90-yillarda endi rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasi borasida favqulodda hodisa yuz berdi. Odatda ishchilar oqimi sanoati jadal

rivojlanayotgan iqtisodiy islohatlar izchil kechayotgan mamlakatlarga yo‘l olishadi. Masalan, mavsumiy ishchilar va biror korxona ishchi- jamoasi lotin Amerikasidan Argentina va Meksikaga boradi. Shuningdek, Nigeriya, JAR, Fil suyagi qirg‘og‘iga mavsum chog‘i barcha immigrantlarning 50% i ko‘chib keladi. Ammo, siyosiy «o‘yin»lar kechayotgan ayrim mamlakatlarda buning aksi vujudga keladi. Masalan, 1991 yilgi Fors ko‘rfazida bo‘lgan urush oqibatida salkam 1 mln. misrlik aholi Iroqdan, 800 ming yamanlik aholi Saudiya Arabistonidan, 500 ming falastin va iordaniyalik aholi Quvaytdan ko‘chib ketishdi. Ularning o‘rnini Hindiston va Misrdan kelgan immigrantlar egalladi.

Yangi sanoatlashayotgan mamlakatlar. Ishchi kuchlar migratsiyasi asosan Janubi-sharqiy Osiyo (Malayziya, Janubiy Koreya) da ko‘pchilikni tashkil etadi. Asosan ish mavsumi paytlarida bu yerga Meksikadan va rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlaridan ish izlab keluvchilar soni ortadi.

Ishchi kuchlarini o‘ziga jalb qiluvchi markazlardan biri-**Avstraliya** sanaladi. Har yili bu yerga 200 mingdan ziyod immigrantlar ishlash uchun kelishadi.

Ishchi kuchlarini o‘ziga tortuvchi yangi markaz- Rossiya bo‘lib kolmokda. Bu yerda qonuniy mehnat qilayotgan immigrantlar soni 500 mingdan ziyodni tashkil etadi.

8.4. Ishchi kuchlarini boshqarish jarayonlari.

Albatta, xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi ko‘p hollarda davlat va davlatlararo boshqaruvida ma’lum muammolarni keltirib chiqaradi. Bu masalaga davlat aralashuvi Xalqaro savdoni boshqarishdan ancha ilgari xalqaro mehnat bozori tashkil etilgandayoq amalga oshgan edi. Chunki u mamlakatdan bu mamlakatga o‘tgan fuqarolar albatta biror tushunmovchiliklar oqibatida muammoni yuzaga keltiradi. Shu bois XVIII asrdayok davlat chegaralaridan immigrantlarni o‘tkazmaslik bo‘yicha qat’iy qonun ishlab chiqqandi. Bunga yaqin qonunlar XIX asrda ham ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida amal qilindi. Ammo hozirgi kunda dunyoning barcha yirik mamlakatlari o‘z ichki bozorlarini to‘ldirish, iqtisodini mustaxkamlash uchun immigrant va emigrantlar uchun hamda ularni qonuniy boshqarish uchun tartib-qoidalar ishlab chiqib, yo‘llarni ochgan.

Ko‘pgina mamlakatlarda milliy hokimiyatlar migratsiya jarayoniga faol nazar solayotirlar. Ular boshqarayotgan tartiblarga ko‘ra nafaqat immigrantlar soni, kasb-kori, yoshi etiborga olinayotir, balki ularni shu yerga doimiy kelib ishlashlarini taminlovchi qonun-qoidalar amal qilinmokda.

Ishchi kuchlari import qilinayotgin mamlakatlar davlat migratsiyasi boshqaruvi tizimida qo‘yidagi elementlar e’tiborda bo‘ladi:

- immigrantlar uchun yuridik, siyosiy va kasbiy qonunchiliklarni joriy etish;
- milliy immigratsiya xizmati;
- migratsiya mavjud bo‘lgan davlatlar o‘rtasida kelishuvni amalga oshirish.

Odatda davlvt boshqaruvi byudjet bo‘yicha moliyalashtirilgan holatda xorij ishchi kuchlarini jalb etishga kirishiladi. Shuningdek, immigrantning shartnoma vaqti tugagach uyiga qaytishi kafolatlanadi.

Yirik ishchi kuchlari migratsiyasidan foydalanayotgan mamlakatlar immigrantlar bilan yaxshi munosabatda bo‘ladilar.

Birinchidan, ishchining mutaxassisligi, bilimi, yoshi, salomatligi inobatga olinib, ularga erkin ishlashlari uchun qulay sharoitlar yaratib beradi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ish bo‘yicha tuzilgan kontrakt (shartnoma) muddati tugagach, unga maoshidan tashqari moddiy konpensatsiya va uning mamlakatiga ham immigratsiya yordami sifatida pul mablag‘i o‘tkazadi.

Immigratsion siyosat bevosita immigratsiya milliy xizmati, ya’ni mehnat vazirligi, adliya yoki ichki ishlar hodimlaridan tashkil topgan nufuzli xizmat orqali nazorat qilinadi. Bu organ ham federal migratsiyasi xizmati singari faoliyat yuritadi.

Nazorat savollari

1. «Ishchi kuchi migratsiyasi», «Emigratsiya», «Immigratsiya», «Reemigratsiya», «Migratsiya-saldosi», «Aqlli muhojir» tushunchalarini izohlab bering.
2. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining iqtisodiy maqsadli va noiqtisodiy sabablari bor?
3. Dunyo iqtisodiyoti uchun migratsiyaning qanday iqtisodiy samaralari mavjud?
4. Ishchi kuchlari eksportining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri qanday?
5. Ishchi kuchlari importining mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirichi?
6. Ishchi kuchini o‘ziga jalb etuvchi asosiy markazlar nomini ayting.
7. Davlat tomonidan boshqariladigan immigrantlikning asosiy xususiyatlarini ayting.
8. Reemigratsiya davlat boshqaruvi qanday imkoniyatlar beradi.

IX mavzu. JAHON XO‘JALIGIDA XALQARO KORPORATSIYALAR (MONOPOLIYALAR)

9.1. Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyati, turlari va vujudga kelish sabablari.
9.2. TMKlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
9.3. Jahon xo‘jaligida TMK larning tutgan o‘rni va roli.
9.4. Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar).

9.1. Transmilliy korporatsiya (TMK) larning mohiyati, turlari va vujudga kelish sabablari

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) BMT ekspertlari fikricha «Jahon iqtisodiyotining dvigateli» hisoblanadi. Ayni paytda jahonda 40 mingdan ziyod TMK lar faoliyat ko‘rsatadi. Ular taxminan 250 ming xorij korxonalariga ega.

Transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, Yevropa Ittofoqi va Yaponiyada tashkil topgan. Transmilliy korporatsiyalar (TMK)lar dunyo sanoat mahsulotlariining 40 % ini, xalqaro savdo hajmining teng yarmini ishlab chiqaradi. Umumiy ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmida TMK korxonalari ulushi har yili 1 trln. dollarga teng. Ularda 73 mln. ishchi-xodim faoliyat yuritadi. Bu degani dunyodagi ishga yaroqli aholining har o‘ntasidan biri TMK korxonasida ishlaydi, deganidir.

Xo‘sh, transmilliy korporatsiya o‘zida nimalarni aks ettiradi, uning tarkibiga qaysi korxonalar kiradi? BMT mana bir necha yildirki xalqaro korporatsiyalar faoliyati bilan qiziqib keladi. Shu bois unga tovar oboroti yillik 100 mln. dollarni tashkil etadigan ko‘plab korxona va firmalar murojaat etadi. Uning filiallari bugunda 6 mamlakatda tashkil etilgan. Dastlabki BMT yirik korporatsiyalar faoliyati bilan qiziqib, ularni o‘z a’zoligiga olgan bo‘lsa, endilikda bunday korxonalar bu nufuzli uyushmaga a’zo bo‘lish uchun yelib-yugurayotirlar. Bunda transmilliy korporatsiyalar orasida Shvesariyaning «Nestle» firmasi yetakchilik qilmokda.

BMT metodologiyasidan bilish mumkinki, xalqaro korporatsiyalar o‘z aktivlarini ham TMK ga yo‘naltirayotirlar. Hozirda TMK lar o‘rtasida yuqori aktivga ega muassasa, bu – transmilliy banklar sanaladi, ya’ni bular – «Royal-Datch shell» ingliz-golland konserni, hamda AQShdagi «Ford», «Jeneral-Motors», «Ekson» va «IBM» lardir.

Xalqaro monopoliyalar ta’rifi. G‘arb iqtisodiyoti adabiyotlarida ko‘pgina xalqaro monopoliyalar mavjud, degan iboraga ko‘zingiz tushadi. Bular-**transmilliy korporatsiyalar, baynalminal korporatsiyalar, transmilliy kompaniyalar, global kompaniyalar va boshqalar.** Taniqli

amerikalik marketing fani bilimdoni F.Kotlyar, xalqaro kompaniyalar tashkil topishi jihatidan to‘rt turga bo‘linadi, degan edi: ular-global kompaniya, trans milliy kompaniya, ko‘p millatli kompaniya va baynalminal kompaniya.

Rossiyalik iqtisodchilar ham ularni odatdagicha tasnif etadilar. Transmilliy korporatsiyalar-bu xorij aktivlaridan tashkil topgan milliy monopoliyalar bo‘lib, ularning mahsulot ishlab chiqarishi va savdo faoliyati bir mamlakatdan tashqarida amalga oshiriladi.

AQSH korporatsiyalari aksiyadorlik jamiyat deb yuritiladi, aksariyat qo‘shma TMK larning Amerika kompaniyalari bilan qo‘shilganiga xalqaro maydonda shu nom bilan yoyilishi kuzatilmokda.

Bu tuzilmalar rivojlanayotgan mamlakatlarda arzon ishchi kuchi, kapital va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash umumlashtirish uchun asosiy vosita bo‘ldi. Uning tarkibidagi kompaniyalar alohida, mustaqil ravishda mahsulot ishlab chiqaradilar, ilmiy-tadqiqot ishlari olib boradilar, ista’molchilarga xizmatlar ko‘rsatadilar va hakazo.

Ular bir butun bo‘lib yoxud yagona yirik ishlab chiqarish, sotish majmuasi sifatida va mulkdorlarning aksiya kapitallari yig‘ilmasi bilan yagona TMK ga birlashishlari mumkin. Bunday paytda ham kompaniya filiallari va sho‘’balari qo‘shma korxonalar tashkil etishlari mumkin bo‘ladi.

Ko‘p millatli korporatsiyalar (KMK) – bu xususiy bo‘lgan Xalqaro korporatsiyalardir. Bunda ikki mamlakatning umumiy strategik maqsadlarga erishishini ko‘zlagan qo‘shma milliy kompaniyalar mavjud. Masalan, 1907 yilda tashkil topgan ingliz-golland konserni – «Royal-Datch shelll». Bu ikki millatning bu korporatsiyadagi kapitali 60 ga 40 sanaladi. Ko‘pmillatli korporatsiyalar tarkibiga mashhur va yirik Yevropaning Shveysar-shved «AVV» (Asia Bromn Bovary) kompaniyasini ham qo‘shish mumkin. Bu qo‘shma korporatsiya mashinasozlik va elektr-muhandislik xizmatlarini amalga oshiradi va uning filail va qo‘shma korxonalari MDH davlatlarida ham mavjud. Yevropadagi yana bir yirik ko‘pmillatli korporatsiya ingliz-golland konserni hisoblangan «Yunilever» dir.

Ko‘pmillatli korporatsiyalar o‘zida quyidagi xususiyatlarni aks ettiradi:

- Nakd bo‘lgan ko‘p millatli aksiyadorlik kapitalini.
- Mavjud ko‘pmillatli markazlar boshqaruvini.
- Mahalliy shart-sharoitlarni ma’muriyatini jamlashni.

Oxirgisi, ko‘pgina transmilliy korporatsiyalarga xos bo‘lmagan tomonlari mavjud. Umuman olganda ko‘pmillatli korporatsiyalar o‘rtasida chegara amal qilinadi, faqatgina u firmaga ish yoki mahsulot eltish yuzasidan borilganda chegra bo‘lmaydi, xolos.

Transmilliy korporatsiyani Xalqaro kompaniyalar orasida keng tarqalgan global korporatsiyalar to‘ldirdi. Ular XX asrning 80-yillarida ancha kuchaydi. Global korporatsiyalar o‘zlarida dunyo moliya kapitalining barcha qudratlarini aks ettirgan. U ko‘pgina sohalarni, ya’ni ximiyaviy, elektrotexnika, elektronika, neft, avtomobil, axborot, bank tarmoqlarini globallashtirmoqda, ya’ni dunyo miqyosida ko‘paytirmoqda.

Transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelish sabablari milliy davlat chegaralarida mahsulotlar ayirboshlash va sotish, o‘tkazishda baynalminallik an’analarini ro‘yobga chiqarishda ko‘riladi.

Mahsulotlarning erkinlashuvi va baynalminal-lashuvi chegaralarda yirik kompaniyalarni tashkil etilishiga va transmilliy korporatsiyalarning tobora iqtisoddan baquvvat va rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Kapitallarning almashinuvi esa xalqaro korporatsiyalar taraqqiyotida alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

TMK ning vujudga kelishini aniq sababi – yuqori daromad ko‘rishlikda, desak bo‘ladi. Shuningdek, mustahkam raqobat, mahsulot va pul mablag‘ TMKning vujudga kelishini ta’minladi.

9.2. TMK larning o‘ziga xos xususiyatlari.

Transmilliy korporatsiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ular xalqaro mehnat taqsimoti va uning rivojlanishida faol rol o‘ynaydi. TMK xalqaro mahsulot tizimida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mahsulot ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatuvchi sho‘‘ba kompaniyalar tashkil etishni amalga oshiradi.

TMK yuqori texnologiyali tarmoqlar, yuqori ilmiy salohiyat natijasida vujudga keladigan mahsulotlarni ko‘proq ishlab chiqaradiki, bunga bo‘lgan mijozlar ham ixtisoslashgan shaxslar bo‘ladi. Buning natijasida bu sohalardagi xalqaro korporatsiyalarda monopollik ruhi hukm suradi.

XX asr oxirlarida jahondagi rivojlangan mamlakatlari ishlab chiqargan sanoat mahsulotlarining to‘rtdan uch qismi 2000 ta yirik korporatsiya ulushiga to‘g‘ri keldi. Ularning yuzdan ortig‘i 50-80 % mahsulot turlarini ishlab chikardi. Bu transmilliy korporatsiyalar ichki va tashqi savdoda ham katta nufuzga egadir.

Eng baquvvat sanalgan 500 ta TMK xorij investitsiyasi ulushining 4 dan 3 qismiga egalik qiladi. Bu gigant TMK lar dunyodagi mavjud elektronika va ximiya mahsulotlarining 5 dan 4 qismini, farmatsevtika mahsulotlarining 10 dan 9, mashinasozlik mahsulotlarining 10 dan 8 qismini ishlab chiqaradi.

2002 yil ma'lumotlariga qaraganda, dunyo xo'jaligida 600 tagacha TMK hukmronlik qilgan. Ularning 300 tasi dunyo yalpi mahsulotining 4 dan 3 qismini ishlab chiqargan va o'z mahsulotlari va xizmatlari – nurini keskin ko'paytirgan. Masalan, «Volvo» nomli shved avtomobil konserni hozirgi kunda nafaqat jahonda mashhur bo'lgan avtomobil ishlab chiqarish bilan kifoyalanayapti, balki Shvesiyaning o'zida 30 dan ortiq yirik sho''ba kompaniyalari va necha o'n davlatdagi korporatsiyalari katerlar uchun dvigatellar, aviatsiya motorlari, hatto pivo mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Shu bilan birga, AQShdagi 500 ta yirik TMK 11 xil o'rta tadbirkorlik sohalarida va 30-50 ta kuchli sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda. Yoki 100 xil sanoat guruhlarida ish yuritayotgan firmalar Angliyada jami 96 sohada, Germaniyada – 28, Fransiyada – 84, Italiyada esa 90 xil soahalarda mahsulot tayyorlash bo'yicha yetakchi sanalishadi. Muhimi, ularning soni va harakteri iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

TNK ning kuchli mahsulot bazasi mo'ljali yuqori samara beruvchi mahsulot bozorini vujudga keltirib, ana shunday mahsulot ishlab chiqarish - savdo siyosati yurgizishni ko'zlaydi. Shuningdek uning rejasida kompaniyalar tuzish va firmalar tashkil etish masalasi ham bor.

Transmilliy korporatsiyalar Xalqaro maydonda ilmiy-tadqiqot ishlari va kapitallar rivoji bo'yicha siyosiy dinamika vazifasini o'taydi. Masalan, «Elektrolyuks» transmilliy korporatsiyasini olaylik. U ayni paytda dunyo bozoridagi maishiy elektro mahsulotlar va sanoat texnologiyasining 25 %ini o'z qo'lida ushlab turibdi. 1912 yilda tashkil etilgan bu shved kompaniyasi XX asrning 20–yillardayoq Astraliya va Yangi Zelandiya bozorini o'z mahsuloti bilan egallab olgandi. So'nggi o'n yilda esa «Elektrolyuks» «Uayt Konsolideyted» kompaniyasini, AQShda esa maishiy texnika ishlab chiqaradigan «Vestingauz», «Gibson» kompaniyasini, shuningdek, yirik elektr tovarlari ishlab chiqaradigan «Zanussi» (Italiya va barcha janubiy Yevropada mavjud) hamda elektr tovarlari ishlab chiqaradigan «AEG» (Germaniyada) kompaniyalarini o'ziga qo'shib oldi.

Bu firmalarning qo'shilishi natijasida «Elektrolyuks» dunyoda o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotlar tarmog'i bo'yicha lider bo'ldi. 75 mamlakatni elektrotexnika mahsulotlari va xizmatlari bilan ta'minlab

kelmoqda.. 90 yillar oxirida bu TMK ning barcha korxonalarida 110 ming dan ziyod kishi mehnat qilib va uning yillik mahsulot hajmi 16 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

9.3. Jahon xo‘jaligida TMKlarning tutgan o‘rni va roli

Ma’lumki, TMK o‘z faoliyatini kengaytirish orqali jahon bozorida yangi shakllarni o‘zlashtiradi. Bu shakllar TMK ga a’zo bo‘lmagan firmalar bilan aloqallar o‘rnatish, shartnomalar imzolash munosabatlari bilan amalga oshiriladi. Endi bunday firmalar TMK ning odatdagi iqtisodiy variantlariga tanlashlari mumkin bo‘ladi:

- litsenziyalash;
- franchayzing;
- boshqariladigan kontraktlar;
- texnik va marketing xizmatlarga e’tibor qaratish;
- «kaliti bilan» sanalgan korxonalar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish;
- ko‘shma korxona tashkil etish bo‘yicha kelishuvlar va alohida amalga oshiriladigan operatsiyalardagi cheklovga rioya qilish.

Litsenziya bitimi yuridik shartnoma bo‘lib, litsenziya egasi o‘ziga tegishli hududda bemolol faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Litsenziya munosabatlari soddalashtirilgan bo‘lib, bu hujjat ichki firma shartnomasidagi kabi, tashqi texnologik yo‘nalishlarda ham to‘la-to‘kis kuchga ega hisoblanadi.

Litsenziya bitimining asosiy ko‘rinishi franchayzing (franshiza) deb yuritiladi.

Franchayzing – bu litsenziyaviy bitim, davomiylik asosidagi muddatga ega. U ishlab chiqaruvchining o‘z mahsulotini biron-bir firma yoki korxonaga sotish huquqini berishi va mahsulotni sotish huquqiga ega bo‘lgan savdo firmasi yoki korxonasi. Franchayzing biznesni tashkil etish va amalga oshirish usuli sifatida 90 yillar oxirida ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan TMK ning bu shakli boshqaruv va marketing xizmatlarga e’tiborni kuchaytirishni talab etgan.

Texnik ko‘maklashish haqidagi shartnomaga ko‘ra TMK mavjud firmalarga texnik xizmatlar va ular faoliyatli nuqtai nazaridan zarur yordamni beradi. Aksariyat bitimlar mashina va texnologiyalarni profilaktik ta’mirlash, «nou-xou» ni amalga oshirishga maslahat berish, xavf-xatarlarning oldini olish va sifatli nazorat o‘rnatish borasida tuziladi.

Eng yirik bitimlar zavodlarning «kaliti bilan» deb nomlangan iqtisodiy aloqallari. bo‘yicha tuzilishi kuzatilmoqda. Bu holatda TMK o‘z zimmasiga firmaning barcha faoliyatini yuzaga chiqarish, rejalashtirish yoki kurish uchun zarur bo‘lgan ob’ektlarning saqlanish javobgarligini oladi.

Transmilliy korporatsiyalar Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida mehnatni yuqori baholash bo‘yicha dunyo xo‘jaligi taomiliga mos bo‘lgan tarzda asosiy rol o‘ynaydi. Barcha TMK lardagi yirik xorij investitsiyalari hozirgi vaqtda savdodan ko‘ra bandlik masalalariga ko‘proq jalb etiladi. TMK hozirda dunyodagi barcha xususiy sektorga tegishli investitsiyalarning 90% dan ko‘proq ulushini o‘z nazoratiga olgan.

TMK mahsulotlari tizimi sohasi yetarlicha keltirilgan. Dunyodagi 60 % Xalqaro kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish bilan, 37 % i xizmatlar ko‘rsatish bilan, 3% i esa kazib olish sanoati va qishloq xo‘jaligi sohasi bilan band.

Amerikada chiqarilgan «Fortun» jurnali ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi 500 ta yirik TMK o‘rtasida to‘rtta kompleks asosiy rol o‘ynaydi. Bular: elektronika, neftni qayta ishlash, ximiya va avtomobilsozlik. Ular 500 ta TMK ichida bu mahsulotlarni sotish bo‘yicha 80 % ulushga ega.

TMK ning Xalqaro iqtisodiy munosabatdagi rolida hududiy – sohalarga investitsiya kiritish bilan ham alohida harakterlanadi. qoidadagidek, ular asosan «yangi sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar» hamda taraqqiy etayotgan davlatlarga sanoat sohasida qayta qurishni jadallashtirish uchun kapital ajratmoqda. o‘z-o‘zidan bu holatda kapital oluvchi mamlakatlar o‘rtasida investitsion rakobat yuzaga kelmoqda..

Qashshoq mamlakatlar uchun transmilliy korporatsiyalar ko‘proq qazilma sanoat tarmoqlari va mahsulot eksporti yo‘nalishiga mablag‘ kiritadi. Bu holatda ham jadal raqobat yuzaga keladi, fakat bu raqobat mahalliy bozorlarni mahsulotlar bilan to‘ldirish uchun TMK larning o‘zlarida vujudga keladi.

TMK barcha jabhalarda Xalqaro iqtisodiy aloqallar tizimida u yoki bu mamlakat uchun ular takdirini belgilovchi faktor sifatida gavdalanadi. Faol ishlab chiqarish, investitsiya, savdo yo‘nalishida TMK ular uchun katta ko‘mak buluvchi dastak rolini bajaradi. BMT ekspertlari ta’kidlashicha, dunyo iqtisodiy integratsiyasiga ko‘shilishda bu mamlakatlar uchun TMK larning ahamiyati bekiyos.

TMK ayrim davlatlar an’analariga buysunmay u sohaga bostirib kiradi – degan edi BMT eksperti YUNKTAD ya’ni, BMTning savdo va

taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasida. Darhakikat, TMK ning faoliyati integratsiyalashuv, chegaralararo baynalminallik va shular orqali yuqori foydaga ega bo‘lishdan iborat.

o‘z o‘rnida TMK harakatining dunyo xo‘jaligi va Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ham ijobiy, ham salbiy ta’sirlari mavjud. Bu borada mutaxassislar quyidagicha fikrlaydilar:

- davlatning siyosiy – iqtisodiy munosabatiga TMK o‘z faoliyati bilan zid yuradi;
- davlat qonunlari buzuladi qo‘l kuchi transferter bahosini nomutanosiblashtiradi. Qator mamlakatlarda tashkil etilgan TMK sho‘‘ba kompaniyalari milliy qonunchiliklarni pisand etmaydi, aksincha mamlakat ichidagi soliq muammolariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarda monopolistik baho joriy etadi, diktaturaga xos sharoit vujudga keltiradi.

Xullas, trasmilliy korporatsiyalar – bu ancha murakkab va doimo xalqaro xo‘jalik aloqalari. tizimida rivojlanib boruvchi xususiyatni talab etuvchi hamda doimiy ravishda xalqaro nazoratni, o‘zlashtirib borishni va e’tiborni qaratishni talab qiladigan uyushma, birlashma hisoblanadi.

9.4. Erkin iqtisodiy zonalar (hududlar)

Erkin iqtisodiy hududlar dunyoning ko‘plab davlatlarida keng yoyilgan. XX asrning oxirlarida dunyoda turli xildagi 4 mingdan ortiq EIH mavjud edi. G‘arb mutaxassislarining fikricha 2002 yilga kelib jahon tovar aylanmasining 30%i turli erkin iqtisodiy hududlarda ro‘y berdi. Xalqaro korporatsiyalar o‘z faoliyatlari uchun imtiyozli sharoitlarni qidirib, EIHlarni ko‘p foyda olish mumkin bo‘lgan joy sifatida ko‘rishadi. Yirik xalqaro korporatsiyalar erkin iqtisodiy hududlarda o‘z ishlab chiqarishlarini tashkil qilishni ekspansiyalarining muhim yunalishi deb hisoblaydilar.

Erkin iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa qismlarida ishlatilmaydigan imtiyoz va rag‘batlantirishning o‘ziga xos tizimi qo‘llaniladigan milliy iqtisodiy hududning bir qismidir. Odatda EIH jug‘rofiy jihatdan u yoki bu darajada alohida hududdir.

Erkin iqtisodiy hududlar ularni tashkil qiluvchilar tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishdagi muhim bosqich sifatida ko‘riladi. Ularning faoliyat ko‘rsatishi tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va erkinlashtirish bilan bog‘lanadi. Erkin iqtisodiy

hududlarning iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqligi katta darajada bo‘ladi. Bojxona, soliq va investitsion rejimi esa tashqi va ichki investitsiyalar uchun qo‘laydir.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning muhim sabablaridan biri shundaki, ko‘pincha davlat iqtisodiyotini kapital oqimi uchun to‘liq ochishni, o‘ziga xos investitsiya oqimini hamma joyda ishlatishni istamaydi. Shuning uchun ham maxsus hudud sifatida qisman ochiqlikni ishlatadi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishda ikkita konseptual yondoshish qo‘llaniladi: hududiy va funksional (nuqtali). Birinchi holatda hududdagi barcha rezident korxonalar xo‘jalik faoliyatida imtiyozlardan foydalanadilar.

Erkin iqtisodiy hududlarning eng oddiy ko‘rinishlaridan biri **erkin bojxona (bojsiz) hududlari** (EBX) hisoblanadi. Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII-XVIII asrlardan buyon mavjud. Bunday hududlarni **ko‘pincha bond omborlari** yoki **erkin bojxona hududlari** deb ataladi. Erkin bojxona hududlari tovar olib kirish va olib chiqishda bojdan ozod qilinadi. Ular ko‘plab mamlakatlarda mavjud.

Erkin savdo hududlari (ESH) ham dunyoda keng tarqalgan. Erkin savdo hududlari AQShda eng ko‘p rivoj topgan. Ularni tashkil qilish 1934 yildagi maxsus qonunda nazarda tutilgan. Uning maqsadi savdoni rag‘batlantirish, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo harajatlarini kamaytirishdan iborat.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlardagi maxsus «dyuti fri» magazinlarini kiritish mumkin. Rejim nuqtai nazaridan ular davlat chegaralaridan tashqarida deb hisoblanadi. Erkin savdo hududlari qatoriga imtiyozli holatga ega bo‘lgan an’anaviy erkin portlarni kiritish mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlari hisoblanadi. Ular erkin savdo hududlariga faqat tovar emas, kapital ham olib kirilishi va ularda faqat savdo bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug‘ullanilishi oqibatida erkin savdo hududlarining evolyutsiyasi natijasida vujudga keladi.

Sanoat ishlab chiqarish hududlari maxsus boj rejimiga ega bo‘lgan hududlarda tashkil qilinadi. Ularda eksport uchun yoki import o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqiladi. Bu hududlar sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlarga ega bo‘ladilar.

Eksport ishlab chiqarish hududlarini tashkil qilish mantiqi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan belgilangan edi. o‘tgan asrning 60-yillarining o‘rtalarida bu yerda sanoat eksportini rag‘batlantirish va xorijiy kapital oqimi yordamida bandlik darajasini oshrish zaruriyati tug‘ilgan edi.

Texnika kiritish hududlari uchinchi avlod hududlari hisoblanadi (70-80-yillar). Ular stixiyali tarzda hosil bo‘ladi yoki maxsus ravishda davlat yordamida yirik ilmiy markazlar atrofida tashkil qilinadi. Ularda yagona soliq va moliyaviy tizimdan foydalanuvchi milliy va xorijiy tadqiqotchilik, loyixa, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi.

Eng ko‘p texnika kiritish hududlari AQSH, Yaponiya, Xitoyda faoliyat ko‘rsatmokda. AQShda ularni texnoparklar, Yaponiyada-texnopolislar, Xitoyda-yangi va ilg‘or texnologiyalar hududi deb ataladi.

Jahonda eng mashhur va AQShda eng yirik «Silikon Velli» nomli texnopark jahon hisoblash texnikasi vositalari va komp’yuterlar ishlab chiqarishining 20%ini beradi. Umuman AQShda 80 dan ortiq bunday hududlar mavjud. Yaponiyada mahsus hukumat dasturlari doirasida ilg‘or ilmiy tashkilotlar asosida yigirmaga yaqin texnopolislar tashkil qilingan. Xitoyda ham bunday hududlar odatda davlatning ilm va texnikani rivojlantirish rejalarini amalga oshirish paytida tashkil qilinadi. 90-yillarning o‘rtalarida Xitoyda 50dan ortiq yangi va ilg‘or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari ishlamoqda.

Turli moliya-iqtisodiy, sug‘urta va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi firma va tashkilotlar uchun tadbirkorlik faoliyatining imtiyozli sharoitlari yaratiladigan hududlar **servis hududlari** deb ataladi.

Servis hududlar qatoriga **offshor hududlar** (OH) va solih gavanlari (SG) kiradi. OH va SG tadbirkorlarni qo‘lay valyuta-moliya, fiskal sharoitlar, bank va tijorat sirlarining yaxshi saqlanishi, davlat boshqaruvining kamligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Offshor kompaniyalar faoliyat ko‘rsatayotgan davlatlar qatoriga Lixtenshteyn, Panama, Normandiya orollari, Men orollari (Britaniya), Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, Shveysariya va boshqalar kiradi. Oxirgi o‘n yillikda bularga Malta, Mavrikiya, G‘arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa davlatlar qo‘shildi.

Offshor hududlardagi sanoat, savdo, bank, sug‘urta va boshqa kompaniyalar yo umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki kichik miqdordagi soliqlar to‘laydi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar. Offshor hududlarni tashkil qiluvchi davlatlar qo‘shimcha xorijiy kapital jalb qilish, offshor hududda ro‘yxatga olingan

korxonadan foyda olish, mahalliy mutaxassislar uchun qo‘shimcha ish joylari tashqiqilinishi orqali foyda ko‘radilar. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda offshor biznesda band bo‘lgan kapital 500 mlrd. doll.ga yetadi. Unda qariyib 2 mln. kishi qatnashadi, va har yili bir necha ming yangi kompaniya ro‘yxatga olinadi.

Majmuaviy hududlar alohida ma’muriy tumanlar hududida umumiy xo‘jalik yuritish rejimiga nisbatan alohida, imtiyozli rejim o‘rnatish bilan tashqiqilinadi. Ularga Xitoyning 5ta mahsus iqtisodiy hududlarini, Braziliyadagi «Manuas» hududini, Argentinadagi «Olovli yer»ni, sanoati rivojlangan davlatlarning kam rivojlangan hududlaridagi erkin tadbirkorlik hududlarini kiritish mumkin.

Turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hududlarning o‘xshash tomonlari ularda o‘zida tadbirkorlar uchun bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlari va umumiy rejimga nisbatan ustunliklar bo‘lgan qulay investitsion iqlim mavjudligidadir. Turli hududlarda imtiyoz va rag‘batlantirishlar ba’zi jihatlari bilan farq qiladi.

Imtiyozlar turtta asosiy guruhga ajratiladi:

- **Tashqi savdo imtiyozlari.** Bu alohida bojxona-tarif rejimini kiritish (ekport-import bojlarini kamaytirish yoki bekor qilish) va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirish;
- **Soliq imtiyozlari**. Bunda faoliyatning ma’lum ko‘rinishlari soliq imtiyozlari orqali rag‘batlantiriladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk qiymati va h.k.), uning tarkibiy qismlari (amortizatsiya ajratmalari, ish haqiga harajat, transport), soliq stavkalarining darajasi, soliqqa tortilishdan doimiy va vaqtinchalik ozod qilish masalalari;
- **Moliyaviy imtiyozlar**. o‘z ichiga turli shakldagi subsidiyalarni oladi. Ularga kommunal xizmatlarning arzonligi, yer maydonlari va ishlab chiqarish binolari ijara haqini kamaytirish, imtiyozli kreditlar berish kiradi;
- **Ma’muriy imtiyozlar**. Korxonalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va xorijiy fuqarolar kirib-chiqishini yengillashtirish, shuningdek turli xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ma’muriyat tomonidan maxsus hududlar ajratilishi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilishning jahon tajribasi ularning umumiy yutuqlari, umumiy xususiyatlari va rivojlanishining o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi. Sanoati rivojlangan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar yaxshi

rejalashtirilganligi va ularni boshqarishning moslashuvchanligiga bog‘liqdir.

Bu hududlarni tashkil qilish ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan juda foydali bo‘lib, ko‘plab ish o‘rinlarini tashkil qilishda, halqaro tovar ayirboshlashni jonlantirishda, tashqi savdo aloqalari natijalarini yaxshilashda, ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda katta rol o‘ynaydi.

Rivojlanayotgan davlatlardagi erkin iqtisodiy hududlar ham o‘ziga xos qator o‘xshashliklarga egadirlar.

Birinchidan, bu davlatlarda eksport-ishlab chiqarish hududlari keng tarqalgan. Yuqorida aytilganidek, EICHH tashqiqilishga qator iqtisodiy sabablar, avvalambor, eksport uchun sanoat tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, mamlakatga xorijiy kapital, ilgor fan va texnika, zamonaviy texnik axborotlar jalb qilish zaruriyati kabi sabablar turtki bo‘ladi.

Ikkinchidan, erkin iqtisodiy hududlardagi xo‘jalik yuritish rejimi xorijiy ishbilarmonlar uchun erkinroq va imtiyozli bo‘ladi. Bu erkin iqtisodiy hududlar orasida xalqaro raqobatning kuchayishi bilan bog‘liqdir.

Uchinchidan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyati davomida ular faoliyatining tovar-sanoat diversifikatsiyasi ro‘y beradi. Zamonaviy ITI yangi va yuqori texnologiya ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan ilmtalab ishlab chiqarish jamlangan erkin iqtisodiy hududlarni ilgor o‘rinlarga olib chiqadi.

Rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoyda maxsus iqtisodiy hududlar sezilarli rivojlandi. 80-yillarning boshlarida maxsus hududlarga birlashtirilgan kichik-kichik hududlar bilan boshlagan Xitoy hukumati 90-yillarning boshlarida bunday hududlarni yuzlab kvadrat kilometrga yoydi. Malakatda va xorijda mashhur bo‘lgan **«Shenchjen», «Chjuxay», «Syamen», «Shantou», «Xaynan»**dan tashqari mamlakatda texnik-iqtisodiy hududlar (yigirmadan ortiq) va yangi va yuqori texnikani rivojlantirish hududlari - texnoparklar ham sezilarli rivojlandi. Shanxaydagi **«Pudun»** iqtisodiy rivojlanish hududiga alohida rol ajratilgan. Bu loyihaga ko‘ra «Pudun» hududi bir necha o‘n yil mobaynida Shanxayni Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi yirik savdo va moliyaviy markazga aylantiradi.

Erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilish Xitoy hukumati tomonidan 70-yillar oxirida e’lon qilingan **«ochiq eshiklar»** tashqi iqtisodiy siyosatning tashqiliy bir qismi bo‘lib qoldi. Erkin iqtisodiy hududlar rivojlantirish modelini tanlashda Xitoy rahbariyati mamlakatning joriy ehtiyojlari va bunday hududlar tashkil qilishning xorijiy tajribalarini e’tiborga oldi. Singapur, Tayvan va AQSH tajribasi alohida e’tibor bilan o‘rganildi. Erkin

iqtisodiy hududlar tashkil qilishga tayoyrgarlik davrida ular faoliyatining bir necha variantlari taklif qilindi. Natijada ekportga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshilashga yunaltirilgan EIH tanlab olindi. Maxsus iqtisodiy hududlar **«ochiq eshiklar»** siyosatini amalga oshirgan holda, mamlakatning boshqa tumanlarini bog‘lab turuvchi rolini o‘ynay boshladi.

Xitoydagi maxsus iqtisodiy hududlar va boshqa imtiyozli investitsion iqlimdagi tumanlar faoliyatining amaliyoti shubhasiz muvaffaqiyatga erishdi. Xitoylik va xorijiy mutaxassislar EIH erishgan yutuqlar qatoriga avvalo, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’ati, hududlarga ko‘p miqdorda xorijiy investitsyalarning jalb qilinishi, mehnat unumdorligining sezilarli o‘sishi va nihoyat, aholi turmush darajasining o‘sishini kiritishadi.

Erkin iqtisodiy hududlar muvaffaqiyati haqida guvohlik beruvchi misollardan tashqari ularni tashkil qilishda muvaffaqiyatsizlikka ham uchralgan. Masalan, Shri Lanka, Gvatemala, Liberiya, Senegal va boshqa davlatlarda turli ko‘rinishdagi erkin iqtisodiy hududlar nafaqat muvaffaqiyatsizlikka uchradi balki umuman faoliyatini to‘xtatdi. Buning asosiy sabablariga siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy sabablarni ko‘rsatish mumkin.

Siyosiy sabablar mamlakatdagi umumiy siyosiy beqarorlik, fuqarolar kelishmovchiliklari va boshqalardir. Iqtisodiy sabablarga avvalo, erkin iqtisodiy hududlardagi investor nuqtai nazaridan juda murakkab investitsion rejim haqidagi qonunchilik kiradi. EIXdagi byurokratik bashqaruv, hududda investorlarni ro‘yxatga olishda kerak bo‘lmagan protseduralar mavjudligi, hudud ustunliklarini yomon reklama qilinishi ham erkin iqtisodiy hududlar taqdiriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Nazorat savollari

1. Nima uchun transmilliy korporatsiyalar (TMK) «jahon iqtisodiyotining dvigateli» deb ataladi?
2. Dunyodagi jami TMKlarni sonini ayting.
3. TMK ning asosiy qismi qayerda to‘plangan?

4. Dunyodagi qaysi xalqaro savdo va sanoat mahsulotlari hajmida transmilliy korporatsiyaning ulushi qancha?
5. Xalqaro monopoliya iborasiga ta’rif bering.
6. Yirik va gigant xalqaro transmilliy korporatsiyalarni aytib o‘ting?
7. TMK faoliyatining asosiy xususiyatlariga ta’rif bering.
8. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda TMK ning ma’no va rolini ayting.
9. Mamlakat iqtisodiyotiga TMK ning salbiy ta’sir etuvchi jihatlarini gapirib bering.

X mavzu. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA XALQARO TASHKILOTLARNING O‘RNI VA ROLI

10.1. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari.
10.2. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi roli.

10.1. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari.

Xalqaro valyuta fondi (XVF). Xalqaro valyuta fondi 1944 yil iyulida AQSH ning Bretton-Vudse shahrida o‘tkazilgan BMT ning konferensiyasida tashkil etilgan. XVF ning nizomi esa 1945 yil dekabrda 29 ta mamlakat imzosi bilan tasdiqlangan. U 1947 yil mart oyida faoliyat boshladi va bosh binosi Vashingtondan joy oldi.

Bu davrda XVF ning asosiy yo‘nalishi (Nizom bo‘yicha) qo‘yidagilardan iborat edi.

- Xalqaro valyuta hamkorligiga ko‘maklashish, dunyo savdo taraqqiyotiga yordam berish;
- valyuta kurslarini boshqarish;
- to‘lovlarning ko‘p xilli tizimining amal qilinishiga ko‘maklashish;
- valyuta cheklovlaridan mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

XVF ga a’zo mamlakatlarning xorij valyutadan foydalangan chog‘ida to‘lov balanslarning har bir kvotalar uchun to‘lagan a’zolik badallari tashkil etadi. Kvotalar o‘lchami esa mamlakatlar iqtisodiyoti taraqqiyoti darajasini (YAIM hajmida) hamda ularning jahon xo‘jaligi va Xalqaro savdodagi rolini belgilaydi.

A’zolik badallar-kvota ovozlari soni va hajmi XVF organida rahbarlik qilish o‘rnini belgilaydi. Ayni vaqtda AQSH ning XVF kapitalidagi ulushi-17,7 % ni tashkil etadi va shu bois organga rahbarlik qiladi. Germaniya va Yaponiya ulushi – 5,5 % dan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariniki esa – 26 % dan ziyod. Bu fondda O‘zbekiston ulushi qariyb 296 mln. dollarini tashkil etadi.

XVF yuqori rahbarlik organi barcha a’zo davlatlarning moliya vazirlari yoki markaziy banklari rahbarlaridan tarkib topgan maslahat boshqaruvchilaridir. XVF–dunyodagi eng yirik kreditor tashkilot bo‘lib hisoblanadi. Hozirda u dunyodagi mavjud 200 dan ortiq mamlakatlarga kreditlar, ko‘maklashuvchi mablag‘lar ajratadi.

XVF kreditlari asosan mamlakatlarning chet el valyutalaridan foydalanganlarida to‘lov balanslarini barqaror holda turishi uchun beriladi. Kreditni olish uchun mamlakat avvalo o‘z hududida siyosiy va iqtisodiy qulay sharoitlarni saqlashi talab etiladi. XVF hozirda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- xalqaro valyuta tizimini nazoratga olishni;
- valyuta kurslarini barqarorligi va Fondga a’zo mamlakatlarning valyuta munosabatlarini tartibga solishni;
- o‘zining barcha a’zolariga ko‘maklashishni, to‘lov balanslari borasida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni, ularga qisqa va uzoq muddatli kreditlar berishni;

- a’zo mamlakatlaridan valyuta zahiralarini to‘ldirishni va SDR ni taqsimlashni;
- kvotalar badali hisobidan o‘zining moliyaviy resursini tashkil etishni.

Ayni paytda XVF oldida bir qator operativ masalalarni hal etish muammosi ko‘ndalang turibdi. Chunki xalqaro valyuta fondi - bu valyuta–moliya munosabatlari sohasida ancha obro‘li xalqaro tashkilot sanaladi.

Jahon banki (JB). Jahon banki XVF dan tashqari xalqaro valyuta-moliya munosabatlarida asosiy boshqaruvchi institutlardan biri sanaladi. U bir necha moliyaviy tashkilotlardan tashkil topgan:

- Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki MBRR-XTTB);
- XTTB ning 1945 yilda tashkil etilgan uchta filiali;
- 1956 yilda tuzilgan xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK);
- xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU; 1960 yilda tashqietilgan);
- 1988 yilda asos solingan Investitsiyalarni kafolatlash Xalqaro agentligi (IKXA);
- shuningdek, MBRR- XTTB ning Amerika, Osiyo, Afrika va Yevropadagi kontinental filiallari. Vashington sh.- Jahon bankining shtab-kvartirasi.

Jahon banki tizimida ya’ni Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) asosiy tashkiliy qismi hisoblanadi. MBRR a’zosi-xalqaro valyuta fondiga a’zo bo‘lgan mamlakat hamdir. MBRR ni boshqaruvchi yuqori-maslahat rahbariyati va direktoratdir. Uni AQSH hukumati – MBRR prezidenti boshqardi.

MBRRda ham XVF dagi singari kvotalar ovozi – a’zolik badallari muhim rol o‘ynaydi. Faqat farqi shundaki, MBRR a’zo mamlakatlar badallaridan tashqari xususiy kompaniyalar, turli moliya uyushmalari, jamoat va hukumat tashkilotlarining obligatsiyalari vositalarini ham qabul qiladi. Bu nufuzli bankda AQSH bilan birga, «kuchli yettilik» - Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Kanada, Italiya liderlik qiladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XVF singari) BMTning ixtisoslashgan tashkiloti hisoblanadi. U mustaqil moliya tashkiloti. Bu o‘zida xususiy maxsus yo‘nalish va vazifalarni bajarishni aks ettiradi.

MBRRning asosiy faoliyati-davlat kafolati bilan hukumatlarga uzoq muddatli kreditlar ajratish va bankka a’zo mamlakatlarning xususiy kompaniyalariga muddatli qarz berishdan iborat.

Jahon savdosi faoliyatidagi xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi boshqaruvni **Tariflar va savdo haqidagi bosh bitim (GATT**) tartibga soladi. U 1948 yilda tashkil etilgan. Dastlab unga 23 ta davlat a’zo edi. 1949 yildan 1995 yilgacha GAAT dunyodagi savdo qoidalarini joriy

etuvchi, siyosiy savdoni tashkil etuvchi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib turuvchi yagona Xalqaro targ'ibot organi hisoblanadi.

GAATning asosiy faoliyat shakli esa raund deb nomlanuvchi konsultatsiyalar berish, o'zaro suhbatlar o'tkazish yo'nalishidir. GAAT faoliyat boshlagandan buyon sakkizta raundni o'tadi. Shulardan eng so'nggisi 1986 yilda amalga oshirilgan Urugvay raundidir.

1995 yilda GAAT tarkibida Marakko shartnomasiga ko'ra **Jahon savdo tashkiloti** (JST) tashkil etildi. Unga 131 mamlakat a'zo bo'ldi.

JSTning asosiy funksiyalari:

- ko'ptaraflama savdo bitimlari bajarilishi tartiblarini nazoratga olish;
- savdo borasidagi kelishmovchiliklarga barham berish;
- Xalqaro savdo va savdo siyosati taraqqiyoti nazoratini olib borish;
- maqsadga texnik yondoshish va mutaxassislar o'kuvini tashkil etish;
- savdo siyosati masalalarida boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatish;

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya.

1964 yilda BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi bo'ldi va **YUNKTAD** tashkil etildi.

Uning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuviga kirishishi va mamlakatlarning xalqaro savdo tizimiga kirishuviga ko'maklashish;
- rivojlangan mamlakatlarda savdoga chiqariladigan mahsulot turlarini qoniqarli ekanini tasdiqlash va xalqaro savdo faoliyatini rivojlantirish;
- globallashuv va taraqqiyot, xalqaro savdo, investesiya va xizmat ko'rsatuv muammolari bo'yicha ko'p yoqlama suhbatlar o'tkazish.

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT). XMT 1919 yilda tashkil etilgan bo'lib, unga 171 mamlakat a'zo sanaladi.

Asosiy faoliyati:

- ish bilan ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish uchun milliy dasturlar ishlab chiqish;
- bilim olish va kasbiy tayyorgarlik uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- mehnat, sog'liqni saqlash va turmushdagi sharoitlarni yaxshilash;
- jamoalarda kelishilgan huquqiy munosabatlar va menejment va mehnat o'rtasidagi hamkorlikka e'tirof etish.

Manzili: Jeneva sh. Shvesariya.

Iqtisodiy va ijtimoiy Sovet (EKOSOS). EKOSOS a'zolari BMT a'zolariga tarkib topgan 54 ta mamlakat.

EKASOS faoliyati quyidagi uchta asosiy funksiyada o‘z aksini topadi:

- davlatlar o‘rtasida xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolardir, qayta ishlashga yo‘naltirilgan siyosiy liniyalar uchun muzokara va forumlar tashkil etish;
- BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalari, shuningdek, BMTning ixtisoslashgan idoralari masalalarini muvofiqlashtirib borish;
- xalqaro hamkorlikka va umumiy hamda maxsus iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga malakali tadqiqotlarni tayyorlash.

Sanoat taraqqiyoti bo‘yicha Milliy hamkorlik tashkiloti (YUNIDO). U 1966 yilda tashkil etilgan. YUNIDO rivojlanayotgan mamlakatlarni sanoatlashtiradi va ularning bu taraqqiyot yo‘liga milliy va xalqaro resurslarni safarbar etadi.

Milliy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot dasturi (PROON) rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy iqtisodiy sektoriga texnik va investitsiya yordami ko‘rsatadi. PROON 1965 yilda tashkil etildi. U ixtiyoriy badallar va faqat hukumatning aralashuvi va iltimosiga ko‘ra tushadigan mablag‘lar bilan moliyalashtiriladi.

BMTning savdo-sotiq va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO). U hukumat tashkilotlari o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligi borasidagi mehnat masalalari bilan ta'minlashda yagona va jamoa mehnati munosabatini muvofiqlashtirish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda savdo-sotik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari taraqqiyotiga ko‘maklashish, mutaxassislar tayyorlash va talab-takliflarni ishlash FAOning asosiy faoliyatlaridan sanaladi.

BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YEIK) 1947 yilda tashkil etilgan. Uning faoliyati urushdan keyingi Yevropaning iqtisodiy yuksalishiga ko‘maklashishdan iborat.

Afrika, Lotin Amerikasi va Karib havzasi (EKA, EKLAK) uchun iqtisodiy komissiya, Osiyo va Tinch okeani (ESKATO) uchun va Parij klubi (1956) uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya va boshqalar.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari o‘rtasida Xalqaro hisob banki (XHB) alohida o‘rin egallaydi.

XHB ikkita funksiyani bajaradi:

- markaziy banklar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatishga ko‘maklashish va Xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlarni yaratish;
- Xalqaro hisob ishlarida ishonchli shaxs yoki anketalar rolini bajarish;

XHB aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etilgan.

10.2.Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi roli.

Bugungi kunda O‘zbekiston **Halqaro valyuta fondi** XVF, 1992 yil 21 sentyabr) va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) a’zosi. Bu nufuzli moliya tashqilotlariga ochilgan yo‘l respublikamiz iqtisodiyoti taraqqiyoti va bu boradagi islohatlarni jadallashtirish uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu hamkorlik O‘zbekiston uchun valyuta va moliya sohasida yangi tajribalarni o‘zlashtirish imkonini ham berdi.

O‘zbekistonda XVF faoliyati respublika Markaziy banki va hukumatning texnik va konsultativ xizmatlarini yuqori darajaga ko‘tarishga qaratilgan. XVF mamlakatlar bank tizimlari taraqqiyotiga statistik ma’lumotlarni yengillashtirish, bank faoliyati nazoratlarini takomillashtirish, moliya tizimida kadrlarni o‘qitish, me’yoriy-huquqiy aktlar ishlanmasini tayyorlash kabi yumushlarda ko‘maklashadi.

O‘zbekiston uchun MBRR va Xalqaro tiklanish uyushmasi (MAR) bilan hamkorlik katta ahamiyat kasb etadi.

Jahon banki (JB). O‘zbekiston Respublikasi 1992 yil sentyabr oyida Jahon bankiga to‘la huquqli a’zo bo‘lib kirdi. Bugun O‘zbekistonda Jahon bankining moliyaviy institut guruhlari hamda xorij investitsiyalari kafolati bo‘yicha ko‘p yoklama agentlik va Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) o‘z faoliyatlarini olib borishmoqda.

Jahon bankining hamkorlik strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarda belgilab berilgan:

- valyuta va savdo tartibini erkinlashtirish sohasida istiqbollarni amalga oshirish uchun tahlilni, siyosiy va institutsion negizlarni tayyorlashga ko‘maklashish;

- xususiy sarmoyalar uchun yanada maqbul investitsion muhitni yaratishga ko‘maklashish;
- munitsipal infratuzilma taraqqiyoti va kommunal xizmat tizimining ishini takomillashtirish;
- mamlakatning kengaytirilgan drenaj va irrigatsiya infratuzilmasi saqlanishiga ko‘maklashish va uning samaradorligini yaxshilash.

Islom taraqqiyot banki (ITB). O‘zbekiston Respublikasi 2003 yil 27 avgustda ITB ga a’zo bo‘lib kirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Xalqaro moliyaviy korporatsiya (XMM). 1993 yil oktyabr oyidan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Xalqaro Moliyaviy Korporatsiyaga (XMK) a’zo bo‘lib kirdi. XMK ning O‘zbekistondagi faoliyat quyidagi yo‘nalishlarga qaratilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish;
- sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy xizmatning barcha tarmoqlarini moliyalashtirish .

Osiyo taraqqiyot banki (OTB). O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 29 iyuldan boshlab OTB bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

O‘zbekistonda OTB moliyalash strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi sohasi;
- transport (temir yo‘l va avtomobil) sohasi;
- ta’lim sohasi;
- moliya va bank sohasi;
- ijtimoiy soha;
- mikromoliyalash;
- energetika infratuzilmasi.

O‘zbekiston BMTning va **Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE)** ning tenghuquqli a’zosi. Ularning byurosi Toshkentda ochilgan.

O‘zbekiston Respublikasi **Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki (YETTB)** ga 1992 yil 30 apreldan a’zo. 1993 yildan esa YETTB loyihasi qatoridan joy olgan. YEBRRning O‘zbekistonga berayotgan moliyaviy va texnikaviy yordami ustivor sohalar-moliya, ma’danli xomashyo konlarini o‘zlashtirish va ularni sanoat yo‘li bilan qayta ishlash, energetika majmuasi, agrobiznes, paxtani qayta ishlash, sayyohlik, transport va aloqa tarmoqlariga sarflanmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonga jami so‘mmasi 550 mln. dollar, YETTB ulushi esa 250 mln. dollar bo‘lgan undan ziyod

yirik loyihalar kiritilgan. O‘zbekistonning integratsion taraqqiyoti dinamikasi jahon iqtisodiyotiga jadallik bilan kirib bormoqda.

Nazorat savollari

1. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tuzilishiga nimalar sabab bo‘lgan?
2. Siz qanday Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni bilasiz?
3. XVF qachon tashkil etilgan? XVF ning dunyo iqtisodiyotidagi roli haqida gapirib bering.
4. XVF fondida O‘zbekiston kvota summasi qancha?
5. Aytingchi, Jahon banki qanday tashkilotlardan tashkil topgan.
6. GAATning qanday yo‘nalishi va vazifalari bor? GAAT tarkibida qachon VTO-JST tashkil etildi?
7. XVF, XTTB, OTB YETTB va boshqa xalqaro valyuta – moliya va kredit tashkilotlari zamonaviy jahon iqtisodiyoti maydonida qanday rol o‘ynaydi?
8. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida dunyo valyuta-moliya va kredit uyushmalarining o‘rni va roli haqida qisqacha ma’lumot bering.

ASOSIY TUSHUNCHALAR LUG‘ATI

Absolyut (mutloq) ustunlik – manfaatlar, ya’ni tashqi savdo mamlakatlarining asosiy mahsulotdan keladigan foydadan yuqori ulush olishi.

Aksiya – qimmatbaho qog‘oz. U aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirishga mablag‘ sarflanganligi dalolati bo‘lib, uning egasi aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini divedend tariqasida olish huquqini beradi.

Aksiyadorlik jamiyati (AJ) – korxona, tashkilot va boshqa idoralarning mablag‘larini sherikchilik asosida va egalik maqsadida birlashtiradigan jamiyat. AJda xususiy kapitaldan boshqa zayomli kapitallarning bank krediti va chiqarilgan obligatsiyalari mulk sifatida hisoblanadi.

AJ aksiyadorlari odatda yuridik yoki jismoniy shaxslar bo‘ladi, ammo ba’zida banklar, ishlab chiqarish, savdo va sug‘urta kompaniyalari ham aksiyador bo‘lishi mumkin. AJning yuqori organi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi sanaladi va asosiy masalalar ushbu aksiyadorlar yig‘ilishida muhokama qilinadi.

Asosiy mablag‘laridan iborat investitsiya – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotining turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish.

Aniq investitsiyalar-qurilish**-**montaj, loyiha smeta ishlari, texnologiyalar, asbob-uskuna va xo‘jalik investorlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va chorvachilikni rivojlantirish kabi sohalarni rivojlantirishga kiritiladi.

Aholining tabiiy ravishda ko‘payishi – bir yilda aholining tug‘ilishi va o‘limi orasidagi farqlanish. Bu borada o‘zgaruvchanlik ijobiy yoxud salbiy holatda bo‘lishi mumkin.

Aholining migratsion o‘sishi – ma’lum hududga va chaqirilgan mamlakatga chetdan kelgan aholining mahalliy aholi o‘rtasidagi tafovuti. Bu indikator majmui ham salbiy, ham ijobiy holat yuzaga keltiradi.

«Aqlli migrantlar» («Brain drain») – Xalqaro migratsiya bozorida yuqori malakaga ega ishchilar (bilimli, mutaxassis, menejer va boshq.).

Barter – tovar ayirboshlash, ya'ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikki tovarni pul almashtirib olish. Bu savdo sxemasida «tovar ketidan tovar» deb ataluvchi so‘nggi shartnoma savdosi amal qilinadi.

Barter faoliyati o‘zida mamlakatlar, firmalar, korxonalar o‘rtasida valyutaning inqirozga uchramasligi va ularning rivojlanmagan mahsulotlari munosabatlarini aks ettiradi. Hozirgi zamon barter kelishuvining aniq shakllari – valyutasiz ayirboshlash, kompensatsiyali kelishuvlar, turli xil kirishlar. Barter hozirgi sharoitda aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotir.

Birja – strandartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori yoki qimmatli qog‘ozlar, oltin, chet el valyutalari (fond birjasi) bozori.

Byudjet harajatlari – ma'lum sohaga yo‘naltirilgan davlat harajatlari majmui.

Bojxona – chegra orqali o‘tadigan jami yuklarni, shu jumladan bagaj, pochta jo‘natmalar savdodagi mahsulotlarni nazorat qiladigan davlat idorasi. U o‘tkazilayotgan yuklarni tekshirish, ulardan bojxona yig‘imlari undirish bilan shug‘ullanadi.

Valyuta – tashqi iqtisodiy va Xalqaro aloqalarning boshqa shakllarida ishtirok etuvchi mamlakat milliy pul birligi.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi. Mutaxassislar fikricha, valyuta kurslari fiksirlangan va «suzuvchi» bo‘ladi.

Venchur korxonalar – firmalar, ya'ni ilmiy-tadqiqot, muhandislik ishlari, innovatsiyalarning yirik kompaniya yoki davlatlar shartnomasi asosida tayyorlovchi korxonalar. Bunday firmalar odatda keng miqyosda marketing, konsultatsiya va reklamalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchilar bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiy dasturi – iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarilishining yuqori shakli – Bunda iqtisodiyot barcha ustivor sohalar yaxlit tarzda, oddiy elementlargacha majmua shaklida amalga oshiriladi.

Devalvatsiya – pul birligi kursining boshqa mamlakatlarning valyutalariga nisbatan pasayishi. Bu to‘lov balanslarining inflyatsiyasi va yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladi.

Daromadlar joylashish koeffitsiyenti (Jin indeksi) – aholining keng qatlamiga mavjud foyda summasini teng holatda taqsimlash ko‘rsatkichi. Jamoatchilik orasida ba'zida teng tarzda foyda ko‘rish yuz bermasligi mumkin, shu bois koeffitsiyent o‘lchami 0 dan 1 gacha o‘zgarishda bo‘ladi.

Deflyator – mamlakat yalpi mahsulotining real va nominal hajmidagi bahosi. U muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va kredit tadbirlarni qo‘llab, muomaladagi naqd pulni qadrsizlanishini oldini oladi.

Diversifikatsiya – turlicha, turli xil rivojlanish. Masalan, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash-ishlab chiqarishning ko‘pdan-ko‘p, bir-biri bilan bog‘lanmagan turlarini birvarakayiga rivojlantirish ishlab chiqarilayotgan buyumlar turini kengaytirish.

Dividend – AJdan tushadigan foyda, ya’ni har yili aksiyadorlar o‘rtasida aksiyalarning turi va soniga qarab bo‘linadigan foyda qismi. Tajribaga ko‘ra dividend miqdori oddiy aksiyalar bo‘yicha korxonaning o‘sha yilda ko‘rgan foydasiga bog‘liq bo‘lsa, imtiyozli aksiyalarning dividend miqdori esa aksiyalarning nominal bahosiga qat’iy tarzda stavka miqdorida oldindan qayd etilgan bo‘ladi.

Ishsizlik (Xalqaro mehnat taqsimoti talablari darajasida) – 16 yosh va undan katta aholining o‘ziga ish topa olmasdan kolishi. U esa uch kategoriyaga bo‘linadi:

- Foyda keltiruvchi ish topolmaydiganlar;
- Yo‘llanma bilangina ishlaydilar (ya’ni, mehnatni tashkil etish idorasiga murojaat etib, korxona ma’muriyatida vositasiz ishlaydilar, xullas biror yo‘llanma bilan xususiy ish bajaradilar);
- Ishga kirishga tayyor turadiganlar.

Ish tashlash (zabastovka) – vaqtincha ishlashdan to‘xtash, ya’ni joyi yoki ish borasida biror sharoit yaratilishini talab qilib, ish tashlash.

Ishsizlik darajasi – iqtisodiy faol aholining ish yo‘qligi oqibatida ular safining kengayib borishi, ishsizlar soni oshishi.

Ishsizlik davomiyligi – aholi iqtisodiy faol qismining o‘ziga ish topa olmasdan qolishi, mehnat rezerv armiyasiga aylanib qolishi.

Ish bilan bandlik to‘g‘risida ma’lumotlar manbai aholini ro‘yxatga olish va davlat, korxona va tashkilotlarning hisobotidir. Mehnatga yaroqli aholi tarkibida ish bilan band bo‘lganlar hissasi mehnat potensiallidan foydalanish me’yorini harakterlaydi. Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun ish o‘rinlarini yaratish, ishga tushirish aholi tabiiy o‘sishidan orqada qolmaslik lozim.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish – bozor-iqtisodiyoti jarayonlarida davlatga qarashli tashkilot va jamoaviy uyushma, korxonalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilinishi va unga doir qonun-qoidalarni davlat tomonidan bajarilishini ta’minlash.

Immigratsiya – ishlash uchun boshqa mamlakatga ketgan aholi.

Import – xorijdan mahsulot va xizmatlarning kelishi (shuningdek, kapitallar, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar). Ichki bozorda bu mamlakatlar tovarlarining sotilishi.

Iste’mol baho indeksi – biror mahsulot yoki xizmatning iste’molchi tomonidan barkaror harid qilish qobiliyatiga egalik ko‘rsatkichi.

Iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ulanish – fuqaroning ma’lum davrda taqdirlanishi uchun mehnat bilan shug‘ulanishi yoki o‘zicha o‘z foydasi uchun alohida sherikchilik asosida ish bilan shug‘ullanishi. Mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir etuvchi har qanday faoliyat bilan shug‘ulanish va bunda o‘zi pul topishi, aksincha davlatdan maosh talab qilmasligi tushuniladi.

Ishlab chiqarishdagi mahsulot (ish, xizmat) hajmi – ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarning moddiy manfaatdorlik va xizmatlar harakteristikasi, mo‘ljallangan davrda narx-navolarning o‘sish hisob-kitobi; tayyor mahsulotlar, yarimfabrikatlar, ishlab chiqarish xizmati ko‘rinishlari, sotish va kapital qurilishlar majmui. Bu davrda korxona mavjud ishlab chiqarish turlaridan tashqari boshqa xil mahsulotlarni ham ishlab chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi) – mavjud tovar va xizmatlarni bajarish uchun jalb etiladigan qo‘l kuchi aholisi. Iqtisodiy faol aholi iqtisodiyotda band bo‘lgan va ishsiz bo‘lgan ishchi kuchlariga nisbatan aytiladi.

Iqtisodiy aylanma oborot – xo‘jalik sohasida foyda va harajat, pul-mablag‘, resurs va mahsulotlarning harakati.

Iqtisodiy taraqqiyot – ko‘p omilli jarayon, evolyutsion xo‘jalik mexanizmi, iqtisodiy tizimning yuqori tasviri.

Iqtisodiy o‘sish sifati – iqtisodiy o‘sishning umumlashgan sifat harakteristikasi, uning qanday sarflar bilan ta’minlangan va qanday iqtisodiy-ijtimoiy natija berganligini ifodalaydi.

o‘tgan asrning so‘nggi yillarida iqtisodiy o‘sishning yangi sifati paydo bo‘ladi. Bu mahsulotlarning inson uchun ekologik tozaligi, ya’ni sog‘ligiga zarar keltirmasligi, ishlab chiqarishning esa atrof-muhitga zarar keltirmasligi, ekologik muvozanatni buzmasligidan iboratdir.

Klering – tovarlar, qimmatbaho qog‘ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob – kitob qilish tizimi. Bu tizim o‘zaro talablar va majburiyatlarni bajarilishiga asoslangan. Aytish mumkinki, kliring

rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida valyutani erkin konvertatsiya qilish borasida chegaralanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kompensatsion bitim – uzoq muddatli tashqi savdo kelishuvlari shakli haridorga takdim etilgan mahsulot yoki ko‘rsatilish lozim bo‘lgan xizmatning to‘lov borasidagi yengilligi.

Tajribada ko‘rinishicha, tomonlarning aniq kelishuvlari so‘nggida ro‘yxatdagi tovarlarning soni va bahosi sifat darajalariga mos kelishi shart etib belgilangan.

Kon’yuktura – ayni paytdagi iqtisodiyotda kechayotgan qandaydir o‘zgarishlar va ob’ektiv ahvolning holati.

Kuponli foyda keltiruvchi federal obligatsiya zayomlari (OFZ) – Rossiya Federatsiyasining davlat shaklidagi qimmatli qog‘ozi (zayomi) bo‘lib, u zayomni olgan kishiga o‘z nominal qiymatini saqlagan holda foyda keltirishi mumkin. Yutuk chiqmasa uning qiymati saklanadi, yutuq chiqqanda esa aniqlangan pul kupon shaklida zayom sohibiga beriladi.

Litsenziya – texnikaviy, iqtisodiy, ilmiy yangiliklar egasining ularni ishlatish uchun beradigan ruxsati. Davlat yoki korxona, tashkilotlar tomonidan biror iqtisodiy faoliyatni bajarishga rozilik berish, ixtirolarga, texnik yangiliklarga, ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish sirlari, tijorat axborotlaridan ma’lum vaqtga foydalanish uchun beriladi.

Mashina va uskunalar ijarasi – kredit eksporti shakli, mol-mulkni ma’lum muddatda va haq to‘lab ishlatib turish yuzasidan bo‘lgan iqtisodiy munosabat.

Bunday ijara usuli qisqa muddatli (reyting), o‘rta muddatli (xayring) va uzoq muddatli (lizing) bo‘lishi mumkin. Ijara haki korxona daromadining bir qismi bo‘lib, ijarachi va ijaraga beruvchi o‘rtasida shartnoma yo‘li bilan korxonaning rentabelligi va rivojlanish istiqbolini hisobga olib o‘rnatiladi.

Muddatli qarz – qarzdorlik, sheriklar o‘rtasidagi o‘zaro shartnomaga ko‘ra muddati o‘zgarmas qarz.

Mahsulot negizi bahosi indeksi – ayni paytdagi mahsulot bahosini uning negizi tengligiga bo‘lgan mutanosibligi.

Milliy boylik – mamlakatning jami resursi ya’ni ishlatilgan va ishlatilmagan potensiallar, aholi turmush tarzi uchun zarur mahsulot va xizmatlar. Milliy boylik hajmiga doirasida moliyasiz aktivlar (asosiy fondlar, zahiralar, boyliklar) va moliyali aktivlar (yer, yerosti qazilmalar, tabiiy resurslar, moddiy va mavjud aktivlar), shuningdek aholining o‘zlarida mavjud bo‘lgan xususiy mulklar kiradi.

Mumkin qadar qulaylik berish rejimi – Xalqaro savdo tajribasida o‘zida qulay sharoitli bozorni vujudga keltiruvchi omil; savdo borasida kelishilgan bitimga ko‘ra ikki davlatning barcha huquqi, afzalligi, imtiyozli va bu rejimning uchinchi davlatga ham bo‘lgan ta’siri.

Milliy hisob-kitob tizimi (SNS-MHT) – ichki aloqallar va qo‘shma makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning integratsiyalashgan tizimi. U hisob-kitoblar turi, balans va jadval, Xalqaro hamkorlik borasida qabul qilingan tushuncha va aniqliklarni o‘zida aks ettiradi. Milliy hisob-kitob tizimi mikroiqtisodiy tahlillar, iqtisodiy siyosatni shakllantirish va ular uchun qarorlar qabul qilish uchun tanlangan.

Moliyalash stavkasi – Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki tomonidan qisqa muddatga kredit berish, tijorat banklaridagi mavjud kreditga ajratiladigan summalarni markazlash kredit resursiga jalb etish stavkasi.

«Narx-navo qaychisi» - savdo borasida yaratiladigan sharoitlarning asosiy shaklaridan biri. Savdo ishida sheriklarning iqtisodiy kelishuvi bilan eksport va import faoliyatida narxlar o‘zaro tushiriladi.

Bu ko‘rsatkich tashqi savdo statistikasiga bir necha ilgari to‘g‘ri kelmagan, alohida ajralib turuvchi mahsulotlarni-da kiritilishini texnikaviy, konstruktorlik va boshqa sirlari, mahsulot ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo‘lgan texnikaviy tijorat va boshqa bilimlar **Norizedentlar**– davlatning xorijiy mamlakatlarini boshqarish, ya’ni xorijdagi korporatsiyalar, hukumat ofislari, elchixonalar, qo‘shma korxonalar, chet mamlakatlar chegralaridagi korxona egalari, shuningdek, xorijda doimiy yashovchilar va bu yurtga keluvchilar norezident sanalishadi.

Nisbiy afzallik – manfaat, foyda. U tashqi savdoga a’zo mamlakatlarning turli mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari tushuniladi.

«Ofset» bitimi – muqobil bozor shakli; u nafaqat tovarlar yoki xizmatlar ayirboshlash borasida, balki mamlakat ichkarisiga foydali bo‘lgan investitsiyalarning kiritilishi va javob tarzida ularga imtiyoz va sharoitlar yaratish masalasida o‘ziga xos kelishuv vazifasini o‘taydi. U ishlab chiqarish kooperatsiyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi yuzasidan ham shartnomalar imzolanishiga sabab bo‘luvchi faoliyat hamdir.

Protoksionizm – tashqi savdo siyosati prinsipi, davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Revalvatsiya – pul birligi kursining boshqa mamlakatlarning valyutalariga nisbatan ko‘tarilishi.

Rezidentlar – jismoniy yoki yuridik shaxslar, ya’ni boshqa mamlakatda doimiy yashayotgan fuqarolar.

Reimport – ichki bozorda sotish, importdan farqli o‘laroq mamlakatga xorijiy tovarlarni qayta ishlash va xizmatlarni ko‘rsatish uchun kirtish. Reimport miqdori va tarkibi mamlakatning Xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rniga bog‘liq. Uning tarkibini yarim fabrikatlar, xomashyolar, mashina va asbob-uskunalar, yarim qayta ishlangan iste’mol mollari tashkil qiladi.

Reeksport – eksportga qarang.

Real ish haqi – tovar va xizmatlar uchun haq to‘lash majmuasi, ayni davrda ish haqi uchun berilayotgan summa. Bu summa soliqlar iste’molchi indeksi va boshqa to‘lovlardan tashqari bo‘lgan mehnati haqidir.

Savdo to‘sig‘i – odatda tariflar, cheklashlar yoki valyuta nazorati tarzida mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar erkin almashinuvining sun’iy cheklanish.

Savdo haqida gap ketar ekan, ular barter faoliyati, harid baholari, kompensatsion bitimlar, kliring, «ofset» faoliyati kabi yo‘nalishlarda bo‘ladi.

Sanoat mahsulotlari hajmining harakatdagi indeksi – nisbiy ko‘rsatkich, ya’ni ayni paytda muomalada bo‘lgan sanoat mollarining ishlab chiqarish harakteristikasi.

SIF»(«Cost. lnsuranct, Frtiqlrt) – Xalqaro savdoda mahsulotlarni olish va ular uchun to‘lovlarni amalga oshirish tartibidagi tijoriy sharoitlar yaratuvchi tashkilot. SIFlar Xalqaro bozorda mahsulotlarning sotuvdagi bahosini barqaror ushlash ularni sug‘urtalash va portlargacha transportirovka qilish faoliyati bilan shug‘ullanishadi.

Siyosiy narx – narx, u yig‘imdagi mavjud narxlar axboroti va indeksatsiyalangan baho o‘rtasida taqqoslanib, chiqariladigan narx.

SPOT – mahsulotlarni nakd pul orqali biror summada sotish va harid qilish uchun kelishish. Bu kelishish tezda bajariladigan ish.

Savdo foydasi – tovarlarni iste’molchiga yetkazishda sotib olish bahosi bilan sotish o‘rtasidagi farq hisobga olinadigan foyda. Savdo foydasining o‘sishi-savdo ishining moddiy bazasini mustahkamlashga ham bog‘liq.

Savdo - harid qilish borasidagi musobaqalashuv shakli; mahsulotni oluvchilarga go‘yo konkurs shaklida ta’riflab sotish. Chet el firmalari orasida bu yo‘l bilan mahsulotni ko‘z-ko‘z qilish Xalqaro darajaga

chiqqan. Bunday tenderlarda **ochiq** (qiziqqan kompaniyalarga barcha mahsulotlari ta'rifini keltirish) va **yopiq** (faqat dunyoning mashhur kompaniyalariga mahsulotlarini ta'riflash) usullari mavjud.

Tashqi savdo balansi – eksport (mamlakatdan chiqariladigan mahsulot va xizmat bahosi) va import (chetdan mamlakatga kiritiladigan mahsulot va xizmat bahosi) o'rtasida pul shaklida ifodalangan nisbat. Savdo balansi ikki turga bo'linadi: aktiv balans – eksport importdan ortiq va mamlakatdan tashqaridan oqib kelib, moliyaviy ahvol faollashadi, **passiv balansda** esa import eksportdan ustun, mamlakatdan valyuta chiqib keta boshlaydi, moliyaviy ahvol zaiflashadi. Shuningdek, eksport va importdagi mahsulot va xizmatlar bahosini tenglashtirib turuvchi **Netto balans** ham bor.

Tashqi qarz – davlatning xorijiy mamlakatlar qarz beruvchi bank va moliya muassasalaridan zayom va kreditlar olishi, natijasida paydo bo'lgan qarzi. Bu borada mutaxassislar kapital va kundalik deya ataluvchi davlat qarzlari mavjudligini aytishadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiyotdagi qarzi ancha oshgan, «bu esa ular uchun 20-30 % lik yillik daromadini shu qarzni to'lashga jalb etishlariga to'g'ri kelmoqda».

Tashqi savdoni kreditlash – pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma'lum foiz to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish. Bu Xalqaro pul ayirboshlashda asosiy vositalardan sanaladi.

Tashqi savdo kreditlari eksportli va importli shakllarda bo'lib, u firma yoki korxonalarga qisqa (1 yilgacha), o'rta (2 yildan 7 yilgacha) va uzoq muddatlarga beriladi.

Turmush xo'jaligini globallashtirish – mamlakatlar, hududlar va firmalar o'rtasida turli iqtisodiy aloqalar taraqqiyotini yaxlit dunyo xo'jaligi tarzida joylashtirish.

Tovar dempingi – tovar mahsulot narxlarini Xalqaro kamsitilishi. Bunda eksport bilan shug'ullanadigan firma ayrim mamlakatlarda o'zining molini boshqa yordamchilarga nisbatan arzon baholarda sotadi.

Takomillashgan investitsiya kapitali – pul vositasi, ya'ni qurilish (yuksalish, ta'mirlash, zamonaviylashtirish) uchun va investor kiritgan mablag' hisobidan o'sha ob'ektni texnologiya – va zarur uskunalar bilan ta'minlashdagi yirik kapital. Bu sarmoya korxona yoki tashkilot uchun aktiv sanalgan mablag'dir.

Tovar ayirboshlash hajmi harakati indeksi – nisbiy ko'rsatkich, ayni vaqtdagi muammolarda bo'lgan sanoat mahsulotlarining sotuvdagi xajmi kursatkichi. Bunda faqat individual indeks mavjud bo'lib, bir

mahsulotning sotuvdagi hajmini boshqa mahsulot ayirboshlashdagi hajmi majmuiga qiyoslanishi va ularning narxlaridagi tafovut tovarlar hajmidagi bahoga nisbatan dinamik o‘sish.

Tabiiy suratda o‘sish koeffitsiyenti-tug‘ilish va o‘lim borasidagi umumiy o‘zgarish koeffitsiyenti.

Transmilliy korporatsiya (TMK) – yirik kompaniya, u Xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatadi, ammo mamlakatning milliy kapitali hisobidan moliyalanadi.

Transfertlar – iqtisodiy boylik, bir tomonlama tartibda ikkinchi tomon ishtirokini ta’minlash.

Tashkil etilmagan eksport (import) – jismoniy shaxslar tomonidan qonuniy tarzda mamlakatga kiritgan yoki mamlakatdan chiqargan holdagi mahsulotlar savdosi.

Tarif cheklovlari – iqtisodiy va ma’muriy qonunchiligiga asoslangan summa, u tashqi savdo boshqaruvida boj-tarif siyosatini aks ettiruvchi funksiyadir.

Mutaxassislar tarif cheklovlarini quyidagi guruhlarga bo‘ladi:

- tashqi savdo operatsiyalariga davlat aralashuvi (mahsulot ishlab chiqarishga pul mablag‘lari berish. tovarlar eksporti, poshlinalarga imtiyoz berish va h.k.);
- bojxona va ma’muriy tartiblarni amalga oshirish; (dempinga qarshi tartiblar, bojxona va elchilik masalalaridagi qonunchilik cheklovlari va boshq.);
- tashqi savdoda texnik ko‘riklar tashkil etish (sanitariya-veterinariya me’yorlar, mahsulotlarni qadoqlash va markirovkalashni talab qilish);
- alohida qonuniy cheklovlar (import litsenziyalari, cheklovlar soni va boshq);
- import jarayonida yig‘im va to‘lov mexanizmini ijro etish (chegaralararo soliq rejimi, importdagi depozitlar, statistik tadqiqotlar va boshq.).

Bu kabi cheklovlar barcha import mahsulotlarida, asosan esa savdo-sotiq, mineral xomashyolar, cho‘yan, po‘lat, to‘qimachilik tekstil mahsulotlarida mavjud.

To‘lov balansi – mamlakatning chet elga to‘laydigan puli bilan unga chet eldan tushadigan pul o‘rtasidagi nisbat. Mamlakatning xorijiy sarf-harajatlari to‘lov yo‘li bilan qoplanadi. To‘lov turkumiga tashqi qarz, uning foizi, chetdan olingan tovarlar va xizmatlar haqi, xorij

invenstitsiyasi, xorijda diplomatik ishlarni, iqtisodiy aloqalarni yuritish, fuqarolarning chet elga pul o‘tkazishlari kabilar kiradi.

To‘lov balansi mamlakatning Xalqaro miqyosdagi iqtisodiy mavqei kuchli yoki zaifligini, Xalqaro hamjamiyatdagi obru-e’tiborini ifodalaydi.

Umumiy migratsiyaning jadallik koeffitsiyenti-indikator, ya’ni ayni davrda aholi yashash joyidan chetga ishlashga yoki ko‘chib borish munosabatlarini o‘lchash ma’nosidagi ko‘rsatkich.

Uy xo‘jaligi harajati – iste’mol munosabatlar uchun qilinadigan jami harajatlar. Bunda turmush kechirish uchun qilinadigan barcha pul mablag‘lari, ish va xizmatlarga sarflanadigan summalar tushuniladi. Uy xo‘jaligi harajatlariga jamg‘arilgan pulning solikdan tashqari bo‘lgan pensiyalar, ijtimoiy sug‘urtalanish badallari, pul o‘tkazmalari sovg‘alar uchun qilinadigan harajatlar majmui asos bo‘ladi.

Fermer xo‘jaligi – o‘z xususiy yeri yoki ijaraga olingan yerda tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha amalga oshiriladigan qishloq xo‘jalik korxonasi. Fermer xo‘jaliklari sohib (fermer) va oila a’zolari kuchi bilan yuritiladi.

Foyda (zarar) – qo‘shimcha mahsulotning pul shakli, korxona, (tashqilot), biror soha va jami halq xo‘jaligi ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi. Foyda daromadning bir qismi, yalpi mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarish va sotish harajatlari o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Agar ishlab chiqarish va sotish harajatlari yalpi mahsulot kiymatidan ustun bo‘lsa, foyda o‘rniga zarar ko‘riladi. Foydaning muvozanat, hisob-kitob va qoldik shakllari mavjud.

FOB («Free on Board») – Xalqaro bozorda mahsulotlarni olish va ular uchun to‘lovlarni amalga oshirish tartibidagi tijoriy sharoitlar yaratuvchi tashkilot. U asosan dengiz portlarida mol-mahsulotlarni tushirish va yuklash yumushlarini bajaradi. FOB trasnsport xizmatlari ko‘rsatgani uchun franko-vagon deyiladi. Bu tashkilot o‘z xizmatlari bilan buyurtmachining bozordagi mahsulotlari narxini ko‘tarilishiga sabab bo‘lmaydi. Xizmat hisob-kitobi, umuman olganda mavjud tovar narxiga ta’sir o‘tkazmaydi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi – ishlash uchun bir davlatdan ikkinchi davlatga uzog‘i bilan bir yil muddatga ketgan aholi. Ular iqtisodiy sabablar yoxud boshqa masalalar bo‘yicha chiqarilishi ham mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti (XMT) – alohida mahsulot turi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mamlakatlarning jahon bozorida boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro mehnat taqsimotiga kirishishi. MRT jahon bozori

taraqqiyotida, Xalqaro iqtisodiy aloqalarda va dunyo xo‘jaligidagi milliy iqtisodiy hamkorlikda asosiy rollardan birini o‘ynaydi.

Xalqaro korporatsiya (XK) – Xalqaro va milliy iqtisodiyot sohasida yirik sanoat uyushmalari, savdo, transport va bank kompaniyalarining faoliyati.

Xalqaro auksion – alohida xususiyatlarga ega mahsulotlarni ommaviy sotuvga qo‘yish yo‘li bilan sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kimoshdi savdo bozorlari. Jahon kimoshdi savdo faoliyati tajribalariga ko‘ra, auksion savdo tovarlarning mo‘yna, qorako‘l teri, tamaki, choy, badiiy hunarmandchilik buyumlari, ot kabi nisbatan cheklangan ro‘yxati bo‘yicha o‘tkazildi.

Ko‘pgina Xalqaro auksionlar Londonda (Buyuk Britaniya), Nyu-York (AQSH), Monreal (Kanada), Amsterdam (Niderlandiya), Kalkutta (Hindiston) va Kolombo (Shri-Lanka) da o‘tkaziladi.

Harid baholari – savdo yo‘nalishining asosiy shakllaridan biri. U yoki 5 yilgacha belgilanadi. Harid baholari odatda markazlashgan tartibda mahsulot ishlab chiqarishga iqtisodiy asoslangan harajatlarni qoplash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun zaruriy jamg‘arishni ta’minlash bo‘yicha belgilanadi.

«Qochkin kapital» - migratsiya munosabati bilan kreditga berilgan kapitalning bozor iqtisodiyotidagi alohida mamlakatlar o‘rtasidagi ajratmasi. Bunday kapitallar ba’zan bank foizida yuqori stavkali bo‘ladi, Oqibatda Xalqaro kapital bozorida balanslar borasida me’yoriy qoidalarni buzilishiga olib keladi.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) – biror mamlakatda bir yilda yaratilgan barcha mahsulot va xizmatlarning barqaror ulgurji baholarda o‘lchangan qiymati.

YAIM hisob-kitobi uch xil uslubda amalga oshiriladi. Ya’ni **foyda hisobidan** shaxslar daromadi summasi, aksiyadorlik jamiyat va xususiy kompaniya va davlatning mamlakat ichkarisidagi korxonalari daromadi summasi: **harajat hisobidan** (kapital chiqarish, davlat va xususiy sub’ekt uchun zaruratli chiqimlar); va qo‘shimcha **narxlarda** (iqtisodiyotning barcha sohalari mahsulotlarining haqiqiy baholari summasi).

Yalpi milliy mahsulot (YAMM) – mamlakat – ijtimoiy taraqqiyotining umumiy ko‘rsatkichi, ya’ni ishlab chiqarilgan barcha tovar va xizmatlarni birgalikdagi hisobi, moddiy va ma’naviy sohalardagi mol-mahsulotlarning bir yillik ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatidagi hisob summasi.

Chegara oldi savdosi – Xalqaro tovarlar ayirboshlashdagi muhim tur, mamlakat tashqi savdosining tarkibiy qismi. Savdo va to‘lov bitimlari, yillik bayonnomalar asosida qo‘shni davlatlar chegara oldi muzofotlarlarining savdo tashkilotlari va firmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday tovar ayirboshlashlar ko‘shni mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy aloqallarni mustahkamlaydi. Mahsulotlar assortimentini kengaytirishga zamin yaratadi.

Chet el investitsiyasi – foyda, dividend yoki daromadlarning boshqa shakllarni olish maqsadida sanoat, qishloq xo‘jaligi, umuman korxonalarga chet ellik sarmoyadorning ma’lum mablag‘ kiritishi.

Tajribada investorlar chet elning yuridik yoki jismoniy shaxsi, hamda davlat va Xalqaro tashkilot a’zosi bo‘lishi mumkin.

Ular individual va umumiy holda bo‘ladi. Yakka indeksda bitta chiqarilgan mahsulotning boshqa bir necha muvoffaqiyatli ekani, umumiy indeksda esa mahsulot ishlab chiqarilishi va ularni narxlari tovarlar hajmiga nisbatan dinamik o‘sishida aks etadi.

Eng kam ish haqi – Ayni davrdagi paytda ish haqining o‘zgarmasligi, u pul birligida ifodalanadi.

Erkin savdo – tashqi savdo siyosati prinsipi, har qanday firma yoki tadbirkorning tashqi savdo bozorida erkin savdo munosabatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan tushuncha.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitalni tashqi savdoga chiqarish. Eksport predmetlari tovar singari xizmat qiladi, u mamlakat ichkarisida qayta ishlanib, chegraga olib boriladi. Reeksport (kaytib keluvchi yuk) o‘zida tashqi savdo bozoriga mahsulotni chiqarishdan oldingi qayta to‘liq ishlovchi faoliyatni aks ettiradi.

Eksport (import) kvota – ma’lum tovarlarni ishlab chiqarish va eksportga yetkazib berishning belgilab qo‘yilgan hajmi; import kvota esa har yili xorijiy mamlakatdan keladigan mahsulotlar hajmini miqdor jihatidan cheklab qo‘yish.

Eksport krediti – eksporti kreditorlar (firma, bank va hukumat kabilar) xorijlik sheriklariga ularni qiziqtirgan mahsulot va xizmatlarni tasarruflariga olishlari uchun kredit ajratishi, Eksport krediti sug‘urta tizimi eksportchilarning mablag‘lari qadrsizlanishi va foizi bilan qaytishini kafolatlaydi.

Emigratsatsiya – chet mamlakatga ko‘chib, o‘sha yerda doimiy yashayotgan muhojirlik.

GLOSSARIY (XALQARO TASHKILOTLAR)

Butunjahon savdo uyushmasi (VTO) – 1995 yilda ta'riflar va savdo haqidagi bosh bitim (GAAT) bazasida tuzilgan. GAAT esa 1947 yilda tashkil etilgan bo‘lib, 90-yillar boshida unga 150 dan ziyod mamlakatlar a'zo bo‘lgan.

VTOni tashkil etgan hujjatlar paketi hozir ham xizmat ko‘rsatish va savdo haqida gi bosh bitim (GATS) va intellektual mulkdorlarning savdo borasidagi haq-huquqlari to‘g‘risidagi bitimga asoslanadi.

VTO jahon savdo madaniyatini shakllantiradi va bir necha vazifalarni bajaradi. Xususan, import poshnilaridagi yuqori to‘lovlar darajasini qisqartirish, ta'rifsiz cheklovlarning turlarini kamaytirish. Bu nufuzli tashkilot o‘z faoliyati bilan dunyo resurslarining Xalqaro mikyosda tovar ayirboshlashi, barcha mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishi hamda yon-atrofidagi muhitni yaxshilanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YEAST) – 1960 yilda tashkil etilgan hududiy iqtisodiy tashkilot. Dastlab uning tarkibida Avstriya, Buyuk Britaniya. Daniya (1973 yilgacha), Norvegiya, Portugaliya (1983 yilgacha), Shvesariya, Shvesiya bo‘lgan.

Keyingi iqtisodiy bosqichlardan so‘ng unga Islandiya, Finlyandiya, Lixtenshteyn qo‘shildi. 1991-1993 yillarda erkin savdo qilish bo‘yicha Turkiya, Chexoslavakiya, Isroil, Polsha, Ruminiya, Vengriya va Bolgariya kelishuvga imzo chekishdi. 1994 yilda esa bu mamlakatlar Yevropa iqtisodiy maydoni haqida hamkorlik tashkil etishdi. (Shvesariya va Lixtenshteyndan tashqari).

Yevropa hamkorligi (YES) – G‘arbiy Yevropadagi uchta hududiy integratsiyalashgan guruhlar: 1957 yilda tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy hamkorligi, 1951 yil tashkil etilgan Yevropa po‘lat va ko‘mir ishlab chiqarish uyushmasi (YEOUS) va 1958 yilda asos solingan Yevropa atom energiya hamkorligi (Yevratom) dan iborat.

Yevropada bu yo‘nalishlarda hamkorliklar doirasida ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi va 1986 yilda Yevropa Ittifoqini tuzish uchun yagona Yevropa dalolatnomasi qabul qilindi.

Yevropa Ittifoqi (YES) – 1992 yildagi Maastrixt Shartnomasidan keyin, 1993 yildan Yevropa hamkorligi bazasida tashkil etilgan integratsiyalashgan uyushma. Dastlab unga 12 mamlakat a'zo bo'ldi, ular: Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya va Fransiya. 1994 yilgi kelishuvdan so'ng yana uchta – Avstriya, Finlyandiya va Shvesiya qo'shildi. Shu kecha-kunduzda Yevropa Ittifoqining doirasi 25 davlatga kengaydi.

Hozirda bu hududda «Chegarasiz Yevropa» deya yagona Yevropa g'oyasini amalga oshirish davom etmokda. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqi tuzilishida ijobiy o'zgarishlar mavjud.

BMT ning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi **(YUNKTAD)** – BMT bosh Assambliyasi organi bo'lib, u 1964 yilda tashkil etilgan.

YUNKTAD ning asosiy vazifasi Xalqaro savdo taraqqiyotini ta'minlash.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (MAR) – BMTning ixtisoslashgan tashkiloti. U 1960 yilda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki filiali sifatida tashkil etilgan. MAR barcha rivojlanayotgan mamlakatlarda bank faoliyati bo'yicha imtiyoz va sharoitlar yaratilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) – hukumatlararo kredit-moliya tashkiloti bo'lib, uning asosiy vazifalari a'zo mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish, Xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berish va to'lov balanslarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

MBRR Xalqaro rivojlanish asosotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi va Investitsiyalarni kafolatlash Xalqaro agentligi filiallariga ega. Uning bu filiallari jahon bankida yuqori nufuzli moliya muassasalari sanaladi.

Xalqaro valyuta fondi (MVF) – BMT tarkibidagi moliya tashkiloti. U 1944 yilda (Bretton – Vuds, AQSH) tashkil etildi. 1947 yildan esa o'z faoliyatini boshladi. Fondning asosiy vazifalari – valyuta kurslarini tartibga solish, ularga rioya qilinishini nazorat etish me'yorlarini belgilash, to'lov balanslarini bekarorligi munosabati bilan valyuta qiyinchiliklari yuzaga kelganida o'z a'zolariga valyuta resurslaridan yordam berish.

MVF ga 180 dan ortiq davlatlar a'zo, shular qatorida Rossiya (1992) va MDH davlatlari.

Birlashgan millatlar tashkiloti (OON) – 192 ta mamlakatlar a'zo bo'lgan yirik Xalqaro tashkilot.

BMT 1945 yilda tashkil etildi. Uning faoliyat maqsadi unga a'zo mamlakatlar tinchligi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahvolini yaxshilash. Ularning Xalqaro iqtisodiy hamkorlik sari undash, Xalqaro iqtisodiy munosabatlar taraqqiyotini ta'minlashdan iborat.

Neft mahsulotlari eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti (OPEK) – Xalqaro hukumatlar o'rtasida tuzilgan tashkilot. U Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari hududlaridagi neftni qazib olish va eksport qilish, ularning narxlarini belgilash massalarini amalga oshirish bo'yicha 1960 yilda tashkil etilgan.

OPEKka 13 ta mamlakat a'zo: Aljir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Iroq, Eron, Qator, Quvayt, Liviya, Nigeriya, BAA, Saudiya Arabistoni va Ekvador.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR)–dunyoning iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish munosabatlariga kirishuvchi tashkiloti. U 1960 yilda tashkil etilgan bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirib turadi. Unga a'zo mamlakatlar 1997 yilda 29 tani tashkil etgan. (Tashkilotning so'nggi a'zosi Koreya Respublikasi, 1996 yil, noyabr).

OESR hozirgi bosqichda YEI ning integratsiyalashgan qo'shilmasi turiga kirmaydi, ammo bu tashkilot unga a'zo bo'lgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy muammolari va ichki ijtimoiy taraqqiyoti massasalariga aralashadi.

«Parij klubi»-kreditorlar mamlakatlarning hukumatlararo muassasasi, MVF a'zosi. 1961 yilda tashkil etilgan bu «klub» to'lov muddatini bir tomonlama o'zaytirishning oldini olish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari shartlarini qayta ko'rib chiqish bilan shug'ullanadi.

«Rim klubi» - Xalqaro jamoatchilik tashkiloti. 1968 yilda inson muhofazasi maqsadida tuzilgan. «Klub» jahon ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuksalishning global muammolarini hal etish, jamoat tashkilotlarini rivojlantirish, atrof-muhitda ishlab chiqarish ko'payganidan inson uchun zararli havoni paydo bo'lishiga qarshi kurashish faoliyati bilan shug'ullanadi.

BMT ning iqtisodiy komissiyasi – beshta hududdagi iqtisodiy munosabatlarni nazorat qilib boradigan komissiya, ya'ni BMT rahbarligidagi iqtisodiy va ijtimoiy Sovet **(EKOSOS);**

Yevropa iqtisodiy komissiyasi (1947 yilda tashkil etilgan) YEIK. **Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiya (ESKATO**, 1947).

Lotin Amerikasi uchun iqtisodiy komissiya (EKLA, 1948 yil va 1951 yil). **Afrika uchun iqtisodiy komissiya (EKA,** 1958 y), **Shimoliy Osiyo uchun iqtisodiy-ijtimoiy komissiya (EKZA,** 1974).

BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy Soveti (EKOSOS) – BMT bosh Assambleyasining asosiy organlaridan biri. BMT dasturidagi ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning bajarilishini nazorat qiluvchi oliy maslahat idorasi.

Bu Kengash BMTga a'zo mamlakatlar hududdidagi tashkilotlarga rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish huquqiga ega.

EKOSOS dirasida Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, BMT ga a'zo davlatlar ichidagi mavjud yuzaga kelgan muammolar hal etiladi.

XALQARO TASHKILOTLARNING QISQARTIRILGAN NOMLARI RO'YXATI

ASEAN – Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlar assotsiatsiyasi.
ATES – Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi.
VOZ - Butunjahon sog‘liqni saklash tashkiloti.
VTO - Butunjahon savdo tashkiloti
GATT - Tariflar va savdo haqidagi bosh bitim
EEK - Yevropa iqtisodiy komissiyasi
ES - Yevropa Ittifoqi
EES - Yevropa iqtisodiy hamkorligi
MAR - Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi
MBRR - Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki.
MVF - Xalqaro valyuta fondi
MOT - Xalqaro mehnat tashkiloti
NAFTA - Shimoliy Amerika mamlakatlarining savdo to‘g‘risidagi kelishuvi
OON - Birlashgan millatlar tashkiloti.
OPEK - Neftni eksport qiladigan mamlakatlar tashqiloti
OESR - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti
PROON - Milliy hamkorlik tashkiloti taraqqiyot dasturi
SNG - Mustaqil Davlatlar hamdo‘stligi
FAO - Qishlok xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha milliy hamkorlik
EKA - Afrika uchun iqtisodiy komissiya
EKLA - Lotin Amerikasi uchun iqtisodiy komissiya
EKOSOS - BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi
ESKATO - Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya
YUNEP - BMT ning atrof-muhit dasturi
YUNESKO - BMT ning ta’lim, fan va madaniyat masalalari tashkiloti
YUNIDO - BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti
YUNKTAD - BMT ning savdo va taraqqiyot masalalari bo‘yicha konferensiyasi.

A D A B I Yo T L A R

Karimov I.A. - O'zbekistan na poroge XXI veka: ugrozi, bezopasnosti, usloviya stabilnosti i garantii progressa. Tashkent., 1997.

Karimov I.A. - Po puti sozidaniya. Tashkent., 1997.

Karimov I.A. - O'zbekistan k velikomu budushemu. T. 1998.

Avdokushin Ye.F. - Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. M., 2002.
Andrianov V.D. - Rossiya v mirovoy ekonomike. M., 1998.
Axmedov E., Saidaminova Z. – Respublika O'zbekistan. T., 1998.
Vavilova V.A., Sameko G.V. – Ekonomika sovremennoy Rossii. M., 1998.
Gulyamov S., Ubaydullayeva R., Axmedov E. – Nezavisimiy O'zbekistan. T., 2000.
Yershov M.V. – Valyutno – finansovie mexanizmi v sovremennom mire. M., 2000.
Jurayev S., Jurayev T., va boshqalar. O‘zbekiston va xalqaro tashkilotlar. T.: 2005.
Kireev A.M. – Mejdunarodnaya ekonomika. Chast- I-II. M., 2003.
Lomakin V.K. – Mirovaya ekonomika. M., 2004.
Livensev N.N. Mejduanrodnie ekonomicheskiye otnosheniya. M: 2005
Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. V.Ye. Ribalkina M., 1997.
Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. N.N. Livenseva. M., 2001.
Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. Ye.F. Jukova. M., 2000.
Mejdunarodnie ekonomicheskiye otnosheniya. Pod red. A.I. Yevdokimova. M., 2003.
Mirovaya ekonomika. Pod red. V.P. Kolosova. M., 2001.
Mirovaya ekonomika. Pod red. A.S. Bulatova. M., 2003.
Mirovaya ekonomika. Pod red. A.K. Shurkalina. M., 2000.
Nazarova G.G., Haydarov N.X Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. T.: 2005.
Sergeev P.V. Mirovaya ekonomika. M., 1999.
Sirajiddinov N. Problemi povisheniya effektivnosti vneshney torgovli O'zbekistana. T.:2004
Sotsialno-ekonomichesaya geografiya zarubejnogo mira. Pod red. V.V. Volskogo. M., 2003.
Teor T.R. – Mirovaya ekonomika. S – Pb., 2001.
O'zbekistan v mirovoy ekonomike. T., 2001.
Shodiyev R.X., Maxmudov E.R. Jahon iqtisodiyoti. T., 2005.
Xalevinskaya Ye.D., Kroze I.S. – Mirovoye xozyaystvo. M., 1999.
Ekonomicheskiy vestnik O'zbekistana. № 3-4, 2004 g.

MUNDARIJA

KIRISH…… 3
1-mavzu. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: mohiyati, tarkibi va taraqqiyotning asosiy qirralari……..... 5

II mavzu. Halqaro savdo aloqalari va savdo siyosati…..... 17
III mavzu. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy
mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari…….. 31
IV mavzu. Xalqaro kapital migratsiyasi…… 43
V mavzu. O‘zbekiston Respublikasining investitsion
siyosati va uning mamlakat iqtisodiyotini
rivojlantirishdagi roli…… 52
VI mavzu. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari……... 62
VII mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiyalar……... 77
VIII mavzu. Xalqaro ishchi kuchlari migratsiyasi……... 88
IX mavzu. Jahon xo‘jaligida xalqaro…… 95
X mavzu. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida
xalqaro tashkilotlarning o‘rni va roli…… 109
Asosiy tushunchalar……..……... 117
Glossariy (xalqaro tashkilotlar)……..... 130
Xalqaro tashkilotlarning qisqartirilgan
nomlari ro‘yxati…….. 134
Adabiyotlar……... 135

Samarqand iqtisodiyot
va servis instituti
Institut bosmaxonasi,
Shoxrux ko‘chasi, 60

Buyurtma № 225
Hajmi 8,5 b.t.
Adadi 100 nusxa